

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZOKIRJON SAIDBOBOEV
SHERZODJON CHORIEV

MAXSUS TARIXIY FANLAR ASOSLARI

5320300-Arxivshunoslik bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun darslik

TOSHKENT-2010

ANNOTATSIYA

Darslik maxsus tarixiy fanlar hamda uning asosini tashkil etuvchi qismlar – paleografiya, arxeografiya va epigrafika, numizmatika, toponimika, tarixiy kartografiya, xronologiya va metrologiya, diplomatika, geraldika va sfragistika, genealogiya fanlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, tarixiy fanlar uchun ahamiyati haqida tasavvur berish imkonini beradi.

АННОТАЦИЯ

Учебник дает представление об основных частях специальных исторических дисциплин – палеографии, археографии и эпиграфика, нумизматика, основы топонимики, исторической картографии, хронология и метрология, дипломатика, геральдика и сфрагистика, генеалогия, а также их возникновения и развитие, роли в исторической науке.

ANNOTATION

The textbook contents about main parts of special historical disciplines – paleography, archeography and epigraphy, numizmaty, toponimy, historical cartography, chronology and metrology, diplomatics, heraldy and sphragicy, genealogy, also their creating and development, role in historical science.

Mas'ul muharrir:

O. BO'RIEV

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

N.A. ABDURAXIMOVA

tarix fanlari doktori, professor

Z.B. RAXMONQULOVA

tarix fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

“Maxsus tarixiy fanlar” (ko’pincha “yordamchi tarixiy fanlar” deb ham yuritiladi) baynalminal tushunchadir. Nemis tilidagi “Die historischen Hilfswissenschaften” atamasidan kelib chiqqan. Xuddi shunday atama frantsuz, ingliz, polyak va boshqa tillarda ham mavjud (“les sciences auxiliaires de l’histoire”, “the auxiliary historical disciplines”, “nauki pomocnicze historii” va hokazo).

Maxsus tarixiy fanlarga diplomatika, xronologiya, metrologiya, sfragistika, geraldika, numizmatika, arxeografiya, genealogiya, kartografiya kabi fanlar taalluqlidir. Tarixiy fanlar tizimida yana epigrafika ham muhim o’rin egallaydi. Kodikologiya, berestologiya, bonistika, faleristika, veksellologiya, emblematika, filokratiya va boshqa fanlarning ham maxsus tarixiy fanlar sirasiga kirganiga ko’p bo’lmadi.

Tarixiy tadqiqotlar jarayonida maxsus tarixiy fanlar o’zining mustaqil, muhim tadqiqot maqsadi, alohida tahlil usullari borligi bilan ajralib turganligi bois, ularga fanning “yordamchi” sohasi deb qarash noto’g’ridir. Maxsus tarixiy fanlar asoslari tarix fanining rivojida birinchidan, to’g’ri dalillarni berish, ikkinchidan, tarixiy jarayonlarning muhim tomonlarini yoritishi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan maxsus tarixiy fanlar tarixning “yordamchilari” hisoblanadi. Jumladan, qadimgi va o’rta asrlarga oid matni paleografiyani bilmasdan turib o’qish yoki tarixiy voqeaning sanasini to’g’ri o’girish qoidasisiz uni qanday aniqlash mumkin?

Maxsus tarixiy fanlar asoslari tarix fani, arxivshunoslik sohasi bilan chambarchas bog’liqdir. Maxsus tarixiy fanlarni bilmasdan turib tarixchi, arxivshunos etuk mutaxassis bo’lib shakllanishi mushkul. o’rta asrlardagi yirik tarixchilar manbashunos, diplomatist va paleograf bo’lganligi bejiz emas. Tarix fanidagi yutuqlar qaysidir ma’noda maxsus tarixiy fanlar sohasidagi rivojlanish yutuqlariga ham bog’liq. Mazkur omil tarix fanining birligini isbotlab, uni “asosiy”, “maxsus” va “yordamchi” fanlarga bo’lish shartli ekanligini bildiradi. Maxsus tarixiy fanlarining mustaqil maqsad va vazifalari borligi ham ularning har biri alohida fan tarmog’i ekanligidan dalolat beradi.

Maxsus tarixiy fanlarga tavsif berganda ular to’liq tarixiy fanlar ekanligiga urg’u berishimiz kerak. Faqatgina etnografiya, tarixiy geografiya va paleografiya aralash xususiyat kasb etadi. Adabiyotlarda paleografiyaga tarixiy-filologik fan sifatida ham tavsif beriladi.

Maxsus tarixiy fanlarning uslubiyati doimo rivojlanib va mukammallashib boradi. Ularning o’zaro bog’liqligi har birining yangi

tajribalar bilan boyishi, manbashunoslik va tarixiy sintez uchun sabablar yaratishga imkon beradi.

Fan yagona. Bu haqiqat tarix fani, arxiv sohasiga ham tegishli bo'lib, mutaxassislar uni alohida bo'limlarga bo'lishadi. Biror muammoni o'rganayotgan tadqiqotchi esa bir davrga oid turli faktik materiallarga to'qnash kelishi va ularni maxsus tarixiy fanlar, manbashunoslik, paleografik tahlil orqali hal etishi mumkin.

Manbashunoslikka doir zamonaviy o'quv qo'llanmalarida maxsus tarixiy fanlarning ahamiyati, ularning manbaviy tahlil jarayonidagi o'rni masalalariga deyarli e'tibor qaratilmagan. Shu jihatdan mazkur darslik bu sohadagi bo'shliqlarni to'ldiribgina qolmay, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun yaratilgan dastlabki o'quv adabiyoti ham hisoblanadi.

Darslikda talabalarning fan yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash maqsadida har bir mavzu oxirida savol va topshiriqlar hamda tavsiya etilgan manba va adabiyotlar ro'yxati berildi. Bundan tashqari ushbu fandan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borilishini hisobga olib, mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari ham keltirilgan.

Kelajakda darslikni takomillashtirish yuzasidan berilgan barcha maslahat va tavsiyalar uchun mualliflar avvaldan minnatdorchilik bildiradi.

I BOB. PALEOGRAFIYA

1. Paleografiya tarixi. Uning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi

Paleografiya tarix fanining ko'makchi tarmoqlaridai bo'lib, tarixiy-filologik xarakterga ega. Fanning bu sohasi kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida vujudga kelgan turli yozuvlar xarakterini, mazmunini, uning rivojlanib, hozirgi ko'inishga qay tariqa kelganini o'rganadi.

Paleografiya atamasi grekcha "paleos – "qadimgi", "grafio" – "yozaman" so'zlari, birikmasidan iborat. Bu atama fanga birinchi marta ilmiy paleografiya asoschisi frantsiyalik monax Bernar de Monfokon (1665-1741 yillar) tomonidan 1708 yilda kiritilgan.

Paleografiya – yozuv belgilarining yaratilishi va ularning rivojlanishini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan; nazariy paleografiya tarixan o'zgargan yozuv xususiyatlarining qonuniyatlarini aniqlaydi; amaliy va tavsifiy paleografiya muayyan qo'lyozmaning qachon va qaerda yaratilganini, uni yozgan yoki ko'chirgan shaxsning ishtirokini hamda kotiblarnint ish hajmini aniqlash maqsadida kotiblarning yoki ayrim qo'lezmalarining individual (o'ziga xos) jihatlarini o'rganadi.

Paleografiya mustaqil fan sifatida diplomatika (qadimgi hujjatlar, yorliqlar va yozma manbalarning haqiqiyiligini aniqlovchi soha)dan ajralib chiqqan.

Paleografiyaning asosiy vazifasi — sanasi ko'rsatilgan qo'lyozmalar yozuvining xronologik va hududiy xususiyatlarini aniqlash va tartibga solish va shu asosda muayyan matnda uning yozilish vaqti va joyi ko'rsatilmagan, bu haqda bilvosita ma'lumotlar bo'lmagan qo'lyozmalarining ham davri va joyini aniqlashdir.

Paleografiya adabiyot yodgorliklaridan tashqari diplomatik yozuvlar, tanga, muhrlar, tosh yoki qattiq jismlarga tushirilgan yozuvlarni ham o'rganadi, tasviriy san'at yodgorliklarini ham qamrab oladi. Paleografiya alohida fan sifatida Evropada, dastlab Frantsiyada XVIII asrning birinchi yarmida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Boshqa mamlakatlarda esa paleografiyadan turli yozuvlarni o'qish, o'rganish, hujjatlarni aniqlashda foydalanildi xolos.

XVIII asr oxiri-XIX asrning boshlaridan paleografiya Evropa, Osiyo, Amerika mamlakatlarida rivojlana boshladi, yirik ilmiy muassasalar ochildi. Bu davrda I. Fridrix, E. Loukotki, D. Diringer, J. Xanmer, S. Lengdon, P. Meridji, K. Brike, G. Noyman, I. Gross kabi yirik paleograflar etishib chiqdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyada ham K.N. Nevostruev, E.F. Karskiy, N.P. Lixachev, A.V. Garskiy, I.S. Belyaev, A.I.

Sobolevskiy kabi olimlar paleografiyaga doir darsliklar, ilmiy asarlar yaratdilar.

Sovet davrida boshqa fanlar qatori paleografiyaning ham taraqqiy etishiga yo'l ochib berdi. Shuningdek, paleografiyaga oid o'quv qo'llanma va darsliklar yaratildi. Masalan, 1918 yili V.N. Shepkinning "Russkaya paleografiya" asari chop etildi. Bu darslik juda katta ilmiy qimmatga ega bo'lganligi sababli 1967 yilda qayta nashr etildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng sobiq Ittifoqda paleografiyaga doir bir qator darsliklar, albomlar va ilmiy asarlar yaratildi.

Paleografiya taraqqiyoti er yuzida yozuv qachon vujudga kelganligini aniqlash imkoniyatini berdi. To'plangan boy yozma manbalar (belgilar, suratlar, buyumlar, harflar va boshqalar) u yoki bu xalqlarning urf-odati, madaniyati hamda turli voqealar to'g'risida ma'lumot beradi.

Insoniyat yozuvga etib kelguncha o'z boshidan uzoq davrni kechirgan, Nutqni yozib olish uchun esa bir necha ming yil ilgari maxsus belgilar qo'llanila boshlandi. Topilgan ashyoviy buyumlar, dastlabki rasm belgilar bundan 6-7 ming yil ilgari paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Buyumlardan mnemonika (eslatish) vositalari sifatida foydalanish hozirgi yozuvga olib keluvchi uzoq yo'ldagi birinchi qadamdir. Bu belgilar faqat inson fikrini ifodalagan.

Vaqt o'tishi bilan buyumlarga aniq ma'no berilgan. Ular narsalarni bildiruvchi, oldindan kelishib olingan o'ziga xos signallar, shartli belgilar hisoblangan. Buyumga ma'no birkiritib qo'yishning bu usuli buyumli yozuv deb atalgan. Buyumli yozuvdan foydalanish Osiyo, Afrika va Amerika qit'asi xalqlari orasida keng tarqalgan va uzoq davom etib kelgan. Masalan, "Vampum" kamari Shimoliy Amerika hindularining buyumlar yozuvi bo'lib, shakli ajoyibdir. "Vampum" kamari turli rangli chig'anoqlardan iborat. Chig'anoqlarniig joylashuvi, rangi, soni muayyan ma'noni bildirgan.

Peru davlati hududida yashagan qadimgi aholi o'rtasida ishlatib kelingan tugunlardan iborat yozuv ham buyumli yozuvning ajoyib namunasi bo'la oladi.

Hindistonda yashagan qadimgi xalqlar yozuv sifatida dastlab turli rangdagi buyumlarni ishlatganlar. Masalan, qora rang - baxtsizlikni, binafsha rang - xavf-xatarni, qizil rang - urushni bildirgan va hokazo.

Ammo buyumli yozuv o'zining asosiy vazifasini bajara olmadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni saqlab, yodlab qoladigan o'ziga xos xotiraga aylanmadi. Insoniyat taraqqiyotining jadallashuvi, murakkablashuvi yozuvning vujudga kelishini tarixan taqozo etdi.

Piktografiya - rasmlardan iborat bo'lgan yozuv. hozirgi yozuvga o'tishda yangi qadam bo'ldi. Rasmlardan iborat yozuvning xususiyati shuki, bunda fikr ayrim tushunchalarga ajratib emas, balki to'la ifodalanadi. Piktogramma harakatni, voqea-hodisani tasvirlaydi, lekin og'zaki tilni, buyumlarning nomlarini mutlaqo aks ettirmaydi. Piktogramma nimani tasvirlasa o'shani ifodalaydi, unda simvolika yo'q.

Piktografiya dastlab ibtidoiy san'at sifatida vujudga kelgan. Arxeologlar eng qadimgi tosh davri (paleolit)ga mansub qoya tosh suratlarini topganlar. Bu davr odamlari turli hayvon, qush, odamlarning tasvirini toshga tushirganlar.

Piktografik yozuv neolit davrida (eramizdan avvalgi 5-8 ming yilliklar orasi) to'liq shakllangan. Piktografik belgilardan hozir ham keng foydalanilmoqda.

Ideografiya. Jummalarning ayrim tushunchalarga, so'ngra so'zlarga bo'linishi - ideografiya hozirgi yozuvga olib keladigan yo'ldagi bosqichlardan biri bo'ldi. Piktogramma alohida elementlarga bo'linmasdan, faqat tugallangan fikrnigina ifoda etardi. Ideografiya esa butun so'z yoki tushunchani ifodalovchi tasvir bo'ldi. Ilk quldorlik davridan boshlab ideografiya Misr, Shumer, Xitoy, Krit oroli va Mesopotamiyada rivojlandi.

Ideografik yozuv axborot mazmunini bayon qilishi bilan birga tilning lug'aviy tarkibini ham belgilab berdi. Bu esa ma'nosi aniq va tasvirlanishi oson bo'lgan so'zlar uchun belgi — ideogrammalar yaratilishiga olib kelgan. Ideografik shakl barcha tillarda o'z mazmunini saqlab qolgan. Matematika, fizika, ximiya fanlaridagi hozirgi vaqtgacha saqlangan qoida va belgilar shular jumlasiga kiradi.

Ideografik shakllar mavhum tushunchalarni belgilar bilan ifodalab bersa-da, ammo so'zlar orasidagi bog'liqlikni keltirib chiqara olmaydi. Bir necha ming belgi mavjudligi esa uni o'rganishni mushkullashtirgan.

Jamiyat taraqqiyoti ideografik belgilar o'rniga oson o'rganish mumkin bo'lgan sodda yozuvni vujudga keltirishni taqozo etgan. Natijada aytilgan fikrlarni eshinishi bo'yicha yozishga o'tila boshlandi. Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarda Shumer hukmdorlari harbiy yurishlarning yakunlari to'g'risida ma'lumotni (shahar, qishloq nomlari, shaxslar) "rebus" uslubida yozib qoldirganlar.

Bu esa bo'g'inli yozuvga olib boradigan murakkab yo'lda qo'yilgan yangi qadam edi. Dastlab bo'g'inli yozuv qadimgi misr, shumer, osuriy, babil, qadimgi fors, xitoy yozuvlari va boshqa ideografik yozuvlardan ajralib chiqadi.

Birinchi alifbo eramizdan avvalgi ikki minginchi yillikda finikiyaliklar tomonidan yaratilgan. U 22 harfdan iborat bo'lib, harflar faqat undosh yoki unli tovushlardan tuzilgan bo'g'inlarni ifodalagan. Bunga sabab shuki, finikiyaliklar tili semit tillari gruppasiga kirgan. Bu tilda undosh tovushlar asosiy o'rin egallaydi.

Finikiya alifbosi yozshiga va yodlab olishga qulay bo'lganligi uchun ko'pchilik olimlar misr yozuvi, ossuriya—bobil yozuvi, kritomiken yozuvi ham shu asosida vujudga kelgan, degan fikrga kelganlar. Keyinchalik finikiyaliklar alifbosidagi harflar yunon va oromiy yozuvlaridan o'zlashtirib olingan. Osiyodagi ko'p harfli-tovushli yozuvlar qadimgi oromiy yozuvidan kelib chiqqanligi aniqlangan.

Yunon alifbosi esa g'arbdagi harfli-tovushli yozuv sistemasiga asos bo'lib kolgan. qadimgi yunonlarning o'chmas tarixiy xizmati shuki, ular unli tovushlarni ajratib, uning o'rniga alifboga maxsus belgilar kiritganlar va u hozirgi ko'rinishga kelgan.

Hozirgi vaqtda er yuzida yozuvning to'rt yuzdan ortiq turi mavjud. Juda ko'p yozuvlarning kelib chiqishi va mazmuni aniqlanayotgan bo'lsa-da, muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Masalan, rus yozuvi tarixini o'rganish bo'yicha esa ancha ishlar qilingan bo'lsa-da, qadimgi shumer yozuvlari va finikiya alifbosining kelib chiqishi ham aniqlanmagan.

Sobiq Ittifoqning Evropa qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida ilm ahli orasida katta qiziqish uyg'otgan noma'lum belgilar tushirilgan tosh, sopol taxtachalar, idishlar topilgan. Bu "sirli belgilar" uzoq o'tmishdagi jo'shqin hayot, voqealarning o'ziga xos "solnomasi" dir.

Sirli yozuvlarni o'rganishda mutaxassislar ikki yo'nalishga: sarmat va slavyan yo'nalishiga ajraldilar. Sarmat yo'nalishi tarafdorlari "sirli belgilar" sarmat yozuvi desalar, slavyan yo'nalishidagilar bu belgilarni goh qadimgi antlar yozuvidagi harflarga, goh yunon alifbosiga yoki runik yozuvga mansub deb ko'rsatadilar.

Qadimgi slavyan alifbosiga Kirill va Mefodiy (IX asrda yashagan aka-uka slavyan ma'rifatchilari, ilk slavyan alifbosi-kirillitsani yaratishgan) asos soldilar.

Kirillitsa - 43 harfdan iborat alifbo. Yunon alifbosi asosida yaratilgan bu alifboda slavyan va yunon tillaridagi tovushlarning o'xshashligiga qarab bir xil harflar ishlatilgan. Garchi kirillitsada qadimgi slavyan tilining fonetik jihati nazarda tutilgan bo'lsa-da, unga oltita yunon harfi kiritilgan.

Eramizning X asriga kelib kirillitsaning davomchisi glagolitsa vujudga keldi. Unda 39 ta harf bo'lgan. Bu alifbo harflarining shakli murakkabdir.

Glagolitsa harflari raqamlar o'rnida ham ishlatilgan. Masalan, dastlabki 9 harf — birliklarni; keyingi 9 harf - o'nliklarni; oxirgi 9 harf yuzliklarni bildirgan, “ch” harfi esa minglikni ifoda etgan.

Sobiq Ittifoqning Evropa qismidagi bir qator yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida eramizning X-XI asridagi Rus yozuvlariga doir topilmalar aniqlangan. Bu yozuvlar kirillitsa asosida vujudga kelgan bo'lib, sopolga, daraxt po'stlog'iga va tosh plitalarga bitilgan. Smolensk shahri yaqinidagi Gnezdovo qabristoni o'rganilganda qablardan birida sopol ko'za topilgan. Uning yuzasiga yozuv tushirilgan bo'lib, “goroshna” degan ma'noni beradi.

Bundan tashqari Kiev yaqinidagi arxeologik qazishmalarda urchuqning sopol toshlari topilib, uning aylana yuziga “Potvorin pryaslen 6” deb yozilgan. 1068 yilga oid bo'lgan topilma — tmutarakan toshining yuzasiga 67 harfdan iborat “Tmutarakandan Kerchgacha 14 ming sajen” degan yozuv tushirilgan.

Novgorod va boshqa joylardan ko'plab qayin po'stlog'iga bitilgan yozuvlarning topilishi mutaxassislar orasida katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Chunki asrimizning 50-yillarigacha ko'pchilik olimlar Rusda faqat knyazlar, boyarlar, cherkov xodimlarigina yozuv-chizuvni bilgan, oddiy hunarmandlar yoki umuman oddiy fuqaro xat-savodsiz bo'lgan, degan fikr yurardi.

Qayin po'stlog'idagi bitiklar oddiy xalq ham savodli bo'lganligini tasdiqlaydi. harflar o'tkir buyumlar bilan timdalab yozilgan. Shunday qilib XI—XP asrlardan boshlab Rusda yozuvning taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Yilnomalar, diniy hamda iqtisodiy aloqalar sohasidagi bitiklarning turi ko'paygan.

O'rganilayotgan alifbolarning turiga muvofiq, paleografiya arab paleografiyasi, turkiy paleografiyasi, hind paleografiyasi, xitoy paleografiyasi, yunon paleografiyasi, lotin paleografiyasi, slavyan paleografiyasi va boshqa turlarga bo'linadi.

2. Yozuv materiallari tarixi

Paleografiyada yozuv materialining vujudga kelishi va takomilini o'rganish hozirgi vaqtda alohida ilmiy yo'nalish kasb etdi. qadimda yozuv materiali nimadan iborat bo'lganligini arxeologik tadqiqotlar tufayligina aniqlash mumkin.

Jahonning turli hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida har xil buyumlarga o'yib yozilgan bitiklar topilgan. Mutaxassislar fikricha, eramizdan avvalgi VIII—V asrlardan boshlab O'rta Osiyo, Kavkazorti va qora dengizning shimoliy sohillarida yashagan xalqlar qoya toshlarga, hayvon terisiga, sopol va yog'och taxtachalarga turli voqealarni o'yib yoki rangli siyohlarda yozganlar.

Yozuv materiallari tarixini o'rganar ekanmiz, Vizantiya yoki yaqin Sharqda xat dastlab papirusga, pergamentga (teriga), qog'ozga bitilganini ko'ramiz. Ma'lumotlarga qaraganda, eramizning IV—V asriga qadar yozuv materiali sifatida papirusdan keng foydalanib kelingan. V asrda pergament ixtiro etilishi bilan papirus iste'moldan chiqqan.

Rusda Vizantiya yoki Sharqdan olib kelingan pergamentdan yozuv materiali sifatida foydalanilgan. XIII asrdan boshlab mahalliy mutaxassislar o'zlari pergament ishlab chiqara boshlaganlar.

Pergamentdagi yozuvlar eskirishi bilan unga qayta ishlov berilib, yana foydalanilgan. Rusda pergamentdan tashqari daraxt po'stlog'idan ham yozuv materiali sifatida foydalanilgan. Arxeologik qazishmalar tufayli keng hududdan kundalik xo'jalik hayotiga oid ma'lumotlarni ifoda etuvchi yozuvlar bitilgan 500 ga yaqin daraxt po'stlog'i topilgan. Bu yozuvlar suyak va metallardan yasalgan o'tkir buyumlar bilan o'yib yoki tirnab bitilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot ko'chayishi natijasida yozuvning roli oshib borgan hamda kishilarning yozuv materiallariga ehtiyojini kuchaytirgan. Ma'lumotlar xilma-xil yozuv materiallarini ishlab chiqarish IIIarq mamlakatlarida keng taraqqiy etganligi, keyinchalik bu Evropaga kirib keltanligidan dalolat beradi. Masalan, Evropaga qog'oz eramizning boshlarida Xitoy va hindistondan kirib keldi, ilk o'rta asrda Evropaning barcha hududida qog'ozga yozish rasm bo'ldi. Tekshirishlar ikki xil—bombitsina va shaxsiy qog'ozdan foydalanilganini ko'rsatadi. Bombitsina qog'ozi paxtadan va kanop, zig'ir tolasidan vujudga kelgan. Bu qog'oz turi qalin, sarg'ish, ba'zan juda silliqlangan, unga to'lqinsimon chiziq tushirilgan. qadimda Sharq va Evropada asosan bombitsina kog'ozi ishlatilgan. Ba'zi mutaxassislar fikricha paxtadan qog'oz tayyorlash usuli g'arbga Sharqdan o'tgan. Ammo mikroskopik tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, bombitsina kog'ozi yoki umuman qog'ozlar qalin, notekis, dag'al bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan qog'ozning sifati yaxshilana borib, hozirgi holatga kelgan.

Yozuv materiallaridan yana biri grifel taxtachasi bo'lib, Rossiyada undan XVIII asrdan boshlab foydalanilgan. Grifel taxtachasi qora

slanetsdan yasalgan, yupqa, yog'och ramkaga joylangan, kattaligi hozirgi daftarlar hajmiga to'g'ri keladi.

Grifel taxtachaning ikki tomonidan ham foydalanilgan. Bu taxtacha yozuvni dastlab o'rganayotganlar uchun juda qulaydir. Chungi doskadagi yozuvni o'chirish oson bo'lgan, bu esa qog'ozni tejash imkonini bergan. Grifel taxtachasi XVIII asrdan XX asr boshlarigacha Rossiyaning barcha hududida to'liq iste'molda bo'lgan.

Yozuvlarni turli materiallarga tushirishda rang-siyoh juda katta o'rin egallagan. Dastlab teridagi yozuvlar oq, qora ranglarda bitilgan. Bu siyohlar o'simlik, hayvon yog'i va turli rangli tosh unidan qilinsa-da, qanday tayyorlanganligi asrlar davomida sir tutilgan. Siyoh dastlab Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tayyorlangan.

Hozirgacha foydalanib kelingan siyohlar turli birikmalar asosida vujudga kelgan. Masalan, glitserin, temir kukuni, tanin, shellak, arpa, sirka, bur, kvas, tuz va karbol kislotasi, qayin bargi, dub, olxa, olma, somon kuli, shavel, qand, nordon va chuchuk asal, olcha mo'mi, limon soki va boshqa moddalardan rangli siyoh tayyorlangan.

Xattotlar teri va qog'ozdagi yozuvlarning o'ziga xos qiymatini oshirishda turli ranglardan foydalanganlar, ya'ni sarlavha, xatboshi va so'zboshi qizil siyohda yozilgan. G'arbda tarkibida qo'rg'oshin kuporosi, kinovar va boshqalar bo'lgan surik siyohi ishlatilgan. Vizantiyada esa pupur yoki imperator siyohidan foydalanilgan. Ammo bu siyoh qimmat bo'lganligi uchun oddiy siyoh (maymunjon) o'simligini ishlatish rasm bo'lgan. Qadimgi slavyan qo'lyozmalarini yozish uchun surik va o'simlik (maymunjon) rangidan foydalanilgan.

3. Yozuv qurollari

Yozuv bilan barobar yozuv qurollari ham vujudga keldi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga oid qoyatoshdagi yozuvlar (mixxat) o'tkir tosh, metall qurollar bilan bitilganligini ko'rsatadi. Papirus, yog'ochdagi yozuvlar qush va parrandalar patida bitilgan.

Ilk o'rta asrda yozuv quroli sifatida asosan g'oz patidan keng foydalanilgan. hozirgi vaqtda rassomlar ba'zi tasvirlarni chizishda g'oz patidan foydalanishmoqda. Patdan metall yozuv quroliga o'tilishi kishilik tarixida qo'lga kiritilgan eng muhim ixtirolardan biridir. Natijada metall pero bilan tezroq yozish imkoniyati vujudga keldi.

Hozirgi vaqtda metall pero tarixi to'liq o'rganib chiqilgan, deb bo'lmaydi. Chunki er sharining turli joylarida yashagan xalqlar tarixiy taraqqiyotda bir xil bosqichni bir vaqtda bosib o'tmagan. IIIu bilan birga ularda fan va texnika taraqqiyoti umumiylikni tashkil qilmaydi.

Qadimgi Rimda bronza, mis va kumushdan yasalgan perodan yozuv quroli sifatida foydalanilgan. Ammo ularning yasalishi, tashqi ko'rinishi hozirgi yozuv qurollariga o'xshash emas, ya'ni ular zanglamagan, tashlab ham yuborilmagan.

XV asrda g'arbiy Evropada metall pero vujudga kelgan. Lekin ular yupqa bo'lgani uchun tezda yaroqsiz holga kelgan. 1798 yili A. Zenefelder metall peroni ixtiro qildi. Bu pero bilan litografiya toshiga yozish mumkin bo'ldi. 1818 yili Asxen shahrida yashovchi Yansen po'lat pero ixtiro kildi. 1828 yili berlinlik Manteyfel xam po'lat pero yaratdi. Byurger esa uni g'oz patiga o'rnatishni taklif etdi. Ingliz adabiyotida Evropada birinchi metall pero 1780 yili Samyuel Garrison tomonidan ixtiro qilingan, deb ta'kidlanadi. Ma'lumotlar 1803 yilda Londonda har dona pero 5 shillingdan sotilganligidan dalolat beradi.

Bu pero hozirgilarga o'xshamay, asosan tsilindrsimon va trubkasimon bo'lgan. qattiq va qo'pol bu peroga talab uncha katta emas edi. 1828-1829 yillarda Garrison va Mezon hamkorlikda talabga javob beruvchi yumshoq pero ixtiro qildilar. Bu pero qisqa vaqt ichida omma orasida shuhrat qozondi.

Rossiyaga pero XVIII asrning 30-yillaridan boshlab Evropadan kirib keldi. Bir necha o'n yillardan keyin bu erda pero metalldan ishlab chiqarila boshlandi. Perolar Frantsiyadan va Germaniyadan olib kelinib, har donasi 50 tiyindan to 1 rubl 50 tiyingacha sotilgan.

Metall perodan foydalanish boshlanganiga qaramay pat ham yozuv quroli sifatida uzoq vaqt o'z qiymatini yo'qotmaydi. Rossiyada metall pero yozuv tajribasiga 1880 yillarning o'rtalaridan boshlab kirib keldi. Maktab va muassasalarda yozuv ishlari metall pero bilan bajarilgan.

Hozirgi vaqtda xattotlik ishlarida, o'quv protsessida 400 xildan ortiq o'ziga xos metall pero qo'llanilmokda. XX asrning boshlarida yangi yozuv quroli - muallifuchka vujudga keldi. Muallifuchka qulayligi, bir tekis, tez yozishi tufayli darhol ommalashib ketdi.

Yozuv qurollaridan yana biri - qalam, u turk tilida – “qora tosh” rus tilida – “karandash” bo'lib o'tgan. qadimda Sharq mamlakatlari xalqlari turli voqea va hodisalarni yog'och, teri, qog'ozga yog'och ko'miri bilan yozganlar. XVI asrning o'rtalarida yog'ochdan yasalgan tayoqchalarga grafit joylashtirilgan. Keyinchalik qalam tayyorlash texnologiyasi takomillashtirilgan: grafit kukun holatiga keltirilib, toza tuproq bilan qorishtirilgan va tayoqchalar hosil qilingan. Bu tayoqchalar esa yog'och orasiga joylashtirilgan. Natijada hozir ishlatiladigan qalam vujudga kelgan. Hozirgi paytda 3 xil qalam bor. Bular: qora grafit: ximiyaviy (koproval) va rangli qalamlardir.

Qora grafit qalam yumshoq (m), qattiq-yumshoq (tm) va qattiq (t) qalamga bo'linadi. hozirgi vaqtda dunyoda qalamning 370 dan ortiq turi, shu jumladan 70 dan ortiq rangli qalam mavjud.

XX asr boshlarida Evropa mamlakatlarida avtomat yoki mexanik qalamlar vujudga keldi. U prujina, bosma tugma yoki burama yordamida ishlaydi.

Qalamning ixtiro qilinishi bilan har qanday sharoitda undan foydalanish imkoniyati vujudga keldiki, bu siyoh bilan yozadigan peroga nisbatan bir muncha qulaydir. Ammo paleografiyada siyohli yozuvga nisbatan qalam yozuvining qiymati past, chunki qalamda yozilgan yozuv tez o'chib ketadi, yaxshi o'qilmaydi, uzoq saqlanmaydi.

Zamonaviy yozuv qurollari orasida yana sharikli ruchka ham keng tarqalgan. Sharikli ruchka Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi. Sharikli ruchkaning texnik takomillashuvi tufayli rangli ruchkalarining bir necha turi vujudga keldi, natijada turli maqsaddagi yozuvlarni bajarishda qulaylik tug'ildi.

4. Qo'lyozmalarning bezagi va shakli

Qo'lyozmalarni bezatish va ularning shaklini o'rganish paleografiyada alohida o'rin egallaydi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insoniyat yozuv materialidan foydalana boshlagandan to hozirgi kungacha uning hajmi, bezagi sodda holat va ko'rinishdan murakkab va aniq nuqtaga keldi. Lekin bu yozuv materiallarining hajmi va bezagi o'zgarmas, degan ma'noni bildirmaydi. U inson talab va ehtiyojiga qarab mukammallashib, nafislashib va go'zallashib boradi.

Dastlabki yozuv materiallari: papirus, pergament, yog'och va boshqalar shakli bir xil bo'lmagan. Yozuv materialini yozilishi zarur bo'lgan ma'lumotning hajmiga qarab tanlab olingan. qog'oz yaratilishi bilan uni malum shaklda chiqarish ehtiyoji tug'ildi. qog'ozning dastlabki shakli hozirgi yozuv qog'ozlarga nisbatan ikki baravar katta bo'lgan. qog'ozlar alohida-alohida ham, to'rt yoki sakkiz varaqli daftar holida ham bo'lgan.

Qadimgi qo'lyozmalar daftar holida tayyorlangan qog'ozlarning har ikki betiga bitilgan. Bu qo'lyozmalar hajmiga qarab muqovalangan. Agar qalin bo'lsa, jildi yaxshi materialdan qilingan.

Bizgacha etib kelgan qadimgi qo'lyozmalar qimmatbaho teri bilan ishlangan muqovalardadir. Ba'zi jildlarning yuzi oltin, kumush va qimmatbaho toshlar bilan ham bezatilgan.

Yozuv materialini vujudga kelib, undan foydalana boshlash bilan uni bezatish ishlariga ham asos solindi. Yozish uchun tayyorlangan qog'ozlar

hoshiyasini bezatishning o'ziga xos tarixi bor. Dastlabki ko'lyozmalar hoshiyasiga turli geometrik belgilar tushirilgan. Davr o'tishi bilan musavvirlar qog'ozni bezatishning yangi usullarini joriy etib, takomillashtirib borganlar. Masalan, zanjirsimon, to'lqinsimon kesishgan ikki chiziq tasviri, girdobsimon tasvir va boshqalar. qadimgi Rusda yuqoridagicha bezash uslubi bilan Vizantiyadan o'tgan bezash uslubi mavjud bo'lgan. Vizantiyacha bezash uslubi Rusniig janubiy hududlarida keng tarqalgan. Vizantiya bezagi oddiy geometrik shakllardan iborat bo'lib, so'ngi antik davr me'morchiligi ko'rinishlarini o'zida saqlab qolgan. Bu uslubda doirasimon, to'g'ri uchburchak, to'g'ri burchakli belgilar ishlatiladi. Ishlatilgan har bir geometrik belgining mazmuniga qarab uning turli tomonlariga barg, gul, novda tasviri tushirilgan.

Qo'lyozmani bezashning vizantiyacha uslubidan yana biri qog'oz yuziga to'g'ri burchakli chiziq, doira, gumbazsimon, yoysimon yoki piramidasimon tasvir tushirishdir. Shu bezaklarni tushirgan musavvirlarning muhri yoki ismi yo familiyasining bosh harfi ham qog'ozda o'z aksini topgan. Bular turli qush, hayvon hamda geometrik belgilardan iborat bo'lgan.

XIII asrdan boshlab Rusda Vizantiya uslubiga mansub bo'lgan rombsimon va yuraksimon ko'rinishdagi yirik katakli bezaklar o'z qiymatini yo'qota borgan, mahalliy aholi orasidan chiqqan musavvirlar ta'siri ostida qog'ozni bezashning yangi usullari vujudga kela boshlagan. Shu vaqtda qo'lyozmalar hoshiyasiga turli afsonalar bilan bog'liq tasvirlar tushirila boshlandi. Ya'ni geometrik belgilar va turli daraxt shoxlari bilan bir qatorda afsonaviy hayvonlar, qanotli sherlar, yirtqich qiskichbaqa, kaltakesak, ajdar kabilar tasvirlangan.

XVI asrning o'rtalaridan boshlab kitob va qo'lyozmalarni bezashning yangi uslubi yuzaga keldi. Rossiyada kitob bosishning vujudga kelishi ham bunga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Dastlabki bosma kitoblar qora va oq rangda bezalgan. Shu bilan birga kitob asosan geometrik bezaklar bilan ishlangan.

Kitobga va qo'lyozmalarga ehtiyojning ortishi ularni bezashning takomillashuvini taqozo etdi. Natijada kitobga 3 xil rang bilan bezak berila boshlandi. Bezash ishlarining murakkablashuvi tufayli san'atdagi o'ziga xos yo'llar: XVII asrda — barokko; XVIII asrda — rokoko; XIX asr boshida — ampira vujudga keldi.

Barokko uslubi XVI asrda Italiyada yuzaga kelgan, Rossiyaga nemislar va polyaklar uslublarini o'ziga singdirgan holda kirib kelgan edi.

Bu uslubda qog'oz hoshiyasida quyidan yuqoriga o'sib chiqqan mevali o'simlik tasvirlangan. Shu bilan birga naqshlar to'g'ri, egri, karniz ko'rinishida tasvirlangan.

XVIII asrga kelib bezakning yangi uslubi — rokoko paydo bo'ldi. Dastlab bu uslub Frantsiyada qo'llanilgan, keyinchalik Evropadagi boshqa mamlakatlarga, shu jumladan Rossiyaga ham o'tgan.

Rokokoda to'g'ri burchak ichida vazaga solingan nozik o'simlik va gullar tasvirlangan.

Ampir — Italiya va Frantsiyada vujudga kelib o'zaro qo'shilib ketgan naqsh uslubi. Keyinchalik Evropaning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgan. Rossiyaga esa XIX asr boshlarida kirib kelgan. Ampir maxsus ishlangan bezakdir. Unda bosiq ranglarda hayvon, jangovar qurollar, afsonaviy mahluqlar, qushlar va gullar tasvirlangan.

Qadimgi qo'lyozmalar turli miniatyura tasvirlari bilan ham bezatilgan. Miniatyura tasvirlari qo'lyozma mazmuniga oid bo'lib, uni yoritishda muhim o'rin egallaydi. Dastlabki miniatyura tasvirlari vizantiyaliklar va slavyanlarning diniy mazmundagi yozma manbalarida uchraydi. Bu kitob va hujjatlarda xudo, payg'ambarlar, diniy marosimlar aks ettirilgan. Rus miniatyurasining umumiy rivojlanishida tasviriy san'atning Vizantiyadan Evropa orqali o'tgan ba'zi tomonlari yo'qolib borganligini ko'ramiz. Miniatyuradagi peyzajlarda ko'pincha yalang'och tog'lar tasvirlangan. XV-XVI asrlar miniatyurasidagi peyzajlarda tog'lar tasviri haqiqatga yaqinlashgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki miniatyura tasvirlar alohida qo'lyozmalarda uchraydi. Masalan, 12 jildlik Radzivilov yilnomasida XVI asrning ikkinchi yarmiga oid 16 ming sahifada tasvir bor. Bunday miniatyura tasvirlar XVII asrdagi qadimgi urf-odatlar haqida hikoya qiluvchi qo'lyozmalarda ham uchraydi.

Har bir miniatyuraning mazmuni voqelikka, rassom va xaridorning didiga moslangan. XII-XIII asrlarda pergamentga tasvirlar quyuk rangli bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu pergamentlarda qadimgi tasvirlar uslubi saqlanib qolgan.

XVII asrga kelib miniatyurada bosma va portret tasvir yaratildi. Bu sohaning asoschisi Semyon Ushakovdir. Bunda turli tarixiy voqealar, oddiy mehnatkash xalq, uning turmushi, xunarmandchilik soxalari haqqoniy tasvirlangan.

Qo'lyozmalar me'morchilik inshootlari tasviri bilan ham bezatilgan. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus miniatyuralarida cherkov, soborlar va boshqa muxim qurilishlar tasvirlangan. Masalan, Novgorod, Pskov, Vladimir, Suzdal, Moskva shaxarlaridagi yirik qurilishlar shu davr kitob va qo'lyozmalarida keng aks ettirilgan. Bu tasvirlar o'rta asrlar

me'morchiligini o'rganishda ham, qo'lyozmalarni bezash usullarni tadqiq qilishda ham muhimdir.

Qo'lyozmalarni bezashda maxsus dekorativ yozuv - vyaz (chirmashgan xat) keng qo'llanilgan. Bunda harflar uzluksiz, bir-biri bilan bog'langan holda davom ettiriladi. Vyaz uslubida qo'lyozmalarga, metall buyumlarga, qabr toshlariga, ikonalariga yozilgan. Bu yozuvlarning mazmuni toat-ibodat, nutq, esdalik, qadimgi yodgorliklarning nomlaridan iborat bo'lgan.

Vyaz uslubidagi yozuv voqealarning boshlashini, tugashi bilan yoki yangi jumla yirik harf bilan boshlanishi bilan uziladi.

Vyaz uslubidagi dastlabki yozuvlar XIV asrning birinchi yarmida paydo bo'ldi. XV asrda bu uslub rivojlandi, XVI asrlarga kelib har bir shaharning o'ziga xos alohida vyaz uslubi vujudga keldi.

Vyaz uslubi vujudga kelgan davrda undagi harflar oddiy yozuvdagiga nisbatan 3-4 baravar katta bo'lgan, XVII asrga kelib esa 10-12 baravar kattalashgan.

Bu uslubdagi yozuvlar qizil va boshqa ranglar bilan bitilgan. Lekin vaqt o'tishi bilan harflarning tobora kattalashuvi uning o'qilishini yanada qiyinlashtirgan.

5. Maxfiy yozuv (kriptografiya)

Qo'lyozmalarni o'rganayotganda ayrim belgi, harflar uchraydiki, ular qanday ma'noni bildirishi ayrim mutaxassislargagina ma'lum. Bu belgi yoki harflar maxfiy yozuvdir. Maxfiy yozuv yoki kriptografiya janubiy slavyanlarga Vizantiyadan o'tgan. Rossiyaga esa bu soha xristianlik bilan barobar kirib kelgan. Vizantiyada hamda slavyanlarda maxfiy yozuv cheklangan darajada qo'llanilgan. Dastlab maxfiy yozuv turli ma'lumotlarni yozib qoldirgan muallifning nomini bildirgan, yani muallif o'z nomini ochiq yozmay, ayrim belgi yoki harflar bilan ko'rsatgan. Maxfiy yozuv bir necha tarmoqlarga bo'linadi.

Begona yozuvlardan foydalanish. Rus qo'lyozmalarida glagolitsadan maxfiy yozuv sifatida foydalanib kelingan. Bu qo'lyozmalar ayrim so'zlar tushirib qoldirib, qisqartirilgan holda bitilganki, glagolitsadan xabarsiz odam bu yozuvlarni o'qiy olmaydi. Dastlabki bunday yozuvlar XI-XII asrlarga oid bo'lib, Sofiya sobori devorlarida uchraydi. XII-XIII asrlardan boshlab qo'lyozmalarda glagolitsa keng qo'llanildi. Siyosiy, diniy, diplomatik va boshqa mazmundagi bu kishqartirilgan yozuvlar maxsus kriptogramma yordamida o'qilgan.

XIV asrda Stefan Permskiy perm allfbosini yaratdi va XV asrdan boshlab u maxfiy yozuvda qo'llanilgan. Perm alifbosi kirillitsa

alifbosining o'zgartirilgan va qisqartirilgan variantidir. Bir xil ko'rinishda yoziladi.

Maxfiy yozuvda grek alifbosidan ham foydalanilgan. XV asrda ruslarga janubiy slavyanlarning ta'siri bilan lotin alfaviti kirib keldi va turli maqsadlarda qo'llanildi. XVI-XVII asrlarda markaziy rus shaharlarida lotin harflari boshqa harflar bilan qo'shilgan holda maxfiy yozuvda ishlatilgan.

XVII-XVIII asrlardan boshlab Rossiyada lotin alifbosidan ham maxfiy yozuvdan fondalanilgan. Lotin harflari ishtirok etgan maxfiy yozuvlar dastlab elchixona va ibodatxona faoliyatida qo'llanilgan, keyinchalik o'quv mashg'ulotlarida sanalar va boshqa yozuvlarni bayon qilishda qo'llanilgan.

Shuningdek, turli xalqlar yaratgan alifbodan foydalangan holda ham o'ziga xos maxfiy yozuv ixtiro etilib, undan keng miqyosda foydalanilgan.

O'zgartirilgan belgilardan foydalanish. Mo'g'ul-tatarlar istilosidan so'ng Rusda maxfiy yozuvning yangi usullari ham paydo bo'ldi. Kirillitsa harflaridan foydalanib yozilgan ma'lumotlarni maxfiylashtirish maqsadida ayrim harflar tushirib qoldirilgan yoki ularning yozilishi o'zgartirilgan. Ammo bu usul ancha murakkabdir, chunki ayrim harflarni tushirib qoldirish yoki o'zgartirishning yagona shakli bo'lmagan, shuning uchun bunday yozuvlarni o'qish ancha qiyin. Bunday maxfiy yozuv XIV-XV asrlarda Rusda keng tarkalgan.

O'zgaruvchan harflardan foydalanish. Maxfiy yozuvning yana bir usuli bo'lib, bunda kirillitsadagi harflardan o'rin almashtirib foydalanilgan. Buni "litoriya", ya'ni yozuvda xato yo'ldan foydalanib fikrni bayon etish deyiladi. Litoriya ikki xil, ya'ni sodda va aqlli ko'rinishga egadir. Sodda litoriyada kirillitsa harflari, hamma unli tovush, qattiq, yumshoq belgilar tushirib qoldirilib, teng ikkiga bo'lingan holda quyidagacha ostin-ustun yozib chiqiladi:

н м л к з ж д г в б

п р с т ф х ц ч ш х

Zarur joylarda bu harflar o'zgartirilmagan holda ishlatiladi. Unli tovushlar yoki belgilar esa o'z o'rnini yuqoridagi yoki quyidagi harfga bo'shatib beradi.

Aqlli litoriya o'ziga xos bo'lib, murakkab ko'rinishga ega. Bunda hamma unli va undosh tovushlar qo'llanilgan. Barcha harflar mutaxassis tanlaganidek ikki qator terib chiqiladi. Birok joylashuv doimiy emas. Bu maxfiy yozuvning bir necha usullari ishlab chiqilgan. Uni echish kaliti Sobolevskiy tomonidan yaratilgan.

Hisobga oid ma'lumotlarni bayon etish. Ba'zi slavyan harflari raqam ahamiyatiga ega bo'lib, o'z mazmuniga qarab bir necha guruhga ajratiladi. Bulardan biri raqam darajasidir. Bunda ayrim so'zlar raqam sifatida ishlatiladi. Lekin b, j, sh, h, yu, ' kabi harflar raqamlar o'rniga qo'yilmagan.

Maxfiy yozuvda belgilardan foydalanish uslubi ham mavjud. Ayrim harflarning ra'om ahamiyati turli belgilar bilan ifodalanadi. Masalan, birliklar – nuqtalar bilan, o'nliklar – chiziqchalar bilan, yuzliklar – doira sifatida ko'rsatilgan.

Maxfiy yozuvda qo'llaniladigan metodlardan yana biri teskari yozuvdir. Bunda hamma ma'lumotlar teskari tomondan ochib borilgan. Ayrim vaqtda so'z yoki harflar orasiga turli belgilar, geometrik chiziqlar ko'yilgan.

6. Arab paleografiyasi

Arab paleografiyasi arab alifbosi (arab, fors, turkiy va hokazo tillar)da yozilgan yodgorliklarni o'rganadi. Amaliy maqsadlar uchun X asrdayoq Ibn Durustiy (956 yilda vafot etgan) tomonidan arab xatidagi yozuvlarning sharhi ishlab chiqilgan bo'lib, xalifa devonxonasida qo'llanilgan yozuv va uning asosiy turlari sanab o'tgan.

Evropada arab yozuvidagi yozuvlar, qo'lyozmalarni o'rganish XVII asrdan boshlanib, o'sha davrdayoq kufiy (tangalar, qur'ondagi burchakli yozuv shakli) va nasx xati (ko'proq aylana shakldagi tez yozilgan xat turi) o'rtasidagi farqlar aniqlangan. XVIII asr boshlarida arabshunos olimlar arab xatining kelib chiqishi, nasx va kufiy xat turlarining davriy ketma-ketligi haqidagi masalalar bilan shug'ullanishgan. Evropalik ko'plab olimlar XVIII va XIX asrning birinchi yarmida o'rta asr arab an'alarini tahlil etib, kufiy xati ertaroq shakllanganligi haqidagi xato fikrni ilgari surishdi (vaholanki, ikkala xat turi ham bir vaqtda mavjud bo'lgan). Ular kufiy Suriya yozuvi (estrangelo)dan kelib chiqqan deb hisoblashgan. Mazkur muammoni hal etish bo'yicha paleografik tahlillar o'tkazilib, XVIII asrda dastlabki paleografik jadvallar paydo bo'ldi. Bunga misol qilib L. Adlarning (Daniya) Suriya yozuvi va kufiy jadvali, E. Furmonning (Frantsiya) kufiy (qur'on qo'lyozmalari asosida) jadvali, XIX asrning birinchi yarmida J.J Marselning mukammallashgan jadvali bo'lib, unda arab yozuvidagi yozuvlar va qo'lyozmalarni tizimli o'rganishga asos solindi.

XIX asrda g'arbiy Evropada arab qo'lyozmalarini to'plashning asoslari paydo bo'lib, XIX asrning oxirida Venada arab yozuvidagi papiruslar to'plangan yirik markaz shakllandi. Epigrafik yodgorliklarni

to'plash va o'rganish boshlanib, arab yozuvidagi yodgorliklar paleografik tahlil qilinib, ilmiy tavsifi tayyorlana boshlandi. Yodgorliklardagi yozuvlarning nashri e'lon qilindi.

XIX asrning birinchi yarmida frantsuz sharqshunosi A. Silvestr de Sasi tomonidan arab yozuvidagi papiruslarning birinchi nashri e'lon qilindi. XIX asrning oxirlarida I. Karabachekning (Avstro-Vengriya), XX asr boshida K.X. Bekkerning (Germaniya) arab yozuvidagi papiruslarga bag'ishlangan ko'plab ishlari chop etilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida maxsus paleografik tadqiqotlar bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi. Italyan paleografi M. Lanchi ko'plab yozuvlarni o'rganish asosida arab yozuvidagi turlarni aniqladi. U. Rayt (Angliya) va V. Alvardt (Germaniya) VII-XVII asrlar arab yozuvi bo'yicha paleografik jadvallarini nashr qildi. Frantsuz tadqiqotchisi O. Uda Shimoliy Afrika xat turi (mag'ribiy)ning tavsifini berdi. Shveysariyalik olimlar M. van Bersham (XIX asr oxiri) va S. Flyuri (XX asrning 20-yillari) arab yozuvi bo'yicha yirik asarlarini e'lon qilishib, epigrafika sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun poydevor qo'yishdi.

XX asr o'rtalarida arab paleografiyasi taraqqiyoti bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Arab yozuvining shakllanishi va ilk taraqqiyoti muammolari (N. Abbot, AqSh).

2. Papirus va qo'lyozmalardagi xat turi (A. Groman, Avstriya; A. Ditrix, GFR; M.A. Marzuk, X. Xavariy, Misr; F. Dey, R. Ettingxauzen, AqSh; G. Viet va E. Komb, Frantsiya; D.S. Rays, Angliya) .

Rossiyada arab qo'lyozmalarini to'plash va yozuvlaridan nusxa olish Pyotr I davridan boshlangan. Arab qo'lyozmarai va boshqa yodgorliklardagi yozuvlarni to'plash 1818 yilda Kunstkamera qoshida Sharq kabineti tashkil etilishiga sabab bo'ldi (keyinroq u Osiyo muzeyiga aylantirildi, hozirda arab qo'lyozmalari saqlanayotgan Osiyo xalqlari institutining Sankt-Peterburg bo'limining qo'lyozmalar fondi). Uni yirik arabshunos, Rossiyadagi arab qo'lyozmalari to'plamini o'rganagan X.D. Fren boshqargan. U arab numizmatikasining ilmiy asoschisi sifatida kufiy xat turining xilma-xilligini tasniflab, atamashunosligini tadbiq etdi. XIX asrning ikkinchi yarmida arab yozuvidagi yodgorliklarini aniqlash, o'rganish va nashr etish bo'yicha ishlar tezlashdi. Bu davr paleografik kuzatuvlar olib borilganligi bilan xususiyatlidir. N.V. Xanikov paleografik tahlil uchun yozuv bitilgan joyni e'tiborga olish haqidagi xulosalarini ilgari surdi. Shu tariqa xalifalikning turli chekkalaridagi arab xat yozuvlarining xususiyatlari aniqlandi.

Sovet olimlaridan O.G. Bolshakov, M.M. Dyakonov, V.A. Krachkovskaya, I.Yu. Krachkovskiy O'rta Osiyo va Kavkaz ortidagi arab yozuvidagi yodgorliklarni o'rganishgan.

O'zbekiston da ham yozma yodgorliklarning aksariyati arab yozuvida bo'lganligi sababli arab paleografiyasi bir qadar rivojlangan. Bu sohadagi tadqiqotlar, asosan, o'zbekistonda FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, tegishli muzeylar, qisman oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilmoqda.

7. O'zbek paleografiyasi tarixidan

O'rta Osiyo xalqlari yozuvi tarixini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Dastlab rus olimlarining O'rta Osiyo ga kelib turli sohalar qatori lingvistika, paleografiya sohasida olib borgan ishlari tufayli turli yozuvlar to'g'risida boy ma'lumot to'plandi va chop etildi.

Sobiq Ittifoq tuzumi davrida boshqa respublikalar qatori O'zbekiston da ham qadimgi yozuv tarixini o'rganish ishlariga e'tibor berilib, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi huzuridagi sharqshunoslik, til va adabiyot, tarix ilmiy tekshirish institutlarida, til, yozuv tarixini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. To'plangan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar o'zbek paleografiyasi to'g'risida quyidagi fikrlarni aytishga asos bo'ladi.

O'rta Osiyo dagi paleolit, mezolit, neolit va eneolit davrida yashagan xalqlar turli voqea-hodisalarni, ov qilish uslubini qoya yuzalariga yoki tekis erlarga chizib tasvirlash orqali tushuntirganlar. O'zbekiston hududidagi Zarovutkamar, Sarmishsoy darasida, Farg'ona vodiysi atrofidagi tog'larda qoya-toshlarda bir necha minglab tasvirlar aniqlangan. Bu suratlar tasviriy san'atning ko'hna durdonasi hisoblanadi.

Zarovutkamar, Sarmishsoydagi qoyatoshlarga tushirilgan ov manzaralari, turli hayvonlar tasviri orqali tosh davri odamlari ov qilish yo'l-yo'riqlarini, qanday hayvonlarni ovlash zarurligini bir-birlariga tushuntirganlar.

Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarga kelib O'rta Osiyo da turli kichik davlatlar tashkil topa boshladi. Sinfy jamiyatning vujudga kelishi xalqlar hayotiga ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Shahar va qishloqlar rivojlandi, hunarmandchilik, madaniyat va san'at rivojlandi. Xorazm, so'g'd yozuvlarining paydo bo'lishi ham shu davrga to'g'ri keldi. Bu yozuvlar eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda Kichik Osiyoda paydo bo'lgan oromiy va eramizdan avvalgi III asrda vujudga kelgan kxaroshxi yozuvlari asosida yaratilgan. Mutaxassislarining fikricha, oromiy yozuvi o'rta va Yaqin Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, iqtisodiy, madaniy

aloqalarda asosiy vosita rolini o'ynagan. Kxaroshxi yozuvi hindistonning shimoli-g'arbida paydo bo'lib, shakli va mazmuni jihatidan oromiyga yaqindir.

So'g'd yozuvining paydo bo'lishi tarixini o'rganish XIX asrning 90-yillaridan boshlandi. qadimda so'g'dlar yashagan terrtoriyada N.I. Veselovskiy, I.F. Sitnyakovskiy, V.A. Jukovskiylar tadqiqot ishlari olib borishdi.

1900 yili V.V. Bartoldning "Mo'g'ullar istilosigacha Turkiston" asari bosilib chiqdi. Bu kabi manbalar So'g'd haqida mukammal ma'lumot bersa-da, so'g'd yozuvi haqida mukammal fikr bermaydi. 1906-1908 yillarda A. Shteyn ekspeditsiyasi Sharqiy Turkiston hududidagi Dunxuanda olib borgan ishlar tufayli so'g'd tilida yozilgan maktublar to'plami topildi, natijada so'g'd yozuvlari eramizning IV asriga oid ekanligi aniqlandi. 1914-1915 yillarda S.F. Oldenburg boshchiligidagi Rus-Turkiston ekspeditsiyasi Dunxuanda so'g'd tilida yozilgan bir necha hujjat topdi. Bu yozma materiallarni grammatik jihatdan o'rganishda R. Goto, F.V. Myuller kabi g'arb olimlari, rus olimi K. Zaleman katta hissa qo'shdilar.

Keyinroq so'g'd tarixi rejali, ilmiy asosda o'rganila boshlandi. 1931 yili Tojikistondagi Mug' tog'idagi qal'ai mug'dan qog'oz, teri va yog'ochga bitilgan so'g'd hujjatlari topildi. Bu topilmalar V.A. Krachkovskiy va I.Yu. Krachkovskayalar tomonidan to'liq o'rganib chiqilgan va matbuotda e'lon qilingan.

O'rta Osiyo xalqlari tomonidan uyg'ur, runik yozuvlari ham yaratilgan. Bu yozuvlar qadimgi turkiy xalqlarning mushtarak yozuvi hisoblangan.

Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki turkiy xalqlar yozuvi yodgorliklari XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida topilgan. Enisey daryosi bo'yida katta toshlarga yozilgan ma'lum yozuvlar aniqlangan. 1889 yili esa Mongoliyaning Urxun daryosi bo'ylarida yuqoridagiga o'xshash yozuvlar bitilgan yodgorliklar topilgan. Bu yozuvlar mutaxassislar tomonidan "Urxun-Enisey bitiklari" deb nomlangan. 1893 yili daniyalik olim V. Tomsen Urxun-Enisey bitiklarini o'qib, mazmunini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Urxun-Enisey bitiklari Evropada topilgan runik yozuvlariga juda o'xshash bo'lganligi uchun ba'zi olimlar uni runik yozuvlari deb ham ataydilar. Urxun-Enisey yozuvlari O'rta Osiyo ning barcha davlatlari hududidan topilgan va hamon topilmoqda. Bu yozuvlar arablar istilosigacha bo'lgan turkiy qabilalarning hayoti, davlat tuzumi haqida ma'lumot beradi. O'rta Osiyo , jumladan, O'zbekiston hududida ilk feodal davrida uyg'ur yozuvi ham keng tarqalgan. Bu yozuv sharqiy

turkiy xalqlarning yozuvi sifatida vujudga keldi. Bu yozuv Sharqiy Turkiston hududida topilgan. Yusuf Xos hojibning 1069 yilda bitilgan “qutadg’u bilig” (yoki “Baxt keltiruvchi bilim”) asari uyg’ur tilida yozilgan.

Bizgacha bu yozuvning bir necha varianti etib kelgan. Masalan, XV asrda hirotda bitilgan asar Vena shahrida, arab alifbosida bitilgan 2 ta qo’lyozma qohira va Toshkentda saqlanmoqda. Uyg’ur yozuvi so’g’d yozuvi asosida paydo bo’lgan va rivojlanganligi ma’lum. O’zbekiston hududidagi qadimgi xalqlar so’g’d, uyg’ur, xorazm yozuvlaridan tashqari manixey yozuvidan ham xabardor bo’lgan. Manixey yozuvi Eron hududidagi xalqlar tomonidan yaratilgan bo’lib, eramizning IV asrlarida Sharqiy Turkistondan Misrgacha bo’lgan hududga tarqalgan. Sharqiy Turkistonda o’rta eron va sharqiy turk tillariga mansub bo’lgan yozuvlar bilan manixey yozuvi ham topilgan.

Taniqli nemis olimi M. Lidzbarskiy bu yozuv oromiy yozuvi asosida kelib chiqqan va dekorativ polmir yozuviga qarindoshdir, degan fikrdadir.

Markazlashgan arab davlati vujudga kelgach va katta hudud arablar tomonidan istilo etilgach, bu joylarda arablarning iqtisodiy-siyosiy hayoti qoidalari bilan birga arab yozuvi ham mahalliy xalqlar hayotiga kirib keldi.

Arab alifbosida 28 harf bo’lib, shundan faqat 16 tasi mustaqil ifoda etiladi. Juda ko’p harflar ustki va ostki diakritik belgilar bilan bir-biridan farq qiladi. Arab yozuvida faqat uchta unli harf bo’lganligi tufayli 10 ga yaqin unli harflarga ega bo’lgan turk tilini bu alifboda ifoda etish qiyin bo’lgan.

Abu Rayhon Beruniy o’z davrida arab yozuvining nuqsonlarini aniq ko’rsatgan va arabcha bo’lmagan so’zlarni bu yozuv vositasida to’g’ri ifodalash imkoni yo’qligini ta’kidlagan edi.

Zahriddin Muhammad Bobur ham arab alifbosidagi nuqsonlarni payqagan va uni isloh qilishni zarur deb hisoblagan. Shu maqsadda u ba’zi ishlarni amalga oshirgan. Ya’ni 1503-1504 yillarda yangi alifbo yaratgan, uni “Xati Boburiy” deb atashgan. Bu alifboda arab yozuvidagi ostki va ustki belgilar o’rniga yangi harflar qo’yilgan.

Sovet tuzumi davrida Turkistonda arab grafikasi asosidagi yozuvni o’zgartirish ishlariga qadam qo’yildi. Shu maqsadda 1921 yil yanvarida Toshkentda birinchi til-imlo qurultoyi bo’ldi. Qurultoyda arab alifbosini mahalliy xalqqa qulay qilib o’zgartirish to’g’risida matbuotda bir qator maqolalar chop etildi.

1922 yil aprelida o’zbek maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi o’lka qurultoyi bo’lib o’tdi. Qurultoyda arab yozuvini

soddalashtirish, uni o'zbek tili talaffuziga moslash kabi masalalar ko'rildi. Qurultoy ko'pchilik ovoz bilan arab alifbosiga tegishli harf va belgilarni qo'shish va uni soddalashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Ayni mahalda O'zbekiston da lotin grafikasini joriy etish harakati kuchayadi.

1926 yil martida Boku shahri (Ozarbayjon) da turkiy xalqlar yozuvini lotinlashtirish masalasi bo'yicha turkologlarning Birinchi Butunittifoq s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezdda arab grafikasida yozadigan xalqlarni lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Shunga muvofiq O'zbekiston SSRda Yangi Alfavit Komiteti (YAAK) tuzilib, unga lotinlashtirilgan alfavitga o'tkazish ishi yuklatildi. Yo'ldosh Oxunboboev komitetga rais qilib tayinlandi.

O'zbekiston da lotinlashtirish ishini _malgam oshirish, arab grafikasi asosidagi yozuvga xotima berish maqsadida 1929 yil 15 may kuni Samarqand shahrida Til-imlo konferentsiyasi chaqirildi. Ushbu anjumanda qisqa vaqt ichida lotin alfavitiga o'tish va uni rivojlantirishga doir chora va tadbirlar ishlab chiqildi. Shu yildan boshlab O'zbekiston hududida lotin alifbosi asosidagi yozuvga o'tish tezlashdi.

Ko'p o'tmay bu yozuv yozuv tizimini ham o'zgartirish uchun harakatlar boshlandi. Sobiq Ittifoqning lotin grafikasida yozadigan xalqlarini rus grafikasi asosidagi yozuvga o'tkazish ishlari avj oldirilib, 1937 yildan boshlab shu yozuvga o'ta boshladilar. Shu tariqa O'rta Osiyo respublikalarida ham rus alifbosiga o'tishga tayyorgarlik boshlandi.

1939 yilning boshida O'zbekiston da rus grafikasi asosida o'zbek alifbosining loyihasi tuzildi. Loyiha jamoatchilik muhokamasiga havola etilib, omma va ziyolilar bu loyihani noiloj ma'qulladilar.

1940 yil 8 mayda O'zbekiston SSR Oliy Soveti respublikada rus grafikasi asosida o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida qonun qabul qildi. Bu qonunda rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvini ommalashtirish choralari, muddati to'g'risida so'z yuritilgan. Shu yildan to O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrda rus grafikasi asosidagi o'zbek alifbosining qo'llanishi rus tili mavqeining oshib borishi, hatto "ikkinchi ona tili" darajasiga ko'tarilishiga, o'zbek tili mavqeining esa pasayishiga, qo'llanish doirasining torayishiga olib keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng respublikada o'zbek yozuvini rus grafikasidan yana lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tkazish haqida fikr-mulohazalar o'rta tashlanadi. Bu masala bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, 1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuni e'lon qilindi. Ayni shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy

Kengashining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish tug‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini _malgam kiritish tartibi haqida”gi qarori ham qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 2-3 sentyabrdagi 12-chaqiriq 13-sessiyasida yangi alifbo masalasi muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu alifboni va shu asosda tayyorlangan “o‘zbek tiliping asosiy imlo qoidalari”ii muhokama qilish jarayonida bir qator taklif va tavsiyalar qilin-di, tanqidiy fikrlar bildirildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 6 may kuni “Lotin yozu-viga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Oliy Kengash qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qonun qabul qildi. Bu hujjatda yangi o‘zbek alifbosi 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasidan iborat ekanligi ayrim harflarning shakliga isloh kiritilgani ko‘rsatilgan; yangi alifbo asosida ishlash 1996 yildan boshlanishi qayd etilgan. Yangi alifbo asosida ishlab chiqilgan “o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

2004-2005 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazir-lar Mahkamasi tomonidan “Lotin yozu-viga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunni _malgam oshirish ishlarini yanada jadallashtirish va takomillashtirish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilindi.

Savol va topshiriqlar:

1. Paleografiya fani tarixi bo‘yicha nimalarni bilasiz?
2. Ideografiya va piktografiyaning farqi nimadan iborat?
3. Maxfiy yozuv (kriptografiya)da qaysi usullardan foydalaniladi?
4. hozirgi O‘zbekiston hududida qanday yozuv turlari bo‘lgan?
5. Arab paleografiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma’ruza tayyorlang.
6. Internet veb-sahifalaridan turli davrlarda qo‘llanilgan yozuv materiallariga doir ma’lumotlar to‘plang.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o‘rta asrlar).-T.: o‘qituvchi. 2001.

1. 2. Добиаш-Рождественская О.А. История письма в средних века.-М.-Л., 1936.

2. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин.-Т.: Фан. 1984.

3. Крачковская В.А. Эволюция куфического письма в Средней Азии / Эпиграфика Востока. Вып. 3.-М.-Л., 1949.

4. Крачковская В.А. Памятники арабского письма в Средней Азии и Закавказье до IX в. / Эпиграфика Востока. Вып. 4.-М.-Л., 1952.
5. Крачковский И.Ю. Древнейший документ из Средней Азии. Избр. соч. Т. 1.-М.-Л., 1955.
6. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда.-М.: Наука. 1970.
7. Собрание восточных рукописей Института востоковедения АН Узбекистана. Тт. I -XI.-Т.: Фан. 1952 - 1987.
8. Тихомиров М.Н., Муравьев А.В. Русская палеография.-М., 1966.
10. Шепкин В.Н. Русская палеография.-М., 1967.

II BOB. ARXEOGRAFIYA VA EPIGRAFIKA

1. Arxeografiyaning maqsad va vazifalari. Fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi

Tarixning dolzarb masalalarini yoritishda, ilmiy tadqiq qilishda arxiv hujjatlari katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida arxiv hujjatlarini nashr qilish ishini tashkil etishni o'rgatish zarurdir. Ana shundan kelib chiqib, "Arxeografiya" fanining ahamiyatini belgilash mumkin.

Arxeografiya (yunoncha arheos-qadimgi va grafo-yozaman, ta'riflayman) maxsus, yordamchi tarix sohasi bo'lib, u quyidagilarni o'rganadi:

- yozma manbalarning umumiy nashrini;
- nashr uchun manbalarni tanlashning printsipli va uslubini, shuningdek, ularni nashrga tayyorlashni;
- nashr bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ishini;
- arxiv va tarixiy manba (hujjat)larning nashr tarixi va tarixiy manbalarning, matnlarning mazmuni;
- tarixiy manbalarni nashr etishni.

Arxeografiya yozma manbalarni nashr etishning nazariy va amaliy sohalarini o'rganuvchi fandır, u tarixiy yodgorliklarni yig'ib nashr etishning uslublarini, manbalarni ilmiy tanqidiy nashr etishning qoidalarini ishlab chiqadi.

Arxeografiyaning vazifasi qo'lyozma manbalarni qayti ishlash usullari va nashrga tayyorlashdan iboratdir.

Arxeografiya fan sifatida XII-XVIII asrlarda vujudga kelgan. Dastlabki hujjatlarning tanqidiy nashri XVI-XVIII asrlarda chop etilgan.

Dastlabki arxeograflarni tayyorlovchi institut 1821 yilda Frantsiyada asos solingan Parij Xartiya maktabi hisoblanadi.

Hujjatlarni nashr etishda katta o'rinni tashqi siyosat va tarixga oid hujjatlar tashkil etgan. hozirda nashriyot texnologiyalari va uslublari nihoyatda xilma-xil, buning ustiga uni nashr etishdagi uslublar ham nihoyatda ko'p.

Ba'zan maxsus hujjatlar to'liq nashr etilsa, ba'zan uning ma'lum sohaga tegishli qismlari nashr etiladi.

XIX-XX asrlarda nashrga hujjatlarni mavzusiga qarab tanlash va nashrga tayyorlashning printsiplari ishlab chiqila boshlagan. Shu davrda arxeografiya nafaqat Evropada, balki Shimoliy Amerika va Xitoyda ham rivojlangan. Jumladan, shu davrda arab va fors manbalarini nashr etish ommaviy (Germaniya va Frantsiyada) tus oldi. Ko'plab hujjatlar Buloq (qoxira yaqini)da, Arab qo'lyozmalar instituti (Misr, qohira)da, hindiston,

Eron, Yaponiya, Damashq (Suriya)da ko'plab arab va fors manbalari nashr etildi.

Rossiyada hujjatlarni nashr etishda rus tarix jamiyati katta o'rin tutgan. XX asrda esa sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi bu ishni davom ettirgan. XX asr oxiri XXI asr boshida Rossiyada eng ko'zga ko'ringan arxeograflari S.O. Shmidt va A.D. Stepanskiylardir.

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekiston da ko'plab hujjatlar nashr etila boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmidan esa ko'plab tarixiy hujjatlar nashr etila boshlandi. Bunda M. Vays, B. Bervin, P. Raximov, A. Alimov, S. Dmitrieva, P. Kim kabi olimlarning xizmatlari katta. Bu davrda O'zbekiston da Amir Temur davriga oid hujjatlar juda ko'p nashr etilgan. Biroq bunda hujjatlar to'liq va haqqoniy ma'lumotlarni jamlagan emas edi.

Arxeografiya tor ilmiy fan sifatida, tarixiy fanlar talabiga ko'ra rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. XVIII asrga kelib tarixchilar manbalardan ilmiy tadqiqotlarida foydalana boshladilar va manbalarni nashr etish zarur degan xulosaga keldilar. V.N. Tatischev (1686-1750 yillar) "Rossiyaning eng qadimgi tarixi" asarida bir qator solnomalardan foydalandi. V.N. Tatischev tadqiq qilgan hujjatlarni ob'ektiv ravishda tanqidiy nashrlarning amalga oshirdi. V.N.Tatischevning bu uslubi bir qator arxeograflarda namuna bo'ldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan solnomalarni nashr etish boshlandi. Arxeografiyani rivojlanishi uchun Tashqi ishlar vazirligi Moskva bosh arxivi qoshida "Davlat mukofotlari va bitimlar haqidagi" komissiya (1811) va Moskva universiteti huzuridagi "Rossiya tarixiy va qadimshunoslik" Jamiyati (1804), Xalq ta'limi vazirligiga qarashli "Arxeografiya komissiyasi" (1834), "Rus tarixchilar jamiyati" (1866 yilda asos solingan) lari katta rol o'ynadi.

1922 yilda A.S. Lappo-Danilevskiy muharriligida "iqtisod kollegiyasi yorliqlar" to'plamining birinchi tomi chop etildi Unda hujjatlarni nashr qilish qoidalari beriladi. Bu qoidalar 1901 yilda ishlab chiqilgan edi. 1930 yilning boshlarida A.A. Sergeev A.S. Lappo-Danilevskiyning qoidalarni tanqid qiladi. A.A. Sergeev bu "hujjatlarni sinfiylik jihatidan tadqiq qilish sharti" yo'qligida ayblaydi. XX asrda arxeograflar 1919 yilga qadar bo'lgan ko'pgina manbalarni ilmiy muomalaga kiritadilar, bular yordamchi tarix fanlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Arxeografiya rivojlanishiga XIX asr oxiri-XX asr boshlarida P.M. Stroevev, Ya.I. Berednikov, N.V. Kalachovlar katta hissa qo'shdilar. Ammo bu davrda Rossiya arxeograflari faqatgina mehnatkashlarning sinfiy

kurashlari, Rossiya iqtisodiy rivojlanishi, inqilobiy harakatlari haqidagi manbalarni nashr qildilar.

Sovet arxeografiyasi sinfiy mafkuraga tayanib asosiy e'tiborni mehnatkashlar tarixi haqidagi manbalar, mamlakat iqtisodiy rivoji, sinfiy kurash, partiya tarixi hujjatlariga, sotsialistik qurilish haqidagi materiallarni nashr etishga qaratilgan edi. Bu nashr ishlari bilan partiya, Fanlar Akademiyasit institutlari va Bosh arxiv boshqarmasi shug'ullangan. Bu hujjatlar asosan tarixiy jurnallarda nashr qilingan. Arxeograf mutaxassislarni tayyorlash Moskvada joylashgan tarix-arxiv instituti tomonidan amalga oshirilgan. 1955 yilda "Tarixiy hujjatlarni nashr qilish qoidalari", 1960 yilda esa "Sovet davri hujjatlarini nashr qilish qoidalari" qabul qilingan. Bu davrda ko'p tomli "Imperializm davridagi xalqaro munosabatlar", "Rossiyada krepostnoy manufaktura", "Dekabristlar qo'zg'oloni", "XIX asrda ishchilar harakati", "Rossiyada 1905-1907 yillardagi revolyutsiya" kabi hujjatlar to'plamlari nashr qilingan. Tarixiy "Rus haqiqati", "Rus solnomalari" to'liq to'plami (25-30 tomlar)", "Imperator Ulug' Petr xatlari va qog'ozlari" (7-11 tomlar) va boshqalar.

Sovet arxeografiyasi rivojida I. Andreev, S.N. Valk, B.D. Grekov, D.S. Lixachev, M.N. Tixomirov, N.V. Maksakovlar katta hissa qo'shgan.

G'arbiy Evropada XV-XVI asrlarda gumanistlar yozilgan manbalarni solishtirish va tekshirish sistematik tarzda yig'ish va nashr qilish bilan shug'ullanganlar. XV asr o'rtalarida kitob nashr qilish yo'lga qo'yilgan. XVII asrda mavristlar (J. Mabilon) diplomatika va paleografiyaga asos soldilar, qo'lyozmalarni yozilgan vaqtini aniqlash tanqidiy tekshirishning asosiy printsiplarini bayon qildilar. Frantsiya tarixi, o'rta asr cherkovlari tarixiga oid manbalarni keng ko'lamda chop ettirdilar. Bunda ilmiy manbalarni nashr qilishning keng ko'lamda bajarilishida Germaniyadagi 1819 yildan o'z faoliyatini boshlagan ilk nemis tarixini o'rganish uchun tuzilgan jamiyat faoliyati bo'ldi, bu Monumenta Germanial hictorica seriyasidan boshladi. Bunday seriyali nashrlarni chop etishni boshqa Evropa davlatlarida ham ko'rish mumkin. "Frantsiya tarixiga oid nashr qilinmagan hujjatlarr" (1835), "Italiya tarixi manbalari" (1887) Italiyada "o'rta asr ingliz yozuvchilari" (1858-1896) to'plamlari shular jumlasidandir.

AQShda XIX asrning 30-yillaridan tarixiy manbalarning nashri keng miqyosda boshlandi. Bu nashr ishlari shtatlar tarixiy jamiyatlari, ayrim tarixchilar, hamda federal hokimiyat tomonidan amalga oshirildi. "Amerika davlat hujjatlari" shular jumlasidandir. Dastlabki vaqtlarda

nashrlarning sifati va tashkil etilishi g'arbiy Evropa nashrlaridan pastroq edi.

Osiyo mamlakatlarida nashrlarning ilmiy printsiplari XX asrning 20-40-yillardan qo'llanila boshlandi. Bu jarayon Yaponiyada ilgariroq XIX asr oxirlaridan boshlandi. Shu davrga qadar sharq yozma yodgorliklarini nashr qilishni asosan g'arbiy Evropa olimlari olib borardilar. Bunda muhim markazlar Leyden, Parij, Oksford, Kembridj, Leyptsig universitetlari bo'lgan. Nashr ishlari Frantsiya, Belgiya, Avstriya, Niderlandiya, AqSh, Polsha, Germaniyada yuqori saviyada olib borilgan.

Sharqda esa manbalarni nashr qilishni universitetlar, arxivlar bajargan. O'zbekiston da XX asrning o'rtalarida matbuotda fan, maorif, tilshunoslik, adabiyot, san'at, matbuot, bibliografiya, to'g'risidagi kitoblar, maqolalar berib borilgan. Shu bilan birga "O'zbekiston da ijtimoiy fanlar" jurnali O'zbekiston tarixi bo'yicha chiqqan adabiyotlarning yillik ro'yxatini e'lon qilib borgan. B.V. Luninning tadqiqotini bunga misol keltirishimiz mumkin. Bunday bibliografik ko'rsatkichlar Fanlar akademiyasining jurnalida doimiy ravishda chop etilgan. Shunday qilib tadqiqotchilar matbuotda O'zbekiston tarixi haqida barcha adabiyotlarning to'la ro'yxatiga ega bo'lganlar. Umuman olganda, yuqorida tilga olib o'tilgan bibliografiyalar tadqiqotchiga tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini tuzib olib, ularni ma'lum bir izchillikda o'rganib chiqishda yordam beradi. Arxiv hujjatlarining ilmiy asarni yozishda ahamiyati benihoya katta hisoblanadi. O'zbekiston tarixiga doir ko'plab tarixiy voqea va ijtimoiy hodisalarning faqat arxiv hujjatlari orqali xolisona o'rganish mumkin.

1999 yil 15 aprelida "Arxivlar to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabrdagi "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" va 2004 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari e'lon qilindi. Bir necha ming yillik davrni o'z ichiga olgan boy arxeografik materiallarga ega vatanimizda bu boradagi tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Natijada, hujjatlarni tanlash va to'liq nashr etish yo'lga qo'yildi. Bu ishlar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti olimlari va arxiv xodimlar tomonidan amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasida hozirda "o'zarxiv agentligi" tashkil etilgan bo'lib, uning markazi va Toshkent shahrida bo'lib, uning viloyat markazlari va qoraqolpog'iston Respublikasida bo'limlari bor.

1998-2000 yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qo'lyozmalarning "Istoriya" ("Tarix"), «Estestvenno'e

nauki» (“Tabiiy fanlar”), “Meditsina” (“Tabobat”), “Kratkiy katalog sufiyskix proizvedeniy XVIII-XX vv.” (“XVIII-XX asrlar tasavvufiga oid asarlarning qisqa katalogi”) nomli mavzu kataloglari, Abu Ali ibn Sino, Abdu-rahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Amir Xusrav Dehlaviy asarlari qo’lyozmalarining kataloglari, “Katalog Xivinskiy kaziyskix dokumen-tov XIX-nach XX vv.” (“XIX-XX asr boshlariga mansub Xiva qozilik hujjatlari katalogi», 2001 y.), 3 jildli “Sharq miniatyuralari”) katalogi (2003-2004 y.) nashr etildi. 1950-51 (1-nashr), 1979-82 (2-nashr) yillarda Abu Ali ibn Sinoning “al-Konun fit-tibb” (“Tib qonunlari”) asari (5 jild, 6 kitobdan iborat, o’zbek va rus tillarida), 1957-75 yillarda Abu Rayhon Beruniyning tanlangan asarlari silsilasi (o’zbek tilida 4 jildli, rus tilida 7 jildda) chop etildi. Al-Xorazmiy va al-Farg’oniyning matematika va astronomiyaga oid asarlari tarjimalari, Ulug’bekning “Ziji Ko’ragoniy” kitobining ruscha tarjimasini (1996), islom tarixi va tasavvufga oid Imom al-Buxoriy, al-Marg’inoniy, al-Moturidiy, naqshbandiya va yassaviya tariqati vakillarining asarlari, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyati fani tarixini yorituvchi qator tadqiqot va tarjimalar; tarix, adabiyot, geografiyaga oid bir qancha qo’lyozmalarining tanqidiy matnlari va tarjimalari, Xorijiy Sharq mamlakatlarining tarixi, adabiyoti, madaniyati tarixi, O’zbekiston ning bu mamlakatlar bilan bo’lgan diplomatik va madaniy aloqalari bo’yicha monografiyalar, ilmiy maqolalar to’plamlari, ilmiy-ommabop risolalar bosib chiqariladi. Institutda 7 ta bo’lim, qo’lyozmalarni ta’mirlovchi ustaxonasi va fotolaboratoriya bo’lib, 63 ta ilmiy xodim ishlaydi. 1991 yildan institut “Sharqshunoslik” nomli ilmiy almanax nashr etadi. 1991 yildan institut Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Turkiya, AqSh, Eron, qувayt, Misr, BAA, hindiston, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarning ilmiy markazlari bilan hamkorlik qiladi. 1981 yilda institut Abu Ali Ibn Sino nomidagi xalqaro mukofotga sazovor bo’lgan. 2000 yilda institutning qo’lyozmalar fondi dunyodagi eng boy qo’lyozmalar majmuasi sifatida YuNESKO ro’yxatiga kiritilgan.

Institut olimlari 1992 yilda Yaponiyaning Kioto universitetining professori Toru Xorikava boshchiligidagi delegatsiyaning O’zbekiston ga qilgan safarlarining birida xivalik Aliya Aliakbarovadan 1713 ta asl nusxa Xiva qozilik hujjatlarini sotib olishdi va institutga taqdim etildi. Bu o’z navbatida xazinadagi asl hujjatlar jamg’armasini yanada boyiishiga olib keldi.

1378 yilda Amir Temur tomonidan berilgan imtiyozlar haqidagi “Inoyatnoma – “Yorlig’i”ni o’rgangan olimlar B. Mannonov va G. Ostonovalarning fikricha, “Yorliq” N.P. Ostroumov qo’liga etib kelguniga

qadar o'ta muhim va muqaddas hujjat sifatida Xiva xonlarining xos arxivida saqlanib kelingan.

Institutdagi qo'lyozmalar jamg'armasida 130 ga yaqin ko'chirilgan hujjatlar nusxasi to'plamlari saqlanmoqda. Bu to'plamdagi yorliqlar, xatlar, vasiqalar, yozishmalar, chet davlatlar bilan o'zaro maktublar va hokazolarni tashkil etib XVI-XX asr boshlari oralig'idagi davrni o'z ichiga oladi. Ularda turli davr va sulolalar munshilari tomonidan asl nusxalardan ko'chirib yozilgan turli masalalarga doir hujjatlar jamlangan.

Hujjatlar tadqiqoti borasida nashr ettirilgan so'ngi ishlardan yana biri o'zR Sharqshunoslik instituti xodimlari o'zlarining germaniyalik hamkasblari bilan birga nashr ettirgan katalogdir. Unda institut fondida saqlanayotgan har xil yorliqlar tavsifi va surati chop ettirilgan.

2. Epigrafika

Epigrafika (yunoncha - bitik) — maxsus, yordamchi tarixiy fan bo'lib, qattiq jismlar (tosh, metall, sopol va boshqalardagi) asosan, qadimgi va o'rta asrlarga oid yozuvlar (bitiklar)ni to'plash, nashr etish va sharhlash bilan shug'ullanadi.

Epigrafika g'arbiy Evropada, Uyg'onish davrida shakllangan. XIX-XX asrlarda esa fan sifatida ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Bu davrda Misr mixxat (ieroglif)lari va klinopisli, Mikena yozuvlarining o'qilishi natijasida epigrafika sohasi ancha kengaydi. Epigrafik matnlar siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarix bo'yicha muhim ma'lumot beruvchi noyob manbalar sirasiga kirishi bilan alohida ajralib turadi.

Misrning qadimgi mixxat yozuvlari eramizdan avvalgi IV-III ming yillikka, ba'zi ideogrammlar esa undan ham erta davrga oid. Ular asosan ehromlar va boshqa inshootlar, devorlarga o'yib yozilgan matnlardan iborat.

Mesopotamiya, Suriya va Kichik Osiyoning klinopis yozuvlari eramizadan avvalgi IV ming yillikka oxirlariga to'g'ri kelib, tillari bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi (shumer, akkad, xett, xurrit, elam, urartu). Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda qadimgi Eron klinopis yozuvlari esa qoya, saroy devorlariga o'yib yozilgan (Ahamoniylar hukmdorlari Doro I, Ksereks yozuvlari). qadimgi Sharq epigrafikasi tarix fani uchun muhim ahamiyatga ega (masalan, Xammurapi qonunlari). hindiston xalqlari tarixi uchun Xarappa tsivilizatsiyasi (eramizdan avvalgi III ming yillik)ga oid ideogrammlar podsho Ashoki davrining siyosiy, xo'jalik, diniy matnlarini o'zida jamlagan. qadimgi Xitoy yozuvlari esa suyak, bambuk, bronza idishlarga o'yib yozilgan va eramizadn avvalgi XIV asrga oid.

Eramizdan avvalgi II ming yillik oxirlaridan Finikiya diniy epigrafik yodgorliklari shakllangan bo'lib, ulardagi tarixiy mazmun Injil, Sidon va Ispaniyadagi finikiyaliklarning koloniyalarida ham uchraydi.

Karfagan epigrafik matnalari esa punn yozuvlari deb ataladi. Finikiya epigrafikasi oromiy va qadimgi yahudiy mantlarining (eramizdan avvalgi IX asr) shakllanishiga turtki bergan.

Qadimgi yunon yozuvlari eramizdan avvalgi XI asrda Kiprdan kirib kelgan. Ancha keyinroq (eramizdan avvalgi VII asrlardan) Yunoniston, Italiya janubi va o'rta er dengizi orollaridagi yozuvlar xilma-xil va mazmunan qonunlar (Gortin qonunlari), farmoyish, xalqaro shartnomalar, amaldorlar ro'yxati va hokazo tarixiy voqaelarni o'zida jamlagani bilan ahamiyatlidir. Lotin yozuvidagi epigrafik yodgorliklar (eramizdan avvalgi VII asrdan) Rim imperiyasining barcha hududlari va unga qo'shni hududlar (Shimoliy qora dengiz bo'ylari, Kavkaz, Old Osiyo)dan topilgan. Ular orasida er, xo'jalik masalariga oid qonunlar, imperator Yuliy Tsezarning munitsipial qonuni, "Avgustning vasiyatnomasi", farmoyishlar mavjud.

Antik sopol idishlarga yozilgan yozuvlar epigrafik yodgorliklarning nodir namunasi sifatida xo'jalik va savdo bo'yicha muhim manba sanaladi.

O'rta asr va keyingi davrlarga doir epigrafik matnlar yunon va lotin tillarida bo'lib, mazkur yodgorliklar Bolqon mamlakatlari, g'arbiy Evropa hududlaridan topilgan hamda xristian epigrafiksi namunalari deb yuritiladi. Ularning aksariyati qabr tosh va cherkov binolariga o'yib yozilgan yozuvlardir.

Qadimgi german qabilalari esa runik yozuvlarni qoldirishgan.

Shimoliy arab xatiga asoslangan yozuvlar (VI asr) turli xalqlarga mansub va ular Atlantika sohillaridan Tinch okeaniga qadar tarqalgan.

Kavkaz xalqlari tarixi uchun arman va gruzin yozulari muhim sanalib, ularda siyosiy va madaniy tarixga doir ma'lumotlar mavjud.

Slavyan xalqlarining dastlabki yozuvlari (X asr) kirillitsada bo'lib, Mkedoniya Serbiya, Xorvatiya va Chexiyadan kirib kelgan.

Adabiyotda epigrafik yodgorliklar deb qadimgi bitiklar aytiladi. qadimgi turkiy tillarga oid yozma yodgorliklar ham noyob epigrafik yodgorlik sanaladi (V-VIII asrlar).

3. Jahonning yirik epigrafik yodgorligi

Behistun (yoki Bisutun) yozuvi Ekbatanning janubi-g'arbida, Kermonshoh va hamadon o'rtasida, qadimgi Midiya hududida qoya toshlariga o'yib yozilgan yozuv bo'lib, uning yaqinidan Erondan

Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i)ga, hozirda esa Tehrondan Bag'dodga o'tuvchi yo'l bo'lgan.

Matn 1-4 javal, uch til (qadimgi fors, elam va babil)dan iborat bo'lib, eramizdan avvalgi 521-520 yillarga oid. 5-jadval esa faqatgina qadimgi fors tilida bo'lib, keyinroq to'ldirilgan. Behistun yozuviga dastlab Axuramazdaning eslatmalari va ushbu xudoning eng qadimgi tasviri taalluqli.

Ularning ichida eng muhimi ahamoniy podsholarining yozuvlari sanaladi. Yozuvlarda toponimik ma'lumotlar ham uchraydi.

Arbela - Mesopotamiya shimoli, hozirgi Erbil shahri.

Asagarta - yunoncha Sagartiya, Midiya erlari va sobiq Ossuriya mulklarini qamrab olgan, Tigr daryosidan sharqda joylashgan viloyat;

Varkina - yunoncha Girkaniya, Kspiy dengizidan janubi-sharqda joylashgan viloyat (Avestoda Vexrkana deb berilgan);

Gaydara – qadimgi hindcha Gandxara;

Zranka - yunoncha Drangiana;

Maka - yunoncha Gedrosiya, Arab dengizi shimolidagi viloyat;

Margu - yunoncha Margiana (Avestoda Mouru, o'rta fors tilida Merv), hozirgi Turkmanistonning Mari vohasi;

Nisaya - Rat shahridagi viloyat, Ekbatan shimoli-sharqida;

Pishiyauvoda – Persiya (Eron)ning janubi-g'arbidagi joy;

Saka - ko'chmanchi sak-massaget erlari;

Satagu - yunoncha Sattagidiya;

Sporida - Lidiya (undan yunoncha Sardlar), Kir II tomonidan zabt etilgan Kichik Osiyodagi davlat;

Xarayva - yunoncha Areya;

Xaraxvati - yunoncha Araxosiya, hozirgi qandahor;

Yauna - yunoncha Ioniya.

4. Urxun va Enisey yozuvlari

Urxun va Enisey yozuvlari qadimgi turk runik yozuvi — tosh, metall, yog'och va boshqalarga o'yib bitilgan qadimgi turkiy yozuvlar. V-VIII asrlarda (ba'zi manbalarda VIII-X asrlar)larga mansub. Urxun va Enisey daryolari havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Tashqi ko'rinishidan got (qadimgi german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun runik yozuv deb ham atalgan.

Urxun va Enisey yozuvlari haqida dastlab XVIII asrning boshlarida rus olimi S. Remezov, keyinroq shved olimi F. Stralenberg hamda nemis olimi D.G. Messerschmidtlar xabar bergan. Bu yozuvlarning turkiy xalqlarga mansubligini birinchi marta fran-tsuz olimi J.P. Abel-Remyuza

(1820), so'ngra rus olimi N.M. Yadrintsev (1889) isbotlagan. 1890 yilda N.M. Yadrintsev va 1891 yil V.V. Radlov rahbarligida Urxun daryosi bo'yiga uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasi sifatida 1892 yil 2 ta atlas e'lon qilindi. Bu atlaslarda bosilgan Urxun va Enisey yozuvlari matnlarini birinchi bo'lib daniyalik tilshunos V. Tomsen o'qishga muvaffaq bo'ldi (1893 yil, noyabr). V. Tomsendan so'ng V.V. Radlov turk shahzodasi Kultegin (VIII asr) xotirasiga bitilgan ulkan toshdagi matnning transliteratsiya va transkripsiyasini tuzib, nemis tiliga tarjima qildi. Bu material qadimgi turkiy til qurilishi, fonetikasi, morfologiyasi va lksikasi yuzasidai dastlabki tasavvurni shakllantirdi.

Urxun va Enisey yozuvining kelib chiqishi haqida mutaxassislar o'rtasida tan olingan yagona fikr yo'q. Bu haqdagi nisbatan keng tarqalgan mulohazaga qaraganda, mazkur yozuv o'z kelib chiqishiga ko'ra sug'd va pahlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqaladi. Urxun va Enisey yozuvlarining paydo bo'lish joyi va vaqti ham hozircha uzil-kssil hal qilingan masala emas. Bu yozuv paydo bo'lish o'rni va vaqti bilan bog'liq bo'lgan ayrim grafik xususiyatlari tufayli urxun, talas, enisey variantlariga ega. Bulariing eng qadimiysi urxun variantidir. Bu yozuv-lar turkiy tillarga uyg'un, moe, ancha mukammal, arab yozuvidan ko'ra yozilishi va o'qilishi birmuncha qulay bo'lgan. O'rta Osiyo , qozog'iston va turkiy xalqlar yashagan boshqa ko'p joylar arablar tomonidan bosib olingach, bu mamlakatlarda arab yozuvi keng tarqaladi.

Mazkur yozuv, arab yozuvi singari, o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qil-gai. Urxun va Enisey yozuvi 38 belgi (harf)dan iborat bo'lib, fonetik yozuv tizimiga kiradi. har bir tovush yoki tovushlar birikmasi maxsus harflar bilan ifodalanib, bir-biriga ulanmay, yakka-yakka yozilgan. Ko'p hollarda (asosan, so'z boshida va o'rtasida) unli harflar yozilmagan. Urxun va Enisey yozuvida tinish belgilari ishlatilmagan. So'zlar, ba'zan morfema yoki so'z birikmalarini bir-biridan ajratish uchun ular o'rtasiga ikki nuqta (:) qo'yilgan, shartli ravishda u "ayirg'ich" deb nomlangan. Urxun va Enisey yozuvlarining Lena-Baykalbo'yi, Enisey, Mo'g'ul, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo , Shar-qiy Evropa kabi guruhchari aniqlangan.

Urxun va Enisey yozuvlarini tekshirish va urgaiishda V. Tomsen, V.V. Radlov, P.M. Melioranskiy, A.A. Polovtsev, G. Geykel, SE. Malov, L.N. Gumilyov kabi rus va evropalik olimlarning xizmatlari katta. o'zbek olimlaridan akademik g'. Abdurahmonov va A. Rustamov, prof. N. Rahmonovlar ham Urxun va Enisey yozuvlarini o'rganib, muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ushbu yodgorliklarni tadqiq etish hozirgi kunda ham davom etmokda. U Urxun va Enisey yozuvlariga xos

ayrim leksik birlik va grammatik shakllar hozirgi uzbek, uyg'ur, ozarbayjon, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qorachoy, bolqor va boshqa turkiy tillarda uchraydi. Urxun va Enisey yozuvlari turkiy tillar tarixi, madaniyati, etnografiyasi, til va yozuvlari tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Arxeografiya fanining maqsad va vazifari nimalardan iborat?
2. Arxeografiya qaysi tarixiy fanlar bilan o'zaro bog'liq?
3. Epigrafika nimani o'rganadi?
4. Sharq mamlakatlari tarixiga doir qanday epigrafik yodgorliklar saqlanib qolgan?
5. Internet veb-sahifalaridan qadimgi turkiy yozuvlar bo'yicha ma'lumot to'plang.
6. Mustaqillik yillarida O'zbekiston da nashr qilingan hujjatlar haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov g'., Rustamov A. qadimgi turkiy til.-T., 1982.
1. Валк С. Н. Избранные труды по археографии.-СПб., 1991.
2. Добрушкин Е. М. Основы археографии.-М., 1998.
3. Лунин Б. Библиографический указатель литературы по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана вышедший в свет в 1952 г. / Известия АН УзССР, серия общественных наук, 1957, №3. С. 65- 71.
4. Каграманов Дж.В. Описание археографических документов.- Баку.: Элм. 1969.
5. [Карышковский П.О.](#) Материалы к собранию древних надписей Сарматии и Тавриды // Вестник древней истории. 1966, № 2.
6. Каштанов С. М. Актовая археография. -М., 1998.
7. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии.-М., 1964.
8. Малов С.Е., Памятники древне-тюркской письменности.-М.-Л., 1951.
9. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности.-М.-Л., 1951.
10. Меликишвили Г. А. Урартские клинообразные надписи.-Л., 1960.
11. Мельникова Е. А. Скандинавские рунические надписи.-М., 2001.

12. Рождественская Т. В. Древнерусская эпиграфика X-XV веков.-СПб., 1991.
13. Рыбаков Б. А. Русские датированные надписи XI-XIV вв.-М., 1964.
14. Тайны древних письмен.-М., 1976.
15. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Т., 2008.
16. Федорова Е. В. Латинская эпиграфика.-М., 1969.
17. Федорова, Е. В. Введение в латинскую эпиграфику.-М.: Изд-во МГУ, 1982.
18. O'zbekiston Respublikasining "Arxivlar to'g'risida"gi qonuni. 15.04.1999.

III BOB. NUMIZMATIKA

1. Numizmatika fanining maqsad va vazifalari

Numizmatika (lotincha - tanga) - tangalar haqidagi fan bo'lib, tangalarning tasvirlari, yozuvlari, og'irligi, qanday metallardan yasalganligi, pul muomalasidagi darajasi va tanga zarb qilinish tarixini o'rganadi. Numizmatika xronologiya, moddiy madaniyat, ichki va tashqi savdo tarixi masalalarini tekshirishga imkon beradi, tarix, arxeologiya, paleografiya, san'at tarixi, iqtisod, etnografiya fanlari uchun katta ahamiyatga ega. Numizmatika tushunchasiga yana qog'oz pullarni o'rganish (bonistika) va medal, jeton, orden hamda nishonlarni o'rganish (faleristika) ham kiradi. Metall pullar paydo bo'lgunga qadar pul vazifasini har xil tovarlar: hayvonlar, taqinchoqlar, metall qurollar va quymalar bajargan. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, savdoning o'sishi pulga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqargan. Faqat davlat boshliqlarigina tanga chiqarish huquqiga ega bo'lgan.

Tanga – bu o'z shakliga ega bo'lgan metall quymasi bo'lib, u o'z vazniga, qard-qiymatiga va sifatli tarkibiga, tasdiqlangan tamg'asi, ikki tomonida yoki bir tomonida ba'zida yon tomonlarida ham mavjud maxsus tamg'alari. Tanga - qiymat belgisi, moddiy shaklga ega bo'lgan holda tovar-pul munosabatlarning mavjud qonunidir va ushbu munosabatlarning zarur asbob uskunasi bo'lib hisoblanadi. qog'oz pullar paydo bo'lishi bilan muomalada tanganing roli keskin pasaydi, asosan, XX asrdan boshlab tanga qog'oz pullarni maydalash va mayda to'lov vositasi yoki mamlakat asosiy pul birligining muayyan qismini (dollar, tsent, lira, chentezimo va boshqalar) ifodalaydigan pul birligi vositasi sifatida ishlatila boshladi, oltin va kumush tangala chiqarilishi to'xtatildi (maxsus esdalik va yubiley oltin, kumush, platina tanaglar bundan mustasno).

Eng birinchi tangalar eramizdan avvalgi XII asrda Xitoyda zarb qilingan, keyinroq esa hindistonda, o'rta er dengizi xududida er.avv. VII asrda mustaqil ravishda paydo bo'lgan. Ilk tangalar vatani mustaqil ravishda Kichik Osiyo davlatlaridan Lidiyada paydo bo'lgan. Keyinchalik tangalar Elladada va uning mustamlakalari Eron, Italiya davlatlari ham kengroq yoyildi.

O'rta Osiyo da birinchi tangalar (kumushdan) eramizdan avvalgi III asrda chiqarilgan. Uning yuza qismi (aversi)ga podshoning surati, orqa tomoni (reversi)ga esa har xil xudolar, muqaddas hayvonlar tas-viri solingan yoki podsholarning nomi yozilib, tamg'asi tushirilgan.

Eramizdan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida Rimda cherkov qoshida tanga zarb qilish ustaxonalari paydo bo'lib, yapaloq shakldagi misdan qilingan tanagalar zarb qilingan.

O'zbek tiliga tanga so'zi turkiy "tamg'a" so'zidan kirib kelgan bo'lsa, rus tiliga "moneta" so'zi Pyotr I davrida muomalaga kiritilgan. qadimda rimda Juno Moneta nomli yunonlar xudosiga nisbatan ishlatilgan. Moneo – ya'ni ogohlantiruvchi, asraguvchi ma'nosini bildirgan. Rim yozma manbalarida tanganing "numizma" degan yana bir nomi uchraydi. "Numizma" so'zi lotin tilidan turlanib, yunon tilida "tanga", "qonun" so'zi, "o'rnataman" fe'li o'rnida ham ishlatilgan.

Numizmatika atamasi o'rta asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, u bir necha xil ma'nolarni bildirgan. Numizmatika tushunchasi tangalar va medallar yig'ish va ularni o'rganuvchi fan bo'lib hisoblanadi.

2. Numizmatikaga oid tadqiqotlar

Qadimgi tangalarga Evropada Uyg'onish davrida (XVI asrda) qiziqish paydo bo'la boshlagan. Ilk marotaba tangalarni faqatgina qiziquvchi sifatida yig'ishgan. Birinchilardan italyan shoiri F. Petrarka (1304-1374) qadimgi Rim tangalarini kolleksiya qilgan. XVI asrga kelib tanga va medal buyumlarini yig'ish urfga va noyob mashg'ulot turiga aylangan. XVI asrda Aristokratlar tangashunoslik faoliyatini o'rganishda va tangalari yig'ishda maxsus odamlarni yollab ishga sola boshlashdi. 1749-1769 yil Leyptsigda I.F. Ioaximom va I.G. Byolilar tomonidan numizmatika katologi chop etildi. XVIII asrda Galla (Saksoniya) va Upsalo (Shvetsiya) universitetlarida numizmatika fanidan ma'ruzalar o'qila boshlandi. XIX asrga kelib Evropaning ko'pgina universitetlarida numizmatika fanidan ma'ruzalar tinglana boshlanadi. Vena universiteti arxeologi professor Y. Ekkel (1737-1798) tomonidan numizmatikaning ilmiy asoslari yaratilgan. U qadimgi tangalarni tarixiy-geografik jihatdan tizimlashtirib chiqdi. XIX asr boshlarida Avsriyalik olim Y. Mader "o'rta asrlar tangalarining tarixi haqida taqidiy ocherklar" nomli uch jildli asari nashr etildi (Praga 1803-1813). Uning asarlarida tanganing ichki belgilari o'rganilmasdan, balki tanganing siyosiy tarix, feodallar mavqeini belgilashdagi vosita sifatida o'rganib chiqadi.

Polyak olimi I. Lelevel tomonidan "o'rta asrlar numizmatikasi" asari 1835 yil Parijda chop etilib, unda tangalar atlas kartalari va xronologik tablitsalar orqali ma'lumotlar berib o'tdi.

1865-1866 yil nemis numizmati V. Rentsman Berlinda evopadagi barcha tangalarda uchraydigan belgilar, qirol nomlari, tasvirlari, va boshqa ma'lumotlar jamlangan kitobini chop etdi. Rossiyada numizmatikaga 19 asr o'rtalarida qiziqish kuchaydi

Numizmatika shartli ravishda Antik davr, Vi-zantiya, Sharq (Osiyo va Afrika mamla-katlarida, shuningdek, O'rta Osiyo, Kav-kaz, qrim,

Volga bo'yida o'rta asrlarda chiqarilgan tangalarni o'z ichiga oladi), g'arb (g'arbiy Evropa hamda AqSh, Kanada va Lotin Amerikasida chiqarilgan tangalar) va rus Numizmatikasiga bo'linadi. Sharq Numizmatikasiga X.D. Fren asos solgan. XX asrga kelib "kolleksioner" so'zidan "numizmat" so'zi ajralib chiqdi.

3. Numizmatikaning asosiy tushunchalari

Avers – tanganing yuz qismi. Tanganing yuz qismi aniqlab beruvchi yo'nalish.

Revers – tanganing orqa tomonini aniqlab, bu tushuncha tangani ilmiy tasvirlashda qulaylik tug'dirish maqsadida yaratilgan.

Emitent – deganda tangani zarb qildirgan hukmdor yoki davlat boshlig'i tushuniladi.

Tanga huquqi – tanga zarb qilish huquqi. bunday quhuqqa har bir suveren davlatning, qirollikning huquqi.

Tangadagi davlat belgisi – tanganing davlatga keltirgan foydasi.

Legenda – (tanganing izohi) tangadagi yozuvlar. Tangada aylana yoki gorizonta, bir yoki bir necha qator shakldagi yozuvlar bo'ladi.

Nominal – tanganing qadr-qiymati.

Tanganing birligi – tanganing yasalgan metall va og'irligi orqali tanganing birligi aniqlanadi. Masalan: funt, marka va boshqalar.

Tanganing probasi – tanga oltin yoki kumushdan bo'lgan bo'lsa, qancha miqdori sof qimmatbaho metalligini aniqlash.

Tanganing buzilishi – tanga tarkibidan qimmatbaho metallning tarkibiy og'irligi namoyishi natijasida tanga sifatini tushishi.

Ligatura – tanganing tarkibidagi oltin yoki kumushning qimmatbaho bo'lmagan metall qorishmasini aniqlaydi.

Tanga maydoni - tanganing yuzaki yoki orqa tomonidagi yozuvsiz va bo'sh joylarini o'rganadi.

Tanganing cheka qismi – tanganing asosiy qismidan pastki qismini ajratuvchi gorizonta kesma chiziq.

4. O'zbekiston tangalari

O'zbekiston hududida dastlabki metall Tangalar mil. av. VI asrda Doro I davrida zarb etilgan, og'irligi 8,4 g ni tashkil etgan "darik" deb nomlangan tilla tangalar, deb taxmin qilinadi. Mil. av. III-I asrlarda va undan keyingi davrda zarb etilgan tangalar namunalari hozirgacha saqlanib qolgan. Ular jumlasiga Antiox I (er. avv. 281-261 yillar), Evtidem I (er. avv. 235-200 yillar), Demetriy I (er. avv. 200-185 yillar), Evkratid I (er.

avv. 171-155 yillar), Mitridat II (er. avv. 124-88 yillar) va Germey (er. avv. 75-55 yillar) tangalari kiradi.

VIII asrning o'rtalarida O'rta Osiyo da arablar hukmronligi boshlanganidan so'ng savdo muomalasini amalga oshirish uchun vazni 4,3 g bo'lgan oltin dinor, maosh va soliqlar to'lovi uchun vazni 2,8 g bo'lgan kumush dirxamlar va kundalik savdo-sotiq uchun mis tangalar — fuluslar zarb etilib, muomalaga chiqarilgan. Amir Temur davrida Samarqandda tangalar zarb etiladigan maxsus zarbxonalar tashkil etilgan, birinchi marta turkiy nom, ya'ni "tanga" deb atalgan, vazni 4,5-4,7 g bo'lgan kumush tangalar, vazni 2 g ni tashkil etgan oltin dinorlar va vazni 1,8 g bo'lgan va kumushdan tayyorlangan mirilar zarb etila boshlagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva, Buxoro, qo'qon xonliklarida oltindan "tilla", kumushdan "tanga", misdan "pul" (chaqa) deb ataladigan tangalar zarb qilingan.

O'rta Osiyo davlatlari tangalarni o'rganishda rus olimlari P. S. Savel'ev, V.T. Tizengauzen, E.A. Davidovich, O.N. Smirnova, O'zbekistonlik olimlardan M.E. Masson, Sh.R. Pidaev, E.V. Rtveldze, T.S. Ernazarova, E.V. Zeymal, B.D. Kochnev, A.A. Musakaeva, I.T. To'xtiev va boshqalarning hissi katta.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy valyutasi — so'mni muomalaga kiritgandan keyin jezdan yasalgan va qiymati 1, 3, 5, nikel bilan qoplangan 10, 20, 50 tiyin bo'lgan tangalar chiqarilgan.

Respublika tarixidan muhim sanalarga bag'ishlab esdalik va numizmatik ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab yubiley tangalar zarb etildi. Dastlab 1994 yida Mustaqillikning 3 yilligiga bag'ishlab 10 so'mlik, Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlab 1 so'mlik, 1996 yil 1 sentyabrda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan oltin va kumushdan 100 so'mlik hamda 1998 y.da Alisher Navoiy, keyinchalik esa, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muso Al-Xorazmiy kabi buyuk allomalar portretlari tushirilgan yubiley tangalar zarb etildi.

5. O'rta Osiyo hududidagi ilk o'rta asrlar tangalari

Ilk o'rta asrlarda mamlakatimiz hududida zarb qilingan tangalarning yana bir asosiy jihati shuki, ularda har bir hukmdorlikning o'ziga xos belgisi — tamg'alar aks etgan. Yuqorida aytib o'tilgan voha hukmdorliklarning, hatto konfederativ shakldagi hukmdorlik tarkibidagi mayda hokimliklardan bir qanchasining o'z tamg'alari bo'lib, ular nafaqat tangalarda, balki sopol va metall buyumlar sirtida ham o'rin olganligi arxeologik topilmalar orqali ma'lum. Aslida muayyan bir tamg'a biror

hukmdorlikni ifodalovchi ramziy belgiga aylangan bo'lsa-da, ularni biron bir mamlakat yoki o'lkaning qadimdan o'zgarmay kelgan an'anaviy nishoni (gerbi) deb bo'lmaydi. Chunki, mintaqadagi siyosiy vaziyat bilan bog'liq holda har bir davrda o'ziga xos ramziy belgilari bo'lib, ular bir-biridan tafovut qiladi. Xususan, Kushon saltanati va qang' davlati davridagi tamg'alar ilk o'rta asrlardagidan shakl jihatidan ancha farq qilishi ma'lum. Faqat ilk o'rta asrlarga kelgach, voha hukmdorligidan har birining o'ziga xos tamg'asi mavjud bo'lganligi yanada yaqqolroq ko'zga tashlana boshlaydi. Xullas, bu davrda uchraydigan tamg'alarni biror bir mamlakatning emas, u erni boshqarib turgan sulolaning ramziy belgisi sifatida qarash ko'proq mantiqli ko'rinayapti. Masalan, VII-VIII asrlarda Choch vohasida uchta boshqaruvchi sulola mavjud bo'lib, ulardan har qaysisining o'z tamg'asi bo'lgan. Ulardan qaysi biri Choch hukmdorligining ramziy belgisi ekanligini aniqlash qiyin. Aftidan ushbu tamg'alar sulolaga asos solgan urug'larga tegishli ko'rinadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ba'zan muayyan bir hukmdorlikda mavjud sulola vakili o'zidan oldin hukmronlik qilgan qarindoshi (otasi, akasi yoki yaqinlaridan biri)dan hokimiyatni meros qilib olar ekan, an'anaviy tamg'aga biron bir qo'shimcha belgi ilova qilgani ko'zga tashlanadi. Bu asosan Samarqand ixshidlari, Panj hukmdorlari tangalariga xosdir. quyida bu davrda mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan voha hukmdorliklarining asosan tangalar sirtida va qisman esa boshqa buyumlarda uchraydigan ramziy belgilari – tamg'alar va unvonlarni keltiramiz:

1. 1. Choch \mathfrak{K} , \mathfrak{W} , \mathfrak{X} ; xvabu, tegin, eltabar, tudun.
2. Farg'ona: \mathfrak{X} (variantlari; \mathfrak{X} , \mathfrak{H} , \mathfrak{K}) xoqon, tutuq.
3. Ustrushona: \mathfrak{C} .MR'Y.
4. Sug'd:
 - a) Samarqand: \mathfrak{F} xoqon, MLK'.
 - b) Panj: \mathfrak{P} (variantlari \mathfrak{P} , \mathfrak{P}) MR'Y.
 - v) Kesh: \mathfrak{K} ; axurpat.
- g) Naxshab: \mathfrak{N} ; xvabu.
5. Buxoro: \mathfrak{B} ; puxar xvab kava.
6. Toxariston:
 - a) Toxariston yabg'uligi: \mathfrak{Y} , \mathfrak{Y} (?);yabg'u.
 - b) Chag'oniyon: \mathfrak{C} (?); xvab.
 - v) Termiz: \mathfrak{T} . - . -.
7. Xorazm: \mathfrak{X} ; MR'Y MLK'.

Iqtisodiy ehtiyojlar vositasi sifatida zarb etilgan mazkur tangalar va ularda joy olgan ma'lumotlar o'z davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, tangalarda aks etgan hukmdor ismi va unvoni, turli xil ramziy belgilar (tamg'a va hokazo) ko'proq siyosiy hayotni yoritishga yordam bersa, ularning ikonografik (tasvir va syujetlar) va paleografik jihatlari, yasaliş texnikasi, metall turi va boshqalar o'z davri madaniy-iqtisodiy holatini tasavvur qilishga xizmat qiladi.

Bu davr tangalarini numizmat olimlar asosan O.I. Smirnova, E.V. Rtveladze, V.A. Livshits, E.V. Zeymal, B.I. Vaynberglar o'rganishgan bo'lib, ularning aksariyati mamlakatimizning u yoki bu qismidan topilgan tangalarga bag'ishlab tadqiqotlar nashr etishgan. hozirgi kunda bu sohani E.V. Rtveladze, L.S. Baratova, A.V. Kuznetsov, g'. Boboyorov, A. Kubatinlar davom ettirishayapti. Biroq, ularning aksariyati asosiy e'tiborni Choch vohasi tangalariga qaratganligi uchun Farg'ona, Ustrushona, Sug'd, Xorazm tangalari etarlicha o'rganilmasdan qolmoqda.

Numizmatik materiallarning tarixiy manba sifatida ahamiyati shuki, yozma manbalarda uchraydigan nuqsonlar (ma'lumotning etqazilish darajasi, til va yozuv xususiyatlarining farqliligi natijasida ism, unvon va atamalarning asliyatdan uzoqlashishi va hokazo) tufayli yuzaga keladigan anglashmovchiliklar ularda ko'p uchramaydi. Shu jihatdan olganda, tanga-pullarni ishonchli va sobit manbalar, deb hisoblash mumkin.

Farg'ona vodiysi tangalari. Mavjud numizmatik materiallar asosida hozirchalik Farg'ona vodiysida tanga zarb qilish an'anasi milodiy VII asrda yo'lga qo'yilgan, deb taxmin qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan Farg'ona vodiysida islomdan avval muomalada bo'lgan tangalar o'z turi va miqdoriga ko'ra kamchilikni tashkil etadi. hozircha asosan vodiyning bu davrga taalluqli Axsikent, quva, Munchoqtepa kabi shahar xaroblaridan topilgan tangalarni quyidagicha turga bo'lish mumkin:

I. Turkiy qiyofali hukmdor tasvirli, o'ng yuzida turk-run yozuv va orqa yuzida 𐰽 shaklli tamg'a hamda uning atrofida sug'diy jumla o'rin olgan tangalar. har ikkala tildagi yozuvlar haligacha to'laqonli o'qilmagan;

II. Yuqoridagiga o'xshashroq tasvirli tanga. Tanganing orqa yuzasida shaklli tamg'a atrofida sug'diy yozuvli *prn ɛzy x'[z'n]* – “Ilohiy qut (sohibi) xoqon” jumalari joy olgan;

III. o'rtasi kvadrat teshikli, sug'diy yozuvda *x'z'n* – “xoqon” unvoni va 𐰽 yoki 𐰾 shaklli tamg'a o'rin olgan tangalar;

IV. o'rtasi teshik bo'lib, bir chekkasida sug'diycha *pny*– “tanga/pul” yoki *prn* – “qut” jumalari o'rin olgan, nisbatan sifatisiz tangalar.

Turk xoqonligi qo'shinlari 560 yillarda eftalitlarga qarshi yurish qilish mobaynida birinchilardan bo'lib, Farg'onani egallaydi. Aftidan dastlabki paytlarda vodiyning mahalliy sulolasi xoqonlikka tobe o'laroq o'z hokimiyatini saqlab qoladi. Keyinchalik esa, g'arbiy turk xoqonlari Chochda bo'lganidek, o'zlarining markaziy hududi – Ettisuvga janubi-g'arbdan qo'shni bo'lgan Farg'ona boshqaruviga ham yaqindan aralasha boshlaydilar. Jumladan, Tan-shu yilnomasida Chjen-guan davrida (627-649) g'arbiy turklardan Gan Moxedu (To'n Bahodur) Boxanna (Farg'ona)ning Kibi ismli hukmdorini o'ldirgani va hokimiyat Ashena (Ashina) Shuni ismli shaxs qo'lga o'tgani ta'kidlanadi. Bir qator tadqiqotchilar uni g'arbiy Turk xoqonligiga mansub shahzoda, deb hisoblashadi. Yilnomada keltirilishicha, Ashena Shuni o'limidan keyin uning o'g'li Yebochji hokimiyatni qo'lga oladi va marhum Kibining qarindoshi (birodari?) Alyaotsan hukmdor qilib tayinlanadi. Yebochji Gyesay (Koson) shahrida, Alyaotsan esa Xu-min (quba?) shahrida turib faoliyat yurita boshlashadi. Shundan keyin 656 yili Yebochji Xitoyga sovg'a-salomlar bilan elchi yuborganligi qayd etiladi. Demak, bu paytda Farg'onada kelib chiqishi xoqonlarga taqaluvchi sulola tashkil topgan bo'lib, xoqonlik vodiyni bevosita o'z vakillari orqali boshqara boshlagan, shu bilan birga, mahalliy sulola faoliyatiga ham barham berilmagan.

Sug'd vohasi tangalari. a) Samarqand. Garchi, ilk o'rta asrlarda Sug'd markaz Samarqand o'laroq, Panj (Panjikent), Kesh (Shahrisabz), Naxshab (qarshi) kabi nisbatan yirik va Kushoniya (Kattaqurg'on), Maymurg', Kabudon, Fay singari kichik mulklardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular orasida faqat yiriklarining o'z tanga-pullarini zarb qildirgani ma'lum.

Samarqand ixshidlari tomonidan VII asr ikkinchi yarmidan to VIII asr o'rtalarigacha zarb qildirilgan xitoy taqlidi tangalarda sug'diy yozuvda Shishpir (640), Avarxuman (650), Tukaspadak (690), Tarxun (700-710), g'urak (710-738), Turg'ar (738-750) kabi hukmdor ismlari o'rin olgan bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlar asosan xitoy va arab manbalarida, qisman esa sug'diy hujjatlarda uchraydi. Biroq, ulardan oldin VI asrlar o'rtalaridan VII asr 40-yillarigacha hukm surgan Samarqand hukmdorlarining ismi tangalarda joy olgan yoki aksinchaligi noma'lum. Garchi xitoy yilnomalarida Shifubi (590-yy.) va Kyuymuchji (610) nomlari uchrasa ham, qaysi tangalar aynan ularga tegishligi aniq emas. Faqat haligacha "egasi" aniqlanmagan 3 tip ⚡ shaklli tang'ali Samarqand tangasi uchrab, ba'zi jihatlar ularning mazkur hukmdorlarga, yo bo'lmasa 640-yillargacha, ya'ni Shishpirdan oldin Samarqandni boshqargan hukmdorlardan biriga tegishli ekanidan darak berayotir. o'z vaqtida O.I.

Smirnova tomonidan bir guruhi *twr'k zwε* – «qudratli hukmdor» yoki “Turklar hukmdori” deb o’qilgan mazkur tangalarning olimlarimiz tomonimizdan *twrnyn zwε* – “Turon/turk? hukmdori” shaklida tuzatilib o’qilishi bu masalani qaytadan qarab chiqishni talab qildi. Ayniqsa, mazkur tangalarning bitta tipida *x'z'n zwε twrnyn* – “xoqon. Turon (?) hukmdori” jumlasining aniqlanishi bu masalaga oydinlik kirituvchi ma'lumotlarga egaligi bilan diqqatni tortdi. Bu tanga O.I. Smirnova tomonidan *zwε mwrnyn znp'n* – “Ezgu nishon (sohibi) hukmdor Mukrnin” shaklida o’qilgan, biroq aksariyat tadqiqotchilar bu talqinga qo’shilmagan edilar.

Muhimi shundaki, bu tip tangalardagi hukmdor tasvirlari turkiy qiyofada bo’lib, ular orasida umumiy yaqinlik mavjud. Bundan tashqari, ularning barchasida *twrnyn* so’zining uchrashi diqqatni tortadi. Agar bu so’z o’sha paytda turkiylar hukm suradigan o’lka sifatidagi Turon nomi bo’lib chiqsa, mamlakatimiz tarixi bilan bog’liq bir qator masalalarning echilishiga olib keladi. Boshqa tomondan, Samarqand tamg’asi bilan zarb qilingan tangada xoqon unvonining uchrashi o’z izohini talab qiladi. Ehtimol, Samarqand hukmdorlari turk xoqonlari nomidan tanga chiqargandir. Xitoy yilnomalaridan ma'lum bo’lishicha, VI asr oxirlari – VII asr boshlarida Kan (Samarqand) hukmdorlari xoqonlar bilan yaxshi aloqa o’rnatgan bo’lib, shu bois o’z atrofida yuqori mavqe qozongan edilar. Jumladan, Tardu xoqon (576-603) o’z qizini Shifubi ismli, Tun yabg’u-xoqon (618-630) esa Kyuymuchji ismli Samarqand hukmdoriga qizini turmushga bergan edi. Balki, ushbu hukmdorlar ushbu munosabatlar e’tirofi sifatida mazkur tangalarni chiqargandir. Darvoqe, aynan shu davrlarga taalluqli, deb taxmin qilinuvchi \otimes shakldagi tamg’ali, turkiy qiyofali hukmdor va malika tasvirli tangalarda *x'ttwn* – «xotun» unvoni uchraydiki, ular aynan shu nikoh rishtalari tufayli Samarqand hukmdorlari tomonidan zarb qilingan bo’lishi mumkin. Bu tangalarning jabg’u, jabg’u-xoqon va xoqon unvonlari bilan bosilgan qo’shaloq portretli (hukmdor va malika tasvirli) g’arbiy Turk xoqonligi tangalari bilan ikonografik jihatdan yaqin o’xshashlikka egaligini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Mazkur tangalardan keyingi Samarqand tangalarida hukmdor tasvirlari o’rnini xitoy taqlidi o’rtasi to’rtburchak teshikli tangalar egallaydi. Bu o’sha davrdagi tarixiy voqeliklar bilan aloqali bo’lib, 630 yilda markazi o’rxun/o’tukan (Mo’g’uliston) bo’lgan Turk xoqonligining sharqiy (markaziy) qismiga Xitoyning Tan imperiyasi tomonidan zarba berilgan, ayni yillarda markazi Ettisuv bo’lgan g’arbiy qanot (bu paytda Yabg’u-xoqonlik) ustida esa Xitoy nufuzi kuchayayotgan bir palla edi. Xullas, xoqonlikning o’z vassallari ustidan bo’lgan nazorati birmuncha

zaiflashgan paytda Samarqand hukmdorlari o'z tangalarini Xitoy ta'sirida zarb qila boshlaydilar. Shunday bo'lsa ham xoqonlikning Samarqanddagi ta'siri VIII asr birinchi yarmigacha ham saqlanib qoladi.

Xitoy yilnomalaridan ma'lum bo'lishicha, VII asr ikkinchi yarmidan to shu asrning oxirigacha bo'lgan vaqt mobaynida Samarqand hokimiyatida sulola almashinuvlari yuz beradi. Bu voqealar ham numizmatik materiallarda aks etgan bo'lib, an'anaviy Samarqand tamg'asi (𐰽) bilan birgalikda farqli tamg'a (𐰾) o'rin olganida ham ko'zga tashlanadi.


b) Panj. Sug'dning o'z davrida mavqei yuqori hukmdorliklaridan biri bo'lgan ushbu viloyat tangalari VII asr o'rtalaridan boshlab zarb qilingani ma'lum. Panjning ilk tangasi deb hisoblanuvchi o'rtasi to'rtuburchak teshikli xitoy taqlidi tangada *pncy pncy MR'Y cm'wky'n* – “Panj hukmdori Chamukyan” jumalari o'rin olgan bo'lib, tanganing orqa tomonida esa 𐰽, 𐰾, shaklli tamg'alar mavjud. qizig'i shundaki, ular Chochda zarb qilingan g'arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi tamg'alar bilan yaqin o'xshashlikka ega. Jumladan, o'qsimon shaklli birinchi tamg'a “Tardu xoqon” nomi uchrovchi tangadagi (𐰽) tamg'a bilan yaqin kelsa, ikkinchi tamg'a esa “Ilohiy Tuun xoqon” jumalari bilan bosilgan tangadagi 𐰾shaklli tamg'aga anchagina mos tushadi (taqqoslang. 𐰽-𐰽/𐰽; 𐰾 / 𐰾 – 𐰾). Bu esa mazkur sulolalar orasida qandaydir bir bog'liqlik bor emasmikin, degan savolni ko'ndalang qo'yadi. Darvoqe, Panjning bundan keyingi tangalarida esa mazkur tamg'alardan biriga (𐰾) o'xshash tamg'ali (𐰾, 𐰾) tangalarda *pncy MR'Y ɔylk'' zwb* – «Panj hukmdori podsho Bilga» jumalari aks etgan. Tadqiqotchilar tangadagi Bilga ismi bilan Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida 693-708 yillarda Panjni boshqargan hukmdor sifatida qayd etilgan *ck'yn cwr ɔylk''* (Chakin Chur Bilga)ni tenglashtiradilar. Ushbu hukmdor aksariyat tadqiqotchilar fikricha, turkiy hukmdor bo'lib, Devashtichdan oldin Panjni boshqargan. Shuningdek, uning o'rniga o'tirgan sug'diy hukmdor Devashtich (709-722) nomidan tanga bostirilgani shu paytgacha ma'lum emas. Aksincha, Bilgadan keyin zarb qilingan Panj tangalarida *pncy nnðɛnpnwh* - “Panj qirolichasi Nana” jumalari uchrab, sug'dshunoslar bu holatni “tanga Bilganing qizi nomidan zarb qilingan, Devashtich hukmdorlar xonadonidan bo'lmagani uchun o'z ayoli nomini aks ettirgan”, deb izohlaydilar. Darvoqe, Devashtichning shajarasi keltirilgan manbada uning ajdodlaridan bir nechasining ismi Shur shaklida qayd etiladi. V.A. Livshitsning fikricha, ushbu ism aslida turkiy chur unvoniga aloqador bo'lib, Devashtichning Chakin Chur Bilgaga kuyov bo'lishi bilan bog'liq.

Xullas, ham numizmatik materiallar, ham yozma manbalar VII asr ikkinchi yarmi – VIII asr birinchi choragida Panj hukmdorligini turkiy-sugʻdiy aslli sulola boshqarganini tasdiqlaydi.

v) **Kesh.** Sugʻd konfederatsiyasining yirik qismlaridan biri Kesh hukmdorligi boʻlib, bu er oʻzining anchagina qadimiy tanga zarbiga ega edi. Bu davrda maʼlum muddat Kesh hukmdorlari Sugʻdda etakchilik qilganligi haqidagi maʼlumotlarni numizmatik materiallar ham tasdiqlaydi. Xususan, VII asr oʻrtalariga oid baʼzi Samarqand tangalarida Kesh hukmdorligiga xos triskeles shaklli (♁) tamgʻa uchraydi. Darvoqe, 640 yillarda Samarqandni boshqargan Shishpir asli keshlik hukmdor boʻlgan, deb talqin qilinadi.

Keshda zarb qilingan tangalarning bir qancha tipidaʼn *kpyʼnʼk zwb* "xwrpʼt - "Kesh hukmdori Axurpat" jumlasini uchraydi. Taʼkidlash joizki, bu tip tangalarni birinchilardan boʻlib oʻqigan O.I. Smirnova sugʻdiy jumlanini *ræʼnʼk zwb* "xwrpt - "Ragʻfan hukmdori Axurpat?" tarzida talqin qilgan va bu bir qator yanglishliklarga yoʻl ochgan edi.

Ushbu ism xitoy yilnomalarida 720 yillarda Xitoyga elchi yuborgan Shi (Kesh) hukmdori Axubido shaklida qayd etiladigan ism bilan tenglashtiriladi. Axurpat ismi esa aslida sugʻdiycha unvon boʻlib, "oxur (sayis)xona boshligʻi" degan maʼnoni bildiradi.

g) **Naxshab.** Sugʻd konfederatsiyasining yana bir yirik aʼzosi Naxshab ham oʻzining tanga-pul tizimiga ega edi. Bu davr Naxshab tangalarining maʼlum qismini bir tomonida turkiy qiyofali hukmdor tasviri, bir tomonida esa ot tasviri va uning atrofida sugʻdiy jumlar ("qut (sohibi) hukmdor") aks etgan tangalar tashkil etadi. Naxshab tangalarining boshqa guruhida esa bir tomonida ot tasviri va yozuv (*æy zwb* - - "ilohiy hukmdor"), ikkinchi tomonida esa  shaklli tamgʻa va uning ustida yozuv oʻrin olgan. Mazkur yozuvni tadqiqotchilar *ʼæknðk* - "Ayukandak" shaklida oʻqishgan. Ularning fikricha, arab manbalarida 730 yillarda Nasaf isphabodi sifatida tilga olingan al-Ashkandning ismi mazkur tangada aks etgan. Xitoy yilnomalarida 738 yilda Turgash hukmdori Tuxosyan qut-churga qarshi kurashgan turgash lashkarboshisi Bagʻa Tarxonning yonida joy olgan Shi (Kesh) hukmdorining nomi Siginti shaklida uchraydi. Mazkur hukmdor ismining asli Ashkand boʻlib, u ayni vaqtda Naxshab hukmdori boʻlgan. Xitoy yilnomalarida uning Kesh hukmdori sifatida tilga olinishi oʻsha paytda Naxshabning yaqin qoʻshnilari ustidan mavqei oshgani bilan bogʻliq boʻlsa kerak.

Naxshabda turkiy qiyofali hukmdor tasvirining uchrashi oʻsha davr tarixiy voqeliklari bilan bogʻliq. Xususan, 560 yillarda Naxshab atrofida Eftalitlarga qarshi asosiy zarbani bergan Turk xoqonligi bu hududda oʻz



qo'shinlarini joylashtiradi. Natijada Naxshabning boshqaruv markazi bo'lmish joy (Erqurg'on)dan janub (Shuluktepa)ga ko'chadi va yangi sulola vakillari bu erdan turib vohani boshqara boshlaydilar. Arxeolog R. Sulaymonov fikricha, mazkur sulola vakillarining kelib chiqishi turkiy bo'lgan. Ushbu sulola oldingi mahalliy suloladan farqli tangalar zarb qila boshlagan va ularda o'ziga xos an'analarni aks ettirishgan.

Buxoro tangalari. Ilk o'rta asrlarda Sug'ddan alohida hukmdorlik bo'lgan Buxoro boshqa bir qator voha hukmdorliklari singari bir necha kichik hokimliklardan tashkil topgan edi. Markaziy hokimiyat Buxorodan tashqari yana Poykent, Vardona va boshqa bir qancha mayda hukmdorliklar o'z ichki ishlarida anchagina mustaqil siyosat olib borishgan. Bu holat nafaqat o'sha davr yozma manbalarida, balki numizmatik materiallarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, *pwe'r zwb k'v'* - "Buxoro hukmdori podsho" jumalari aks etgan Buxorxudotlar sulolasiga tegishli kumush tangalardan boshqa vohada yana bir necha turdagi mis tangalar zarb etilgani bundan darak beradi. Ular orasida æ (variant. ɣ , æ) shaklli tamg'ali, qisq ko'zli, keng yumaloq yuzli turkiy qiyofadagi hukmdor tasvirli tangalarning uchrashi bu davrda voha boshqaruvida xoqonlik bilan aloqali vakillar faoliyati bilan bog'liqmasmi, degan taxminga imkon yaratadi. Ehtimol, Buxoro hukmdorlari bilan shaklli tamg'ali tanga bostirgan Chochning mahalliy sulolasi orasida qay darajadadir qarindoshlikka ega bo'lishi mumkin. Agar xitoy yilnomalarida Shi (Choch), An (Buxoro) va boshqa 9 ga yaqin hukmdorlikning o'zaro qarindoshligi va ular markazi Kan (Samarqand) bo'lgan Chjaovu xonadoniga borib taqalishi haqidagi ma'lumotdan kelib chiqilsa, bu o'xshashliklar bejiz bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, mazkur xonadonning kelib chiqishi masalasi haligacha ochiq qolmoqda.

Darvoqe, bu davr Buxoro tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, voha boshqaruvida sug'diy-turkiy an'analarning omuxtalashganini ko'ramiz. Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asaridan ma'lum bo'lishicha, buxorolik zodagonlar mahalliy hukmdor Abruyning zulmiga qarshi turk xoqoni Biyog'u (Yabg'u)dan yordam so'ragach, xoqon o'z o'g'li Sheri Kishvarni bu masalani hal qilish uchun yuboradi. Tadqiqotchilar fikricha, asl ismi El-Arslon bo'lgan mazkur shahzoda kelgan VI asr oxirgi choragidan boshlab to VIII asr birinchi yarmigacha voha Turk xoqonligi tarkibida bo'ladi. Agar bu davr mobaynida vohada hukm surgan Buxorxudotlar sulolasi vakillari ismiga nazar tashlasak, Xotun, Tug'shoda, Arslon kabi turkiy ism va unvonlarga duch kelamizki, bu esa yuqorida aytib o'tilganidek, Buxorodagi turkiy-sug'diy boshqaruv elementlari sintezidan darak beradi.

Boshqa voha hukmdorliklarga nisbatan bu davr Buxoro tangalarida unvonlarga ko'p duch kelinmaydi. Shuningdek, Buxoroning ba'zi tangalarida qisqa jumla (*pn̄y* – “tanga”) va an'anaviy tamg'a o'rin olgan xitoy taqlidi o'rtasi teshik tangalar ham zarb qilina boshlaydi. Aytib o'tish lozim, voha tarixiga doir numizmatika materiallar va yozma manbalarni o'zaro taqqoslab amalga oshirilgan tadqiqotlar kam. Biroq, keyingi yillarda Buxoro vohasiga aloqador ko'plab mis tangalar topilayotganligi bu masalani yanada izchilroq tadqiq etishni talab qilib qo'ymoqda.

Xorazm vohasi tangalari. Ilk o'rta asrlarda Xorazm mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan biroz farqli o'z boshqaruv tarziga ega hukmdorlik edi. Ayniqsa, Sug'd va Toxaristondan farqli o'laroq, bu erda nisbatan markazlashgan sulola hukm surgan. Bu ham yozma manbalar, ham numizmatik materiallar asosida o'z tasdig'iga ega. Ayniqsa, tangalarda qadimgi Xorazm davlatchilik an'alariga xos ramzlarning joy olishi, standart o'laroq *MR'Y MLK'* tarzida qo'shaloq unvonning joy olishi diqqatga sazovordir. Shuningdek, Xorazm tangalarida hukmdor qalpog'i ustida o'z davri mifologiyasi bilan bog'liq turli e'tiqodiy timsollar: tuya, burgut kabi hayvon tasvirlarining aks etishi xosdir.

Vohaning islomdan avvalgi numizmatikasi B.I. Vaynberg tomonidan o'rganilgan bo'lib, qadimgi xorazm yozuvlari aks etgan tangalarni tadqiq etish mobaynida tadqiqotchi yozma manbalarda, ayniqsa Abu Rayhon Beruniy asarlarida qayd etilgan 22 nafar Xorazm hukmdoridan bir qanchasining ismini topishga muvaffaq bo'lgan. Ular orasida *wzk'n̄w'r* (Azkachvar, arab manbalarida Chag'on) ismli hukmdor faoliyati Xorazm tarixi bilan bog'liq bir qator masalalarni keltirib chiqargan. Chunonchi, unga taalluqli, deb taxmin qilinadigan tangada o'sha davr Xorazm tangalariga xos  shaklli tamg'adan keskin farq qiluvchi  shaklli tamg'a joy olgan bo'lib, bu esa mazkur hukmdorni Xorazmning boshqaruvchi sulolasiga mansub bo'lmagan, asli chag'oniyonlik turkiy suloladan, mazmundagi fikrlar bildirilishiga sabab bo'ldi. Masalaning qiziq tomoni, ushbu tamg'a g'arbiy Turk xoqonligining VII asrning ikkinchi atrofida zarb qilina boshlagan tangalaridagi tamg'alarga juda yaqin keladi. Ma'lumki, bu davrda Chag'oniyon, Xuttal kabi Toxaristonning o'nlab kichik hukmdorliklarida turkiy sulolalar hukm surgan bo'lib, Toxaristonning bir qancha tangalarida xoqonlik tamg'asiga o'xshash tamg'alar joy olgan.

Keyingi yillarda Xorazmning islomdan avvalgi davriga taalluqli ko'plab yangi numizmatik materiallar topilmoqda. Faqat bu sohada tadqiqot olib boruvchi mutaxassislarning ozligi ularning atroflicha

o'rganilmasligiga olib kelayotir. Shu bois Xorazm tangalarining davlatchilik tarixini o'rganishda manba sifatidagi o'rni etarlicha tadqiq etilmasdan qolmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Numizmatika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. qaysi olimlar tomonidan numizmatikaga oid yirik tadqiqotlar olib borilgan?
3. Numizmatikaning asosiy tushunchalari nimalar?
4. Internet veb-sahiflaridan o'rta asrlar tangalariga oid ma'lumot to'plang.

Adabiyotlar:

1. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса VI-VIII вв. Ташкент, 2007.
2. Давидович Е.А. История монетного дела в Средней Азии (XVII-XVIII вв.).-Душанбе., 1964.
3. Институты государственности. Денежные отношения / История государственности Узбекистана (вторая половина II тысячелетия до нашей эры III век нашей эры). Т. I.-Т.:Узбекистан. 2009. -С. 394-416.
4. Нумизматика.-Л., 1961.
5. Нумизматика Узбекистана.-Т., 1990.
6. Ртвеладзе Э.В., Пидаев Ш.Р., Каталог древних монет Южного Узбекистана.-Т., 1981.
7. Ртвеладзе Э.В. Нумизматические материалы к истории раннесредневекового Чача // ОНУ. 1982, №8. -С. 31-38.
8. Ртвеладзе Э.В. Древние и раннесредневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. Том 1.-Т., 2002.
9. Спасский И.Г. Русская монетная система. 3 изд.-Л., 1962.
10. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Т., 2008.
11. Федоров-Давыдов Г.А. Монеты рассказывает.-М., 1963.

IV BOB. TOPONIMIKA ASOSLARI

1. Toponimika. Fanning maqsad va vazifalari

Har qanday geografik ob'ektning (daryo, jilg'a, cho'qqi, tog', jar, soylik, shahar, qishloq va hokazolarning) o'z nomi bor. Bu nomlar turli zamonlarda kishilar tomonidan berilgan bo'lib, muayyan ma'noni anglatadi. Lekin ba'zan ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan nomlar ham uchraydi. Ular qadimiy xalqlar tomonidan qo'yilgan, biz hali tushunib etmagan yoki talaffuzi butunlay o'zgarib ketgan nomlardir.

Joy nomlari, ya'ni toponimlarning qachon va qanday paydo bo'lganini, etimologiyasini (kelib chiqishini), ularni klassifikatsiya (tasnif) qilishni toponimika fani o'rganadi.

Toponimika grekcha ikki so'zdan, ya'ni topos – “joy” va onoma (yoki onima) – “nom” so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, joy nomlari to'g'risidagi fandır.

Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan geograflarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy ma'lumot beradi.

Xalqlar biror hududdan turli sabablarga ko'ra ko'chib ketishsa ham, daryolar ko'llar, shaharlarga ular bergan nomlar saqlanib qolgan. Toponimika xalqlarning qaysi millatga tegishli ekanini aniqlab beradi. Geografik nomlar kartaning eng muhim elementi bo'lib, biror mamlakat yoki o'lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Joyga nomni kishilar beradilar. har bir joyning bir necha xususiyati bo'lishi mumkin. Ana shu xususiyatlardan qaysi birini tanlash jamiyatning talabiga, uning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Xalqlar turli joylarga ko'chganlarida yangi yashash joylariga o'z nomlarini beradilar, ko'proq o'zlari oldin istiqomat qilgan joylarining nomini yangi yashash joylariga ham beradilar. Toponimlarning ana shu muhim xususiyatlaridan biri biri ularning takrorlanib turishidir. Bu holni biz AqSh shaharlarining Evropaning turli davlatlari shaharlari nomi bilan atalganligida ko'rishimiz mumkin. Masalan, AqShning birgina o'zida 8 ta Moskva, bir necha Odessa degan shahar va aholi maskanlari bor. Dunyoda 10 ga yaqin Samarqand bo'lganligi ma'lum. Zarafshon vodiysida bir necha Toshkent qishlog'i bo'lgan. Nomlar “ko'chib” yuradi.

O'zbekiston da takrorlanadigan nomlar juda ko'p. Ularning hammasini ham boshqalarga nisbat berib qo'yilgan nomlar deyish xato. Agar biror qishloq nomi ko'p erlarda uchrasa, u avvalo etnonim, ya'ni biror millat, urug', qabilaning nomi bo'ladi. Masalan, qo'ng'iroq, Mang'it,

Urganji, Mitan Arab nomli qishloqlar etnotoponimlardir. Atamalar ham joy nomlari tarkibida takror-takror uchraydi. Rabot, buloq, quduq, soy, suv, qum, tosh, gaza, tangi, qopchig'ay, tog', dahana, arna, tepa kabi atamalar ana shular jumlasidandir. Toponimlarning ana shunday takrorlanib turishi ularni tasniflab o'rganish ishini osonlashtiradi.

Joy nomlarini turlicha tasnif qilish mumkin. Agar toponimlarni etimologiyasi jihatdan tasnif qilsak, 1) etimologiyasi hammaga ravshan bo'lgan toponimlar (Uchquduq, Beshariq, Navoiy, Paxtakor va hokazolar); 2) ma'nosi etimologik tadqiqotlar yordamida ochib beriladigan toponimlar (Jizzax, Shopurkom, Buxoro, Norin va hokazolar); 3) mazmunini hozircha izohlab berish qiyin bo'lgan toponimlarga (Arsif, Zomin va hokazolar) ajratish mumkin.

Ko'pincha biron bir hududdagi barcha joy nomlarini ham toponimika deb ataydilar, chunonchi, O'zbekiston toponimikasi; keyingi vaqtlarda esa joy nomlari yig'indisini toponimi-ka fanidan farq qilish uchun toponimiya atamasini ko'proq ishlatmoqdalar.

Topo-nimika deganda joy nomlarini o'rganadigan fanni, toponimiya deganda esa geografik nomlar yig'indisini nazarda tutish kerak.

Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi; shunga ko'ra toponimika tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Biroq joy nomlari boshqa so'zlardan farq qiladi va muayyan hududda tarkib topadi va binobarin geografik qonuniyatlar hamda tushunchalarni (relef shakllari, o'simlik va hayvon nomlarini, qazilma boyliklarni) aks ettiradi; shunga ko'ra toponimika geografiyaning ajralmas qismidir. Geografik nomlar uzoq yashaydi, ulardagi tarixiy shaxs nomlari, har xil tarixiy voqealar, xalq-elat, urug' nomlari aks etgan bo'ladi, shu nuqtai nazardan qaraganda toponimika tarix fanlari jumlasiga kiradi.

2. Toponimlarning tasnifi va ularning bo'linishi

Kishilar joy nomlariga qadimdan qiziqib, anglatgan ma'nosi haqida fikr-mulohaza yuritganlar, turli afsona va rivoyatlar to'qiganlar. Lekin joy nomlarini ilmiy ravishda o'rganish, turli aspektda tasnif (klassifikatsiya) qilish nisbatan yaqin vaqtlardan, anqirog'i XIX asrdan boshlangan. o'tgan asrning 50-60-yillarda toponimika faniniig bir qancha nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda joy nomlarini tasnif qilishning yangi-yangi uslublari ishlab chiqilmoqda. Joy nomlari quyidagilarga: 1) toponim ifodalagan ob'ektning hajmiy xususiyatiga; 2) toponim qanday va qaysi tipdagi ob'ektning atoqli oti ekanligini anglatishiga, 3) toponim asosidagi so'zning ma'no va mazmuniga; 4) toponimning tarixiy jihatdan paydo

bo'lish davriga; 5) toponimga asos bo'lgan so'zning tarixan qaysi tilga mansubligiga; 6) toponimning grammatik strukturasi ko'ra tasnif qilinmoqda.

Toponimlar nom ifodalagan ob'ektning hajmiy xususiyatiga ko'ra ikkiga: makrotoponim va mikrotoponimlarga bo'linadi. Makrotoponimlarga (grekcha makro - katta) yirik obektlar qit'a, mamlakat, dengiz, daryo, respublika, viloyat, shaharlarning nomlari kiradi. Masalan, Evropa, Osiyo, Amerika, Orol dengizi, Amudaryo, O'zbekiston, Toshkent, qo'qon kabilar.

Dala, dasht, uchastka, mahalla, quduq, buloq, hovuz, jilg'a, gulzar singari mayda ob'ekt nomlari mikrotoponimlar (grekcha mikro — kichik) deb yuritiladi: qumdala, g'anidasht, Sho'rquduq, Gulhovuz, Toshbuloq, qaymoqligulzor, Yuqorimahalla singari.

Toponimlar qanday va qaysi tipdagi ob'ektning atoqli oti ekanligini anglatishi jihatidan bir necha turlarga bo'linadi:

1) oykonimlar, 2) polisonimlar, 3) oronimlar, 4) gidronimlar, 5) agroonimlar, b) dromonimlar.

Oykonimlar (grekcha — oykos-uy, turarjoy)ga qishloq, posyolka, ovul, mahalla, guzar nomlari kiradi: qumqishloq, Jarqishloq, qozoqovul, Soymahalla, Isfaraguzar kabi.

Polisonimlar (grekcha polis - shahar) shahar nomlarini yz ichiga oladi: Parij, Buxoro singari.

Oronimlar (grekcha - oros - tog') joy nomlari orasida alohida o'rin tutadi. Oronimlar tog', cho'qqi, tepa, qir, jar nomlarini o'z tarkibiga birlashtiradi. hisor, Olatov, Oqtepa, qizilqir, Yakkaqum va boshqalar.

Suv ob'ektlarining, chunonchi, dengiz, daryo, ko'l, soy, ariq, buloq, quduqlarning nomi gidronimlar (grekcha gidro - suv) deb ataladi: Orol dengizi, Sirdaryo, Achchiqko'l, Dahnasoy, Toshariq, Oydinbuloq, Jumanquduq kabilar.

Agroonimlar (grekcha agros - dala) er, dala, marza, uchastkalarining atoqli otlaridir: Sho'rdala, qumdala, Rayhonmarza, Zakash er va shu singarilar.

Dromonim (grekcha dromos - yo'l) larga erdagi, er ostidagi, tog'dagi, umuman, har qanday yo'lning nomi kiradi: Jiydayo'li, qumso'qmoq, Toshyo'lak kabi.

Toponimlarni ma'nosiga ko'ra tahlil etganda ular qanday so'zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish printsiplari belgilash muhim ahamiyatga egadir. Toponimlar toponim uchun asos bo'lgan so'zlarning ma'no va mazmuniga ko'ra tubandagi turlarga bo'linadi.

1. Etnotoponimlar. Urug', qabila, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan joy nomlari etnotoponimlar deb yuritiladi. Respublikamizda urug', qabila, millat nomlaridan olingan geografik nomlar juda ko'p. Turli joylarda uchrovchi Baliqchi, Do'rmon, Nayman, Mitan, qipchoq, qatag'on, Jaloyir, qurama, qang'li, Chimboy singari nomlar ana shular jumlasidandir. Bu xil joy nomlariga qarab, shu nomli qishloq yoki shaharlarda qadimda shunday qabilalar, urug'lar, xalqlar istiqomat qilgan, deb bemalol aytish mumkin.
2. Antropotoponimlar (grecha - antropos - odam). Kishi ismlari, laqablari, familiyalaridan vujudga kelgan joy nomlari antropotoponimlardir. Abdusamad, Rahmutullo, qurbonqashqar, Yusufqo'rg'oncha, o'rozmergan, Yo'ldoshobod singarilar bunga yorqin misoldir.
3. Fitotoponimlar. o'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan joy nomlari fitoponimlar (greyacha fitos — o'simlik) nomi bilan ataladi: Jiydaqishloq, Yakkatut, Olmaliq, Uzumzor, qamishqo'rg'on kabi.
4. Zootoponimlar. Zootoponimlarga (grekcha zoon - hayvon) hayvon, qush va shu kabi boshqa jonivorlarning nomlari bilan atalgan toponimlar kiradi. Kaptarxona, Otxona, Laylakuya, Bedanajoy, qashqaldoqko'l, Bulbulxona singari.
5. Kasb-hunar nomlari asosida yaratilgan toponimlar; Bo'rchilik, Misgarlik, Egarchilik, Degrezlik, Baxmalbop kabi toponimlari bunga misol bo'la oladi.

Toponimlarni toponim asosidagi so'z (appelyativ) ning ma'nosiga ko'ra turlarga bo'lish yuqorida aytilganlar bilan tugamaydi. Ularni yana davom ettirish mumkin.

3. Antropotoponimlar

Antroponimika bilan toponimika tarixiy jihatdan bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan. Ularning har ikkisi ham tildagi atoqli otlarni tekshiradi. Antroponimika kishi nomlarini, toponimika esa joy nomlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ba'zi antroponimlar toponimlarlar asosida vujudga keltani (Toshkanboy, qo'qonboy, qo'qonbek) kabi ko'plab toponimlar o'z navbatida kishii ismlari bazasida (Sultonqishloq, Yusufqo'rg'oncha, Yuldoshobod) yaratilgandir. Taniqli toponimist V.A. Nikonov takidlab o'tganidek, kishi atoqli otlarining geografik nomlarga aylanishi onomastikada keng tarqalgan lingvistik hodisalardandir.

Antroponimlar tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini tashkil etadi. Antroponimlar doirasiga kishi ism-shariflari, laqablar, familiyalar, taxalluslar kiradi. Mana shu antroponimlar doirasiga kiruvchi otlardan vujudga kelgan, ular asosida yaratilgan toponimlar antropotoponimlar deb yuritiladi.

Antropotoponimlar juda uzoq tarixiy davrning mahsulidir, ularning vujudga kelishi ancha qadimiydir. Bu turdagi toponimlar jamiyatda sinflarning paydo bo'lishi, quldorlik tuzumi yuzaga kelishi bilan yaratila boshlandi. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizmning shakllanishi bunday nomlarni yanada ko'paytirdi. Erniig har bir parchasi kimningdir xususiy mulki bo'lgan bir paytda, tabiiyki, uning egasining nomi asosiy farqlovchi belgiga aylandi. Joylar katta er egalari — feodallar, urug' va jamoat boshliqlari, mahalliy hukmdorlar, din homiylari nomi bilan ataladigan bo'ldi.

O'zbekiston toponimiyasida antropotoponimlar asosiy o'rinlardan birini egallaydi va toponimlarning ma'lum bir qatlamini tashkil etadi. To'plangan faktik materiallar shuni ko'rsatadiki, o'tmishda kishi atoqli otlarining joy nomiga aylanishi turli xil usullarda paydo bo'lgan. Ularning eng muhim tiplari quydagilardir:

1. Toponim faqat kishi ismining o'zi bilagina atalgan. Bunga ko'ra kishi ismi hech qanday qo'shimcha element qabul qilmasdan joy nomiga aylanadi. Misollar: Islom, Sulaymon (O'zbekiston tumani), Salim (quva tumani), Xudoyberdi, Sotiboldi (Paxtachi tumani) va boshqalar.

2. Toponim kishi ismi va unga qo'shib ko'llangan titul nomi bilan birga atalgan: Xudoyorxon, Mallaxon, Boboxo'ja, Botirboy, Shoyimbek (O'zbekiston tumani), Olimbek, Sulaymonbek, o'rmonbek (Baliqchi tumani), Tursunxo'ja (Kattaqo'rg'on tumani) kabilar.

Mazkur toponimlar ko'pincha shu toponim uchup asos bo'lgan shaxsning tarixda egallagan mavqeini eslatib turadi. Antropotoponimlar tarkibidagi shaxsniig ijtimoiy kelib chiqishidagi va ijtimoiy ahvolini ko'rsatib turuvchi xon, bek, boy, xo'ja so'zlari semantikasidan yuqori tabaqa vakillari ma'nosi yaqqol anglashiladi. hozirga o'zbek tilida mazkur so'zlar affiks snfatida erkalash, hurmat ma'nosini ifoda qiladi.

3. Toponim kishi ismi va laqab nomi asosida shakllangan bo'ladi. Ma'lumki, o'tmishda kishi ismlariga laqablar qo'shib aytish boshqa xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalqi o'rtasida ham keng tarqalgan. Buning ham o'ziga xos ko'p sabablari bo'lgan. Bir hududda yashovchi bir xil nomdagi beshta yoki o'nta kishini bir-biridan farqlash uchun laqab qo'yganlar. Demak, o'tmishda laqablar hozirgi ism-shariflarni bajaruvchi vazifaga yaqin funktsiyada ishlatilgan.

Laqab odamning turli belgilariga xulq-atvoriga, anatomik tuzilishiga, kasb-koriga, qaysi urug' va qabilaga mansubligiga va boshqa xususiyatlariga ko'ra berilgan. Laqab kishi ismi bilan birga yoki alohida qo'llanilan. Shuning uchun ham bazi geografik ob'ektlarga shaxs nomi bilan bir qatorda, u bilan yonma-yon keluvchi laqab ham asos bo'lgan. Bu

guruhlarga mansub bo'lgan antropotoponimlarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) ism va laqab: Karimdevona, hasanqora, Murodko'sa, Raimqulko'sa, Zokir polvonning eri, Ergash sariqning eri, Mamajon qorining eri, Xo'ja, hosilotning eri, Juma to'rtinchining eri, Tursun ajinaning eri va boshqalar;

2) ism va etnik nom: qurbonqashqar, qosimavg'on, Olimbaliqchi, Nियोzyobi kabilar;

3) ism va dnniy titul: Doniyorshayx, Rahimso'fi, Solimahsum, Valipirim, Poshshopirim va shu singarilar.

Ayrim antropotoponimlarda laqablarning kishi ismidan oldin kelishi hollari ham uchraydi. Bular quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi;

a) laqab va ism: Kaldushan, Ko'rnazar, qoraustaning bulog'i, Kalniyoz, Usta Bozor, Usta Ortiq, Usta Abdulla, Usta Shirin kabilar;

b) diniy titul va ism: Mulla Eshqul, Mulla Zoir, Mulla Boshmon, Xo'ja Abdujabbor, Xo'ja Murodbaxshi va boshqalar.

4. Toponim kishi ismi va u bilan birgalikda qo'llangan amal nomi bilan ifodalangan bo'ladi. o'tmishda mansab nomlari ko'pincha o'sha amal egasining nomiga qo'shi6 aytilar edi. Shunga ko'ra ko'plab joy nomlariga kishi ismi va mansab nomi atama bo'li6 qolgan. To'xlimergan; mergan so'zi qo'qon xonligida kichik harbiy lavozimni bildirgan; Do'stimbiy; biy - turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon. Biylar yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hukumatga itoat qilganlar. Xoldovonbek devonbegi - devon boshlig'i ma'nosidadir. o'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. qo'qon xonligida devonbegi biror viloyat hokimi 6o'lib, chetdan keladigan savdo karvonlaridan boj to'plagan. Xolmatdodho; dodho - qo'qon xonligi va Buxoro amirligida qal'a boshlig'i, qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldorni bildirgan; qo'qon xonligida bu mansab 10 kishiga berilar va ular amaldorlar ro'yxatida to'qqizinchi o'rinda (parvonachidan keyin, biydan oldin) turgan.

5. Antropotoponimlarning ma'lum bir qismi faqat laqabning o'zi bilan bog'lik holda vujudga kelgan. Ma'lumki, laqab yakka holda ham ishlatilishi mumkin. Masalan: Karmomabuloq (Karmomaning bulog'i), Afandiniig dashti, Ovsarnng tegirmoni, Miskar hovuzi va boshalar.

Shuni ham qayd etiqsh lozimki, laqab o'tmishda ba'zan butun bir qishloq, jamoa yoki mahalla aholisiga tegishli bo'lgan. Bu xil laqablar bora-bora to'p, urug' nomini ifodalovchi mikroetnonimlarga aylangan. Malum aholining bir xil laqab bilan yuritilishi ayrim toponimlarda o'z

aksini topgan. Barzangi, Karqishloq, Bo'zaxo'r, qalinpo'stin, Gurichfurosh, qamchifurosh kabilar.

6. Toponim kishi ismi bilan geografik atamaniig birikuvi orqali ifoda qilingan. Bu guruhga mansub bo'lgan antropotonimlar kishi ismlariga asosan qishloq, tepa, qo'rg'on, guzar, mahalla, ko'l, ariq, quduq, cho'l singari geografik joylar nomini qo'shish orqali yasalgan. Bularni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin: 1) kishi ismiQqishloq nomi: Sul-tonqishloq, hayitqishloq, g'aniqishloq; 2) kishi ismiQmahalla so'zi: Ashirmahalla, Rizomahalla; 3) kishi ismiQ qo'rg'oncha so'zi Yusufqo'rg'oncha, hasanqo'rg'oncha; 4) kishi ismi Qguzar so'zi: Risqulibek guzari, Teshaboyguzar; 5) kishi ismiQtepa, so'zi: Omontepa, Ismoiltepa; 6) kishi ismiQqo'rg'on so'zi: Obidchaqo'rg'on, Po'latqo'rg'on; 7) kishi ismiQsoy so'zi: Murodsoy; 8) kishi ismiQquduq so'zi: Olloyorquduq, Jumanquduq; 9) kishi ismiQariq so'zi: Musulmonqulariq, Saidaliariq; 10) kishi ismiQbuloq so'zi: Ahmadbuloq, Mavlonbuloq, Xoldorbuloq, Zokirbuloq, Bahrombuloq; 11) kishi ismiQko'l so'zi: Shamsiko'l, Mutalko'li, Usmonbuva ko'li; 12) kishi ismiQkent so'zi: Alimkent, Pirimkent; 13) kishi ismiQ“arna”, “yop” so'zlari (Xorazm shevasida arna - katta ariq, kanal yop - ariq ma'nosida ishlatiladi): qilichboyarna, Xonqaarna, Seyityop va boshqalar.

Kishi nomi bilan geografik atamaning birikuvidan tuzilgan antropotonimlarning imlosi quyidagicha bo'ladi: 1) kishi ismiQgeografik atama ko'rinishidagi qo'shma antropotonimlarning qismlari o'zaro qo'shib yoziladi: Olimto'qay, Mirzacho'l, Sul-tonhovuz singari; 2) geografik terminQkishi ismi tipidagi antropotonimlarning komponentlari ajratib yoziladi: Dasht hasan, Jo'yi Mahmud kabi.

7. Kishi ismi bilan chek so'zining birikuvidan tuzilgan antropotonimlar. Respublikamizning Farg'ona vodiysi hududida tarkibida chek so'zi bo'lgan toponimlar ancha ko'p uchraydi. o'tmishda chek deyilganda ko'pincha xon va ularning oila a'zolarining, amaldorlar, ruhoniylarning xususiy erlari tushunilgan. Bu xil xususiy erlarda tashkil topgan qishloq, mahallalar keyinchalik chek komponenti bilan yuritilib ketgan. 1909 yilda Skobelev (hozirgi Farg'ona)da nashr etilgan aholi punktlarining ro'yxatiga ko'ra qo'qon, Marg'ilon, Andijon, o'sh uездlarida 50 dan ortiq qishloq nomi tarkibida chek so'zining qo'llanganligini ko'ramiz. Bu nomlarning ko'pchiligi hozirgacha saqlanib qolgan. Andijon viloyatining Baliqchi rayonidagi Sheralichek, Usmoncheki, Namangan oblastining Uchqo'rg'on tumanidagi Yorqinboychek, Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi Madaminchek singari qishloq nomlari bunga yorqin misoldir.

8. Toponim kishi ismi bilan obod so'zining birikuvi orqali ifoda qilingan. Bu tip antropotoponimlarda - obod affiksoidi kishi ismlariga qo'shilib kelib - "farovon joy", "obod qishloq" ma'nolarini ifoda etadi: haqqulobod (Norin tumani), Yunusobod (Toshkent shahri) va boshqalar.

9. Toponim kishi ismiga "buva", "ota" komponentlaridan birining qo'shilishi asosida vujudga kelgan. Bunday nomlar xalqning diniy e'tiqodlari asosida yaratilgan bo'lib, qadamgoh joylarni, mozorlarni bildiradi. Mazkur turdagi toponimlar din homiylari, ruhoniylar, shayx va eshonlar, xo'ja, avliyolar nomlari bilan atalgan: Oxunbuva, g'oyibbuva (O'zbekiston tumani) kabilar.

Antropotoponimlar boshqa printsiplar asosida yaratilgan toponimlarga nisbatan o'zgaruvchan xarakterga egadir. Binobarin, aholining etnik tarkibiga, shug'ullanuvchi kasb-koriga, shuningdek ob'ektning tabiiy-geografik sharoitiga bog'liq holda vujudga kelgan toponimlar ancha turg'unlikka ega; kishi nomlari, laqablari asosida yaratilgan joy nomlari esa u qadar turg'unlikka ega emas. haqiqatan ham o'tmishda ma'lum hududdagi xususiy erlarning egasi bo'lgan bir feodalning o'rniga boshqa feodalning kelishi, etnik guruhning boshliqlari, jamoa xo'jayinlarining almashinishi, muhim siyosiy-iqtisodiy voqealarning yuz berishi, bir qishloqning ikkinchi bir qishloqqa qo'shilib ketishi va boshqa sabablar tufayli toponimlar o'zgarib turgan. Bu, ayniqsa, antropotoponimlar doirasida ko'proq kuzatilgan.

Shunday qilib, antropotoponimlar toponimik tizimda alohida bir guruhni tashkil etadi va muhim o'rinlardan birini egallaydi. Bu xil nomlar o'ziga xos bir qator xususiyatlari bilan boshqa tip toponimlardan ajralib turadi. Ularni o'rganish fan uchun lingvistik hamda tarixiy-etnografik jihatdan ahamiyatlidir.

4. Toponimika tarixidan

Geografik nomlar kishilarning e'tiborini qadim zamondanoq jalb qilib kelgan. "Tarix fani otasi" yunon olimi Gerodot o'z asarlarida mamlakatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma'nosini tushuntirib berishga harakat qilgan. Antik dunyo yozuvchilari joy nomlarining kelib chiqishini o'zlaricha izohlab berganlar.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimiyasi ham olimlar diqqatini qadim zamonlardan o'ziga tortgan. O'rta Osiyo, binobarin, O'zbekiston joy nomlari to'g'risidagi eng dastlabki ma'lumotlarni eramizdan avvalgi VI-V asrlarda ijod etgan olimlar asarlarida uchratamiz.

Masalan, yunon olimlari Amudaryoni Oks yoki Oksus deb ataganlar. Olimlar ana shu Oks qadimiy turkiy o'guz yoki o'kiz "daryo" so'zining o'zginasi ekanligini aniqladilar.

O'zbekiston dagi joy nomlari qadimiy turkiy runik yozuvlarda ham qayd qilingan. Masalan, qultegin sharafiga bitilgan yodgorlikda Yenchu va Temirqapig' toponimlari tilga olinadi. Olimlar (I. Markvart, V.V. Bartold, S.E. Malov, S.G. Klyashtorniy) Yenchu yoki Yenchu-o'quz Sirdaryoning qadimiy turkiy nomi bo'lib, "Mapvarid" yoki "Marvarid daryosi" degan ma'noni bildirishini, Temirqapig' esa Surxondaryo viloyatidagi hozirgi Temirdarvoza (yoki Buzg'alaxona) darasi ekanligini aniqladilar. Shu munosabat bilan bir fikrni bayon etish mumkin: Jizzax shahri yaqinida Molguzar tog'ining Temurlang darvozasi degan tor darasi bor. Bu dapa xalqda Ilono'tti (Jilono'tti) deb ataladi. Temur darvozasi nomi ruscha adabiyot ta'sirida keyinchalik paydo bo'lgan, qadimda esa bu dara Temirqapig' (Temirdarvoza) deb atalgan. Bunday deyishga asos shuki, bordi-yu, bu tangi (dara) haqiqatan ham Temur nomiga qo'yilgan bo'lsa edi, u holda dara Amir Temur darasi deb atalgan bo'lar edi, chunki Temur xalq orasida Amir Temur nomi bilan mashhur bo'lgan.

Chunonchi, Janubiy O'zbekiston da Amir Temur g'ori, Buxoro viloyatida Eski Amir Temur kanali fikrimizning isboti bo'la oladi. Ikkinchidan, har qanday tor dara, qisiq, tog' yo'li, tangini xalq hamma joyda Temir darvoza (tojikchada Dar-i Ohanin, arabchada Bob-il Xadid, ruschada Jelezno'e Vorota) deb ataydi.

O'rta Osiyo ni arablar bosib olganidan so'ng yangi hududlar to'g'risida har xil "soliqnomalar", "yo'lnomalar" paydo bo'ladiki, bu qo'llanmalarda o'lkalar, shahar-qishloqlar, yomlar (pochta stantsiyalari), bir punkt bilan ikkinchi punkt orasi qancha yo'l ekanligi, yo'l sharoiti ko'rsatib qo'yilar edi.

IX-XI asrlardagi arab geograflari (ibn Xordadbex, al-Yoqubiy, qudama ibn Ja'far, ibn Rusta, Istahriy, Muqaddasiy, al-Mas'udiy) O'rta Osiyo toponimiyasi to'g'risida boy material qoldirganlar. Akademik V.V. Bartold arab geograflari Turkiston haqida o'sha davrda shu qadar mukammal ma'lumot berganlarki, bundan oldingi davrda ham va bundan keyingi davrda ham bunchalik mufassal ma'lumot topa olmaymiz deb yozgan edi.

XIII asrda yashagan arab geografi Yoqut hamaviyni o'sha davrning haqiqiy toponimisti desa bo'ladi. Yoqut musulmon mamlakatlaridagi barcha shaharlar va muhimroq qishloqlarga ta'rif beradi; joy nomlarining to'g'ri talaffuzini va etimologiyasini aniqlashga urinadi; toponimika uchun eng muhimi shuki, Yoqut geografik nomlarni o'xshash komponentlarga

(tarkibiy qismlariga), ya'ni toponimlariga qarab klassifikatsiya qiladi. Masalan, obod so'zi shahar, qishloq va rustoqlar nomlari tarkibida ko'p uchraydi, obod forscha bo'lib, "o'zlashtirilgan, obod qilingan joy" degan ma'noni bildiradi deydi va shu so'zdan tarkib topgan nomlarni sanab ko'rsatadi. Yoqut, shuningdek kird (jird), dasht, deh, kos (kot) kabi atamalarga ham izoh beradi va ulardan tuzilgan nomlardan namunalar keltiradi.

Arab geograflari deganda shu narsani unutmaslik kerakki, o'sha davrda O'rta Osiyo lik olimlar ham arab tilida ijod qilganlar. Buyuk ajdodlarimizdan Narshaxiy, Beruniy, Mahmud qoshg'ariy asarlari toponimika uchun katta ahamiyatga ega. O'zbekiston da Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara kabi joy nomlarini hosil qiladigan vaxsh so'zi qadimgi Xorazmda suv, jumladan Jayhun muakkili hisoblangan malak — Vaxsh nomidan kelib chiqqanligini olimlar Abu Rayhon Beruniyning "Al asorul boqiya an-il qurunil xoliya" asaridan bilib oldilar. Bundan bexabar ba'zi toponimistlar Vaxsh "vahshiy, asov" degan ma'noni bildiradi deb kelishar edi.

X asrda yashab ijod etgan buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoro atrofidagi shahar va qishloq nomlarining kelib chiqishi bilan qiziqdi. Masalan, hozirgi Shofirkon qishlog'i nomining paydo bo'lish tarixi mana bunday ekan: Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisro (Xisrov) farzandlaridan biri Buxoroga kelib ariq qaziydi va qishloq barpo etadi. Bu joy o'sha shahzoda laqabi bilan Shopurkom deb nom oladi. Shopur «shoh o'g'li» demakdir; kom esa Buxoroda katta ariqni, kanalni bildirgan.

Eng muhimi shuki, X-XI asrlarda ham bo'lgan va Narshaxiy qayd qilgan shahar va qishloqlar hamon mavjud (Buxoro, Karmana, Miyonkol, Hyp—Nurota, Romitan, Shofirkon, qorakul va hokazo).

Toponimika uchun muhim bo'lgan asarlardan yana biri Mahmud qoshg'ariyning "Devonu lug'ot-it turk" qomusidir. "Devon"da 200 ga yaqin toponim va qancha-qancha kishi ismlari tilga olingan. Bu toponimlarning ko'pchiligi qadimiy turkiy tilga oiddir. Azig', Badalart, Baqirliq', Beshbaliq, Ikio'kuz kabi joy nomlarini hozir hamma kitobxon ham tushunavermaydi. holbuki, azig' - ayiq, art - dovon, baqir - mis, baliq - shahar, o'kuz - daryo demakdir. "Devon"dan geo-grafik nomlarning ma'nosini tushuntirib beradigan bunday qadimiy atamalarni ko'plab topsa bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si ham toponimika uchun qimmatli asardir. Bu asarda mingdan ortiq mamlakat, o'lka, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, kechik, daryo va soy, qishloq (qishlov), yayloq

(yaylov), avloq (ov joyi) nomlari keltirilgan. “Boburnoma”da O‘zbekiston ga oid toponimlar ham ko‘p. Bobur bir qancha joy nomlarining kelib chiqishini aytib o‘tadi-ki, bularning aksari qismi o‘rinlidir. Lekin qarshi shahri nomi asarda mo‘g‘ulcha “go‘rxona”, ya‘ni mozor deb izohlangan, to‘g‘risi “saroy, qasr” bo‘lishi kerak edi.

Bobur sanab o‘tgan kishi ismlari, urug‘ nomlari, geografik terminlar, hayvon va o‘simlik nomlari ham toponimist e‘tiboridan chetda qolmasligi kerak. Akademik V.V. Bartold O‘rta Osiyo tadqiqotchisi asarlarning kamligidan, etishmasligidan emas, balki ko‘pligidan va tarqoqligidan qiynaladi degan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda O‘rta Osiyo toponimikasiga doir manbalar shu qadar ko‘pki, ularni sanab o‘tish uchun ham qancha-qancha vaqt kerak. Bulardan X asrda noma‘lum muallif tomonidan fors-tojik tilida yozilgan “hudud-ul olam”, Abylg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, hofiz Tanishning “Abdullanoma” va boshqa asarlardan toponimlarning etimologiyasi, tarixi, joy nomlarining o‘zgarib turishi haqida ko‘plab ma‘lumot olish mumkin.

Bu asarlarda joy nomlarining ma‘nosini tushuntirib berishga harakat qilingan, xolos. Biroq geografik nomlarni ularning kelib chiqishi va tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganish, ularni klassifikatsiya qilish nisbatan yaqin vaqtlardagina boshlandi. Bu sohada A.X. Vostokovning xizmati katta.

U o‘tgan asrdayoq Rossiya daryo nomlarini oxirgi qo‘shimchalariga qarab gruppalariga bo‘ldi va bu qo‘shimchalar hozir biron ma‘noni ajratmasa ham, qadimgi xalqlar tilida qandaydir ma‘noni bildirgan bo‘lsa kerak, deb to‘g‘ri xulosaga keldi. A.X. Vostokovning fikri XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi ba‘zi bir toponimistlarning asarlarida o‘z rivojini topdi (A.F. Orlov).

Sovet tuzumi davrida toponimik tadqiqotlar ancha keng quloch otdi. Ikkinchi jahon urushidan oldingi davrda akademiklardan A.I. Sobolevskiy, N.Ya. Marr, S.B. Veselovskiy, V.V. Bartold, professorlardan V.P. Semenov-Tyanshanskiy, V. G. Shostakovich toponimika sohasida ayniqsa samarali ishlar qildilar. O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston toponimiyasini o‘rganish sohasida V.V. Bartoldning xizmatlarini alohida qayd qilib o‘tish kerak.

Urushdan keyingi yillar sovet toponimikasi taraqqiyotida katta burilish davri bo‘ldi. Endilikda toponimika sohasida ayrim olimlarga emas, balki butun-butun olimlar jamoasi ish olib borishdi. Tomskda toponimistlarga professor A.P. Dulzon, Sverdlovskda A.K. Matveev, Chernovtsida Yu.A. Karpenko, Kievda K.K. Tseluyko rahbarlik qildi.

Sobiq Itiifoqda toponimikaning nazariy masalalari ishlab chiqildi. Bu sohada A.P. Dulzon, E.M. Murzaev, A.II. Popov, V.A. Nikonov, V.N. Toporov, O.N. Trubachev, B.A. Serebrennikov, Yu.A. Karpenko, A.K. Matveev, E.M. Pospelov, V. A. Juchkevich, A. V. Superanskaya kabi olimlar samarali ish olib borishgan.

Rus va sovet sharqshunoslari hamda tarixchilarining O'zbekiston toponimikasini o'rganishdagi xizmatlari katta (N.F. Sitnyakovskiy, V.L. Vyatkin, L. N. Sobolev, M. M. Virskiy, V. V. Bartold, S. P. Tolstov, A. A. Semyonov, P. P. Ivanov, I. I. Umnyakov, M. E. Masson, O. A. Suxareva, O. D. Chexovich va boshqalar).

Respublika joy nomlarining kelib chiqish tarixini, etnonimlarni hamda geografik atamalarni o'rganishda o'zbek olimlari ulkan hissa qo'shdilar. Bu sohada tarixchilardan Ya.F. g'ulomov, V.N. Nabiev, M.A. Abduraimov, A.R. Muhammadjonov, tilshunoslardan F.A. Abdullaev (Xorazm toponimikasi), S.I. Ibrohimov (O'zbekiston da birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan), h.T. Zarifov, X. Doniyorov (etnonimlar), R.qo'ng'irov (Zarafshon toponimikasi), geograflardan h.h. hasanov kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovordir.

Toponimika sohasida, chunonchi T. Nafasov qashqadaryo toponimikasi, Sh. qodirova Toshkent mikrotoponimikasi sohasida tadqiqotlar olib borishgan.

qo'shni respublikalarda ham toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. qozog'istonda g'. qonqashpaev, A. Abdurahmonov, E. qo'ychiboev, qirg'izistonda S. Umurzoqov, Tojikistonda A.L. Xromov, A. g'afurov, Turkmanistonda Sh. Otaniyozov va boshqalar bu sohada kattagina ilmiy ishlar chop ettirishgan.

5. Toponimika va tilshunoslik

Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi.

Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan - tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatiga ko'ra, toponimlar yasashda muayan turdosh ismlar (apelyativlar)gina ishtirok eta olishida o'z aksini topadi.

Toponimlarni yasashda shu til uchun xarakterli bo'lgan lingivistik vositalardan (modellardan) foydalaniladi. Lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'ladi, ya'ni muayan suffikslar (affikslar) va so'zlar faqat yoki aksari toponimlar yaratishga ixtisoslashib qoladi.

Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarning keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug'at tarkibida, so'zlarning dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarni bilib olishimiz mumkin.

Masalan, hozirgi Nurota nomini ba'zi birovlar mo'g'ulcha nuru va o'zbekcha tov so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, har ikkala so'z ham tog' degan ma'noni bildiradi deyдилar. holbuki, bu nom bundan 1000 yildan ham ko'ppoq oldin qayd qilingan: Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" degan asarida (934-944 yillarda yozilgan) Nurota degan joy nomini tilga oladi: Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar, - deb yozadi Narshaxiy. Nuri Buxoro, ya'ni Buxoro Nuridan boshqa Nurlar ham bo'lgan. Masalan, Zarafshonning ikkita tarmog'i - qoradaryo bilan Oqdaryo oralig'idagi Miyonkol orolida ham Hyp degan qishloq bo'lgan. Uni boshqalardan farq qilish uchun Nuri Miyonkol deb atashgan.

Shunday qilib, Hyp bora-bora Nurota bo'lib ketgan: nur so'zi (arabcha) "yorug'lik", ota esa geografik nomlar tarkibida "aziz-avliyolarning qadamjosi" degan ma'noni bildiradi.

Samarqand shahri Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) yilnomalarida Marokanda, so'g'd yozuvlarida Smarakans, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobir, Mirxond (XV asr), Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Ryui Gondales de Klavixo (XV asr) asarlarida Semizkend, Chingizxon haqidagi mo'g'ul hikoyasida Semizgen kabi bir qancha variantlarda uchraydiki, bularning hammasi Samarqand nomi juda qadimiy ekanligini va uning kelib chiqishi (etimologiyasi) hamon uzil-kesil hal bo'lmaganligini ko'rsatadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Toponimikaning tilshunoslik, til tarixi va dialektologiya uchun ahamiyati juda katta va xilma-xil. O'zbekiston toponimiyasida ko'plik kategoriyasi masalasi tilshunosligimizning muhim masalasidandir.

Nemis tilshunosi V. Shperberg, sovet toponimisti V.A. Nikonov tadqiqotlari roman va slavyan toponimlarida ko'plik shakli juda keng tarqalganligini ko'rsatadi. haqiqatan ham rus toponimlarida ko'plik affiksi ko'plab ishlatiladi. Masalan, ko'prik so'zining bir o'zi o'zbek tilida hech vaqt toponimga aylanmaydi, buning uchun ko'prik so'ziga biron sifat qo'shilishi kerak, chunonchi Beshko'prik, g'ishtko'prik, Taxtako'prik, Ko'prikboshi va hokazo.

Rus tilida esa most (ko'prik) so'ziga ko'plik qo'shimchasi qo'shilsa bas, Mosto' shaklida toponim yasaladi. Bunda ko'prikning ko'p bo'lishi shart emas; Mosto' toponimi o'zbekcha ko'prikli ma'nosini beradi. qarshi, Mari kabi joy nomlarini ham ruslar ko'plik shaklidagi so'zlar kabi tushunadilar va shunday turlaydilar. Bularning hammasi rus tilining xususiyatidan kelib chiqadi: rus tili-da ko'pgina so'zlar faqat ko'plik shaklida ishlatiladi (chaso', nojnitso' va boshqalar).

Turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida toponimlarda ko'plik qo'shimchalari u qadar keng tarqalgan emas, o'zbek toponimlari tarkibida bir necha ko'plik affiksini uchratish mumkin.

- lar affiksi

Professor A.g'. g'ulomov bu affiksni so'z yasovchi morfemalar qatoriga kiritmaydi. Bu qo'shimcha noma'lum ko'plikni, hurmatni, biron fikrni ta'kidlashni, mavhum tushunchani konkretlashtirishni, umumiylikni, takrori bildiradi. Mazkur affiks Oylarxon, qizlaroy kabi kishi ismlari tarkibida ham uchraydi va bu o'rinda ism yasash funktsiyasinigina o'taydi va so'z mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Biroq toponimiyada tamoman boshqa manzarani ko'ramiz: -lar affiksi ko'plab toponim yasaydigan topoformant hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, -lar affiksi faqat kishilar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar yasaydi: Arablar, Beklar, Boylar, Zargarlar, Moxovlar, Shayxlar va hokazo. 1959 yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, Xorazm viloyatidagi 720 ta aholi punktidan 80 dan ortig'i -lar qo'shimchasi bilan tugaydi. Shunisi qiziqki, bu nomlar orasida Ko'paklar, Shag'allar, Echkilar, qarg'alar kabi toponimlar uchraydi.

Bunday qaraganda, bu toponimlar hayvon nomlaridan tarkib topganga o'xshaydi. Aslida esa shunday emas: ko'pak, shag'al (chiyabo'ri), echki, qapg'a degan ypyg' nomlari bor. hali zikr etilgan toponimlar ana shu urug'lar nomi bilan atalgan. Masalan, qarg'alar "qapg'a urug'idan bo'lgan kishilar yashaydigan joy" demakdir.

- on affiksi

Bu tojikcha affiks O'zbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir sotsial guruhga, chunonchi:

- 1) muayyan millatga - Arabon (arablar), qirg'izon (qirg'izlar), o'zbekon (o'zbeklar);
- 2) qandaydir urug'-aymoqqa - Mang'iton (mang'itlar), Mingon (ming urug'idan bo'lgan kishilar);
- 3) ma'lum tabaqaga - Mirzoyon (kotiblar), Tarxonon (oliq-soliqdan ozod qilinganlar);

4) hunar-kasbga - Bo'yrafofon (bo'ya to'quvchilar), Kosagaron (kosa ustalari), So'zangaron (igna ustalari);

5) diniy e'tiqodga mansub ekanligini bildiradi: Mo'g'on, Mo'g'iyon (otashparastlar), hinduyon (hindular) va hokazo.

Toponimist A.L. Xromov (Dushanba) fikricha, -o'n (on) affiksi Matcha (Mastchoh) shevalarida, shuningdek barcha tojik shevalarida kam ishlatiladi; shu affiksli toponimlar ancha qadimiy hisoblanadi; hozirgi vaqtda -on o'rniga ko'proq -o (-ho) ko'plik qo'shimchasi qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida esa, -ho (o) ko'plik affiksi toponimlar tarkibida nihoyatda kam uchraydi va bo'lsa ham, toponimning asosiy tarkibiy qismi bilan shu qadar qo'shilishib, birlashib ketganki, aksari uni payqab olish ham qiyin bo'ladi.

- ot (t) affiksi

Toponim yasovchi bu affiks ikki xil yul bilan paydo bo'lgan: biri arabcha bo'lsa, ikkinchisi so'g'diychadir. Bundan tashqari, -t qadimgi turkiy tilda va mo'g'ul tilida ham ko'plik o'rnida keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur birgina toponimni ikki shaklda yozgan: Badaxshon - Badaxshonot, Lamg'on - Lamg'onot, Xuroson - Xurosonot, hinduston - hindustonot.

6. Toponimika va geografiya

Toponimika geografiya uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Toponim-geografik ob'ektning aniq manzilidir. Nomlar joyning geografik o'rnini aniqlash uchun ham, geografik tkshknchalarni ifoda etish uchun ham zarurdir. Geografik kartada keltirilgan oy va xilma-xil ma'lumotlar orasida nomlar alohida o'rin tutadi. Geografik ob'ektlar shu qadar ko'p va xilma-xilki, ularni ifoda etish uchun maxsus so'zlar, ya'ni nomlar bo'lishi kerak.

Geografik nomlarni geografiyaning o'ziga xos tili desa bo'ladi. Geografik nomlar muayyan geografik tushunchalarni ifoda etar ekan, bir qancha xollarda geografik atamaga aylanib qoladi. Masalan, yonar tog'larni ifoda etuvchi vulkan atamasi Italiyadagi Vulkano tog'i nomidan olingan. Toponimlar biron geografik tushunchani ifoda etadi, shuning uchun geografiyani bilmasdan turib joy nomlarini o'rganish ko'pincha katta ilmiy xatolarga olib kelishi mumkin. Joy nomlarida geografik muhitning xususiyatlari: relief shakllari, o'simlik va hayvon nomlari aks etgan bo'ladi. Shu bilan birgalikda joylarga nom berishning o'ziga xos bir xususiyati bor. Masalan, o'rmonni rayonlarda "o'rmon" so'zidan tarkib topgan joy nomlari, tog'li o'lkalarda "tog'" so'zidan tuzilgan toponimlar u

qadar ko'p emas; bo'lsa ham, ular ko'pincha qo'shni xududlarda yashaydigan xalqlar tomonidan berilgan nomlardir.

Toponimikada nisbiy negativlik deb ataladigan bu qonunning asosiy sababi shundaki, hamma yoq cho'l bo'lgan joylarda cho'l kishi e'tiborini tormaydi; kishilar nom qo'yish uchun boshqalardan qandaydir farq qilib turadigan tabiiy geografik ob'ekt qidiradilar. Shuning uchun ham cho'llarda quduqlar, ayrim qirlar nomlari ko'proq uchraydi. Chunki, bu quduq va qirlar yo'lovchilar hamda cho'ponlar uchun orientir, o'tloq va suvloq bo'lib xizmat qilgan.

Tog'lar to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Tog'lar orasida yashaydigan kishilar tog' so'ziga nisbatan tosh so'zini ko'proq ishlatadilar. Masalan, tog'li erda "Tog' tepasiga chiqib ketdi" deyish o'rniga "toshga chiqib ketdi" deyishadi. Yana Ayritosh, qoratosh, Oqtosh deganda ko'pincha qandaydir ayrim tog'lar nazarda tutiladi. Ural va Sibir tog'larida ham xalq tog' cho'qqilarini kamen; (tosh) deb ataydi. Tog' piyozini ko'pincha toshpiyoz, tog' hayvonlaridan kaklik va suvsarni ruslarning kamennaya kuropatka, kamennaya kunitsa deb atashlarining sababi ham shu bo'lsa kerak.

Shunday bo'lsa ham, geografik nomlarda geografik qonuniyatlarini aks etganiga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Demak, joy nomlari tasodifiy paydo bo'lmaydi; aksincha, Eshakxangraganqir, qo'yqirilganqala kabi tasodifiy nomlar kamdan-kam uchraydi. Binobarin, toponimlarning askari qismi ma'naviy jihatdan tabiat xodisalarini aks ettiradi.

Xalq biron tabiat hodisalarini geografik atama bilan ifoda etadi va, binobarin, geografik nomlar tarkibida geografik atama juda ko'p uchraydi. Bunday atamalar toponimiya negizi, ya'ni murakkab geografik nomlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq geografik atamalarni bilmasdan turib joy nomlari etimologiyasini to'g'ri aniqlab bo'lmaydi.

Geografik atama (tog', cho'l, ko'l, qishloq va hokazo) hali geografik nom emas, balki turdosh ot bo'lib, muayyan umumiy yoki xususiy geografik tushunchani bildiradi. Biroq har qanday geografik atama atoqli otga, ya'ni geografik nomga aylanishi mumkin.

Geografik atamalar shuningdek o'simlik va hayvon nomlarini biron qo'shimchasiz yoki aniqlovchisiz toponimga aylanmaydi. Masalan, O'zbekiston da 5000 ga yaqin quduq bor; har bir quduqning o'z nomi bor. Bunda quduq so'zi yonida biron kishining ismi yoki aniqlovchi so'z (chuqur, katta, uch to'rt va h.k.) yo bo'lmasa -cha, -li kabi qo'shimchalar bo'ladi. Agar bordiyu quduq, Cho'kdi, Ariq, Yantoq, qulon kabi bir atama yoki birgina o'simlik yoinki, hayvon nomidan iborat toponim uchraydigan bo'lsa, u holda bunday toponimni izohlashda juda ehtiyot bo'lish kerak;

chunki hech qanday tarkibiy qo'shimchasi birgina so'zdan iborat toponim uzoq, talaffuz davomida butunlay o'zgarib ketgan va boshqa bir ma'noni anglatadigan nom bo'lishi yoki toponimning qisqartirilgan varianti bo'lib chiqishi mumkin. Masalan, Toshkentdagi Zaxarikni ko'pincha Zax deyishadi. Tevarak-atrofdagi boshqa xuddi shunday ob'ekt bo'lmaganda ham ba'zan qo'shimchasiz atamaning bir o'zi toponimga aylanadi. Chunonchi, quduqqa borib kelaylik deyishadi.

Toponimlar tarkibiga adir, ariq, bel, buloq, dovon, jar, ko'l, tog', cho'l, qum kabi hammaga ma'lum atamalar bilan birgalikda arna, aqba, buqtar, gaza, dayravot, jol (el), jona-yona (qiya), juna, zayak, zov, kam, kom (ariq), qamar, novur saqo, sang'aloq, supa, tomchi, tangi, tarma, tula tuz, chalka chag'at, chem, sharil, shiber (botqoqlik), shirdon, quton, firmoy (xirmon) kabi kichik bir territoriyadagina saqlanib qolgan atamalar ham ko'p uchraydi. har bir atamaning o'z ma'nosi bor. Mana aqba (aqaba) arabcha so'z bo'lib, O'rta Osiyo da "dovon" ma'nosida keladi. IX-X asrlardagi arab tilida yozgan geograflarning asarlarida aqba (ko'pligi aqabot) atamasi ko'p ishlatilgan. Bu atama X asrda fors tilida yozilgan "hudud-ul olam" va "Tarixi Tabari" asarlarida ham uchraydi. Tojikiston bilan O'zbekiston tog'li joylarida, ayniqsa, Pomir, hisor, Zarafshon tog'laridagi o'nlarcha toponimlar, xususan dovon nomlari tarkibida aqba so'zi uchraydi. Bu atama O'rta Osiyo ning turli joylarida aqba, ag'ba shakllarida turli ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, Samarqand viloyatining ba'zi joylarida dovonga chiqiladigan tik yo'lni ovga deyishadi. Bu misollar geografiyani yaxshi bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish ishonchli natijalar bermasligini ko'rsatadi.

7. Toponimika va tarix

Geografik nomlar uzoq davrlar yashay olganidan tarix uchun juda katta ahamiyatga ega. Damashq shahrining shu nom bilan atalganiga uch ming yil bo'ldi. Uni dunyodagi eng keksa nom deb bo'lmaydi. Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi toponimlar ham juda qadimiy nomlardandir. Shuning uchun ham ularning kelib chiqishi xamon uzil-kesil hal bo'lgan emas. qancha-qancha nomlar yozuv paydo bo'lmasdan oldingi davrlardan qolgandir. Xalqlar yo'q bo'lib ketgan, tili unutilgan bo'lishi mumkin, lekin geografik nomlar saqlanib qoladi. Nom qo'yilishiga sabab bo'lgan o'simlik bitmaydigan, hayvon esa qirilib ketgan bo'lsa ham, nom yashayveradi. Rossiyalik professor A.P. Dulzon Sibir gidronimlarini tahlil qilib qadimda ket xalqi yashagan territoriya juda keng bo'lganini aniqladi. hozir esa Sibirda, xususan Ob daryosi yoqasida hammasi bo'lib, 500 ming

kishiga yaqin ket qolgan; toponimik ma'lumotlar bir vaqtlar ketlar juda ko'p sonli xalq bo'lganini ko'rsatdi.

Toponimning muqim yashashiga asosiy sabab shuki, toponimga aylangan so'zning toponimga aylanmasdan oldingi ma'nosi to'g'risida kishilar ko'pincha o'ylab ham o'tirmaydilar. Shunday qilib so'z biron ob'ektning nomigina bo'lib qoladi.

Bordi-yu bu toponimni sinchiklab tekshirsangiz, hatto mikrotoponim deb ataladigan kichik ob'ekt nomi ham aksari muhim bir tarixiy voqeani o'zida mujassamlashtirgan "makroguvoh" bo'lib chiqishi mumkin.

Erga bo'lgan xususiy mulkchilik, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mayda er egaligi toponimiyada sezilarli iz qoldirgan.

Misollarga murojaat qilaylik. 1909 yilda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida nashr etilgan ro'yxatga ko'ra qo'qon va Marg'ilon uездlarida, shuningdek Andijan va o'sh uездlarida chek so'zini 50 dan ortiq qishloq nomi tarkibida ko'ramiz. Andijon oblastida va xususan Farg'ona oblastida chek so'zidan tarkib topgan joy nomlari ham anchagina uchraydi.

Andijon tumanida Obtobachichek degan qishloq bor. Bu nom Xudoyorxon davridan qolgan. Abdurahmon ismli bola (Musulmonqulning o'g'li) xonning qo'liga suv quyuvchi-obtobachi bo'lgan. Xudoyorxon Abdurahmon obtobachiga bir necha yuz tanob erni chek qilib kelgan. Abdurahmon obtobachining eri Chek obtobachi deb atalgan, keyinchalik Obtobachichek bo'lib ketgan. Bundan tashqari Farg'ona vodiysida Alibekchek, Bobochek, Isoavliyochek, Muhammad Aminchek, Nasriddinbekchek kabi erlar bo'lgan. Keyinchalik bu erlardan qishloqlar bunyod etilga. Xo'sh chek er olgan bu kishilar kimlar bo'lgan? Bularning hammasi tarixiy shaxslardir. Chunonchi Muhammad Amin va Nasriddinbek Xudoyorxonning o'g'illari bo'lgan. Isoavliyo esa xonning eng asosiy kishisi va maslahatchisi hisoblangan.

Chek so'zining o'zi nima? Chek degan da xon va oila a'zolarining, amaldor, ruhoniylar va mashhur shaxslarning, umuman har qanday kishilarning xususiy erlari tushunilgan. Shu bilan birgalikda Farg'ona vodiysida chek so'zi muayyan er o'lchovi ham hisoblangan. Bu nomar tarkibida esa chek termini toponim yasovchi formant bo'lib, feodalizm er egaligidan darak berib turadi.

Toponimlarda turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslarning ismlari, ko'chib yurgan urug' nomlari aks etgan bo'ladi. Buxoro oblastida Abumuslim degan tepalik bor. Bu tepalik kimning nomi bilan atalgan ekan? Abumuslim 747-749 yillarda arab xalifaligining sharqiy qismida -

Movarounnahr bilan Xurosonda ummoviylar xukmronligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qilgan. Uning asl ismi Abdurahmon ibn Asad bo'lib, Abumuslim uning laqabidir. Bu tepalik VIII asr o'rtalarida Buxoroning hozirgi qiziltepa qishlog'i yaqinida Abumuslim qurdirgan istehkomning xarobasidir. Xarobo Abumuslim kanalining bosh tomonidadir. Bu kanalni buxoroliklar Jo'yi Abumuslim deb ataydilar. Kanal Zarafshondan boshlangan.

Turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy terminlar ham toponimiyada iz qoldirgan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi davrida is'temolda bo'lgan kutval yoki katavul (komendant), otaliq (eng katta amaldor-vazir), naqib (harbiy mansabdor), to'qsoba (oliy harbiy mansab), chandovul (qo'shinning eng orti), shig'ovul (elchini boshlab yuruvchi) kabi terminlarni hozir hamma ham bilavermaydi, lekin ular toponimlar shaklida saqlanib qolgan.

Toponimiyaga qarab qaerlarda qaysi o'zbek urug'lari yashaganini bilib olish mumkin. Masalan, O'zbekiston da Jaloyir degan bir qancha qishloq bor. Ohangaron havzasi hamda Xo'jand atroflarida XIII asr boshidan to 1375 yilgacha Jaloyir qabilasi yashagan. o'sha yili qattiq qarshilik ko'rsatgani uchun Amir Temur Jaloyirlar sarkardasini qatl ettiradi va jaloyirlarni turli tomonlarga ko'chirib yuboradi.

Ana shu davrdan boshlab chinakam jaloyirlardan tashqari ularning qo'l ostidagi bir qancha etnik guruppalar ham jaloyirlar deb atala boshlaydi. hozirgi Jaloyir qishloqlarining tarifi ana shunday. Shunday qilib, toponimlar har doim ham biror tarixiy sharoit taqazosi bilan dunyoga keladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimika fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Toponimika qanday turlarga bo'lib o'rganiladi?
3. Antropotoponimlarning xususiyatli jihatlari va ularning yasalishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Toponimikaning tarix, geografiya va tilshunoslik bilan bog'liq tomonlarini aniqlang.
5. O'rta Osiyo tarixiy toponimiyasiga doir ma'lumotlar mavjud manbalar haqida ma'ruza tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Bo'rieva X. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri-XX asr boshlari).-T.: Noshirlik yog'dusi. 2009.
2. Веселовский С.Б. Топонимика на службе у истории.-М., 1945.

3. Жучкевич В.А. Общая топонимика.-Минск.: Изд-во Высшая школа.
4. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati.-T.: O'zbekiston . 1988.
5. Никонов В.А. Введение в топонимику.-М., 1965.
6. Никонов В.А. Краткий топонимический словарь.-М., 1966.
7. .Safarov Sh., Umarov I. Ayrim toponimlar tarixi.-qarshi.: Nasaf. 2005.
8. Топонимика Vostoka. Sbornik. Tt. 1-3.-М., 1962-1969.
9. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T., 2008.
10. Qoraev S. Toshkent toponimlari.-T.: Fan. 1991.
11. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.
12. Hasanov H. Er tili.-T.: O'qituvchi. 1977.
13. Hasanov H. Geografik nomlar siri.-T.: O'qituvchi. 1985.
14. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik.-T., 2005.

V BOB. TARIXIY KARTOGRAFIYA VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

1. Karta va kartografiya haqida qisqacha tushuncha

Karta - bu tarixiy hujjat bo'lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, sodir bo'lgan voqealar, vayron bo'lgan va yana tiklangan shaharlar, daryo o'zanlarining o'zgarishi, unutilgan qadimgi sug'orish inshootlari, xalqlar tarixini hududlar bilan bog'lab o'rganadi.

Antik davrda kartalar uchun maxsus atama bo'lmagan. Rim imperiyasida kartografik tasvirlarni tabula (doska) deb atashgan. Keyinroq ilk o'rta asrlarda karta lotincha "mappa" (dastlab polotno qismi yoki dastro'mol ma'nosini anglatgan), "mappa mundi" shaklida esa (dunyo kartasi) o'sha davrda Erning barcha kartalariga nisbatan qo'llanilgan. Kartografik tasvirlarga nisbatan "karta" so'zining qo'llanilishi Uyg'onish davrida lotinchadan "charta"(varaq, qog'oz) so'zidan, o'z navbatida u qadimgi yunon tilidagi "xartes" (papiirusdan tayyorlangan qog'oz) so'zidan olingan. Bu so'z ilk bor Portugaliyadagi XIV asr kartalarida uchraydi. Karta so'zi aslida lotincha "chartes"-xartes so'zidan olingan bo'lib, yozuv uchun mo'ljallangan papiirus varag'i degan ma'noni bildiradi.

Zamonaviy kartalar mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Umumgeografik kartalar (gidrografiya, rel'ef, sanoat, siyosiy-ma'muriy bo'linishlarni o'z ichiga oladi).
2. Maxsus kartalar. Maxsus ma'lumotlar keltirilgan (masalan, iqtisodiy) kartalar.

Masshtabiga ko'ra esa kartalar uch guruhga bo'linadi:

1. Yirik masshtabdagi kartalar: 1:200000 va undan yirik.
2. o'rta masshtabdagi kartalar: 1:300000 dan 1:1000000 gacha.
3. Kichik masshtabdagi kartalar: 1:1000000 dan kichik.

hozirgi zamon kartalarida quyidagi element (unsur)lar mavjud:

1. Gidrografiya: suv inshootlari (dengiz, daryo, ko'l, kanal, sun'iy suv omborlari, buloqlar, quduqlar) ni o'z ichiga oladi.
2. Aholi punktlari: shahar, shahar tipidagi posyolka, qishloq aholi maskanlari kiradi.
3. Aloqa yo'llari: temir yo'llar, yo'llar, suv yo'li (dengiz va daryo), havo yo'llari.
4. Sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy madaniy ob'ektlar: sanoat korxonalarini, foydali qazilmalar, aerodromlar, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy, tarixiy ob'ektlar kiradi.
5. Relef: past-tekisliklar.
6. Siyosiy-ma'muriy chegaralar: davlat va ma'muriy birliklarning chegaralari mavjud.

Ilmiy bilimlar va fan yo'nalishlari juda tez rivojlanayotgan hozirgi zamonda kam o'rganilgan "aralash" sohadagi fan tarmoqlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tahlil qilish uchun avvalo tarixiy jarayonlarni, tarix va geografiyani, qolaversa, tarix va kartografiyani, chuqurroq bilish talab etiladi.

Kartografiya taraqqiyoti asrlar davomida shakllangan oddiy chizmalardan toki aniq ishlangan kartalar yaratilishiga bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Kartalar mazmuni jihatidan boy bo'lishi mumkin. Katta bir kartaning mazmunini 100 sahifalik jiddiy ilmiy matnga tenglashtirish mumkin.

Kartografik materiallarga faqatgina kartografik tasvirlar kiribgina qolmay, bir qator tadqiqotchilar, ayniqsa, tarixchilar adabiy matnlar ham kartalar tuzish uchun manba bo'lishi mumkinligini uqtiradilar.

Kartografiya ancha kengroq tushuncha bo'lib, u tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligini (ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini) kartografik tasvir, tasvirli belgilar vositasi bilan tasvirlashni va tadqiq qilishni o'rganuvchi fandır. U dastlab ovchilik va baliqchilik keng tarqalgan hududlarda shakllangan. Kartografiya qadimgi

fanlardan bo'lib, bu fan to'g'risidagi dastlabki ta'rifni ("kartografiya" atamasisiz) milodiy II asrda yunon olimi Klavdiy Ptolemey bergan.

"Kartografiya" atamasi dastlab XVI asrda uchrab, geografik kartalar ishlashning ilmiy va amaliy sohalarida qo'llanilmagan.

Kartografiyaning taraqqiyotini avvalo insoniyatning jamiyatdagi moddiy ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi bilan bog'lash to'g'riroq. Bu taraqqiyotni ma'lum ijtimoiy sharoitlardan, tabiat va er munosabatlaridan tashqarida tushunish noto'g'ridir. Tarixiy tadqiqotlarning asosini insoniyat jamiyatining taraqqiyoti asosidagi faktik ma'lumotlar tashkil qilsa, kartografiya tarixi uchun esa karta va geografik ilmlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Karta bosib chiqarishgacha bo'lgan davrdagi ko'plab qadimgi kartalar turli sabablar, ya'ni yong'inlar, namgarchilik va materialining to'zib ketishi natijasida bizgacha etib kelmagan.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida kartografiyaning o'rni xaqida aniq bir fikr mavjud emas. Ba'zilar uni texnik fanlar qatoriga qo'shsalar, ba'zilar esa aniq fanlar qatoriga, yana ba'zilar kartografiya geodeziyaning bir qismi deb qarasarlar, boshqalar informatikaning bir bo'limi deyishadi. Boshqa toifa esa uni geografik fan deb biladi. Nima bo'lganda ham uning aniq mohiyatini tarixiy tahlilsiz anglab etish mushkil.

Ibtidoiy jamoa davridanoq qadimgi odamlar ilk kartalarni yaratishgan. Masalan, geograf Fritts Redinger "Shveytsariyadagi tarixdan avvalgi kartografik rasmlar" nomli asarida Shveytsariyadagi g'orlardan topilgan ikkita suyak plastinkani o'rganish natijasida, plastinkalardagi tasvirlar o'sha joyga oid asosiy yo'llar kartasi ekanligiga amin bo'lgan.

Qadimgi tarixiy kartografiyaga oid ilmiy adabiyotlarda karta va kartografiyaning shakllangan davri haqida aniq va to'la javob yo'q. Ma'lumki, bizgacha etib kelgan kartografik tasvirlar eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarga oiddir. Ular orasida Shimoliy Italiyaning Kamonika vodiysidan topilgan bronza davri (eramizdan avvalgi II ming yillik o'rtalari)ga oid kartografik tasvirlarda dalalar, so'qmoqlar, irmoqlar va sug'orish inshootlari aks ettirilgan.

Qadimgi karta-tasvirlar loy taxtachalar, papirus va pergamentlarga chizilgan bo'lib, bizgacha boy tarixiy ma'lumotlarni olib kelgan. Eramizdan avvalgi 2300 yillarda qadimgi bobilliklar ilk ibtidoiy kartalarni chizganlar. Unda erning ba'zi qismlari o'z aksini topgan edi. Shuningdek, kartalar yaratish boy madaniyatli qadimgi xalqlar-ossuriyaliklar, misrliklar va finikiyaliklarda eramizdan bir necha ming yil avval shakllangan.

Erning shar shaklida ekanligi qayd etilgan sanani ko'plab olimlar asrlar mobaynida o'rganishib, uni eramizdan avvalgi V asrda yashagan faylasuf Parmenid nomi bilan bog'lab kelishdi. XIX asrda tarixchi va

geograf olimlar Erning shar shaklida ekanligi haqida g'oya Pifagorga (eramizdan avvaalgi VI asr) tegishli deb da'vo qilishardi.

XX asrda esa bir qator g'arb tadqiqotchilari – Gyutri, Xeydel, Tomson va boshqalar yangi g'oya eramizdan avvalgi V asrdan erta paydo bo'lmaganligi va u haqdagi ishoralar Platonning (eramizdan avvalgi 427-347 yillar) "Fedon" dialogida uchrashini ta'kidlaganlar. Ammo XX asrdagi ba'zi tadqiqotlarda bu g'oyani yana "qadimiyroqqa" - Pifagor davrigacha surishga urinishlarni kuzatishlarimiz mumkin.

Antik manbalarda qadimgi yunon kartalari haqida bir qator ma'lumotlar uchraydi. Gerodotning yozishicha, Milet hukmdori Aristogorning Sparta podshosi Kleomon bilan muloqoti chog'ida uning qo'lida mis doskali karta bo'lib, unda butun er kurrasi, "hamma dengiz va daryolar" aks etgan.

Shuni unutmash kerakki, antik davrning yirik tarixchilarining ko'pchiligi geograf, shuning bilan birga kartograf bo'lishgan. Ular orasida Evdoks, Dikearx, Efor, Eratosfen, Pompeniy Mel, Ptolemeylar alohida o'rin egallaydi.

quldorlik tuzumi davrida karta tuzish ancha rivojlandi. Kartografiyaning ilmiy manbalari antik Yunonistonda shakllandi. Yunonlar Erning shar shaklida ekanligini va uning hajmini aniqlashga uringanlar. Ular tomonidan kartografik proektsiyalar va meridian-parallellar to'ri ishlab chiqilgan. Bunda ular Erning shar shaklida ekanligini hisobga olganlar.

Tarixchi Gerodot o'z davrida (eramizdan avvalgi 484-425 yillar) Erning tasviri haqida yozib qoldirgan bo'lsa-da, antik geografiya Klavdiy Ptolemey (milodiy 90-168 yillar) asarlarida o'zining rivojlanish cho'qqisiga ko'tarildi. Uning 8 kitobdan iborat "Geografiyadan qo'llanma" asari kartografiya ilmida qariyb 14 asr mobaynida yirik manba bo'lib xizmat qildi. U qisqacha "Geografiya" deb atalib, 8 ta kitobdan oltitasida Erning tasviri bayon etilgan.

Qadimgi Rimda kartalar harbiy va ma'muriy maqsadlar uchun amaliyotda keng qo'llanilgan. Rimning iqtisodiy va siyosiy hayoti olis viloyatlar va qo'shni mamlakatlarning transport aloqalariga bog'liq bo'lgan. Rim imperiyasini bog'lab turgan yo'llar tarmog'i o'lchab chiqilgan, so'ngra esa ularning kartalari tayyorlangan.

Rimdagi kartografiya asosan ikki yo'nalishda rivojlangan. Birinchisi – yunon kartografiyasi an'alarini davom ettirgan bo'lib, yunonlar, ayniqsa, Klavdiy Ptolemey tadqiqotlari asosida, ikkinchisi aynan Rim yo'nalishi, ya'ni amaliy muhandislik asosida taraqqiy etdi. Ta'kidlash joizki, rimliklar muhandislik geodeziyasi asoslarini er o'lchash ishlari

vositasida olib borishdi. Rim kartografiyasi ana shunisi bilan ham muhim va o'ziga xosdir.

Rimda kartografiya ishlari bilan er o'lchovchilar (agrimensor'ob) shug'ullanib, milodiy birinchi asrlarda agrimensor bir vaqtning o'zida ham kolin, ham harbiy va geometr bo'lib, Senat va xalq ularga katta vakolatlarni bergan. Agrimensorlar o'ziga xos an'ana hamda qoidalar asosida faoliyat ko'rsatgan. Ular Rimda ijtimoiy xizmat vakillari sanalib, imperatorlar ularning faoliyatini yuqori baholaganlar. hatto huquqshunos va notiqlardan tashqari er o'lchovchilar ham professor unvoniga sazovor bo'lishgan hamda har xil majburiyatlardan ozod etilgan. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki, Rimda er o'lchash va uni kartalarga tushirish san'at darajasiga ko'tarilgan.

O'z amaliga ko'ra rimlik er o'lchovchilar turli xil nomlarga ega bo'lishgan: terminorum custodes-chegaralar qo'riqchisi, mensores-o'lchovchilar, agrimensores-mensores-er o'lchovchilar.

Rimda ushbu kasb egalarining maxsus maktablari va qadimgi geodezik asboblari mavjud bo'lgan.

2. Tarixiy kartalar

Tarixiy kartalar, asosan, o'tmishdagi voqea va hodisalarni tasvirlab, jamiyat tarixidagi muhim voqelarning geografiya bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

Tarixiy kartalar qadimgi madaniyat o'choqlari, davlatlar, ijtimoiy harakatlar, savdo yo'llari va hokazolarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tarixiy kartalar arxeologik, etnografik, tarixiy-iqtisodiy, siyosiy-tarixiy, harbiy-tarixiy va tarixiy-madaniy kartalarga bo'linadi. Bu tarmoqlar orasida tarixiy kartalar umumiy ham bo'lib, tarixiy jarayonlarni bir butunlikda tasvirlaydi. Alohida hollarda esa voqea va hodisalar yoki fakt (dalil)larning alohida tomonlarini ko'rsatadi. Ular mustaqil (ma'lumot beruvchi va o'quv kartalari hamda atlaslar) yoki bezakli ahamiyatga ega bo'lgan kartalarga bo'linishi mumkin.

Dastlab tarixiy kartalar Abraxam Orteliyning "qadimgi dunyo geografiyasi atlas" (1579 yil)ga kiritilgan. So'ngra Sansonlar, V.Dyuval (XVII asrning ikkinchi yarmi) atlaslarida tarixiy bo'limlar paydo bo'ldi. XVIII asrda esa J.B.D'Anvilning tarixiy kartalari chop etildi.

XIX-XX asrlarda bir qator g'arb mamlakatlarida milliy tarixiy atlaslar chop etildi. Ularda aholining joylashuvi, ma'muriy-siyosiy bo'linishlar, shuningdek, iqtisodiy va madaniy tarixga oid kartalar mavjud edi (AqSh, Frantsiya, Finlandiya). Tarixiy atlaslar Chexoslovakiya va Bolgariyada ham nashr etilgan.

Rossiyada tarixiy kartalar XVIII asrning birinchi choragida, aniqrog'i, 1700-1721 yillardagi Shimoliy urushda rus harbiy qo'shinlarining janglariga bag'ishlangan plan, karta, sxema va ularning sharhiga bag'ishlangan matnlarning 1713 yildan chop etilishi bilan boshlangan. har bir matnga bezakli jang plani va qal'alarining tasviri berilgan gravyura ilova qilingan. Keyinroq qo'lda chizilgan harbiy-tarixiy kartalar juda ko'plab tarqalib, ular quruqlik va dengizda olib borilgan janglarda erishilgan g'alabalarga bag'ishlandi. 1793 yilda ilk bor «Rossiya imperiyasining tarixiy kartalari» nashrdan chiqdi.

XIX-XX asr boshlarida atlas va alohida kartalar chop etilib, ularda siyosiy, harbiy va iqtisodiy jarayonlar o'z aksini topdi. Ular jumlasiga "I.Axmatovning Rossiya davlatining Karamzin tarixiy asarlariga asoslanib tuzilgan tarixiy, xronologik va geografik atlas" (I-II qismlar, 1829-1831 yillar), N.I.Pavlishevning "Rossiya tarixiy atlas" (1845 yil), E.E.Zamislovskiyning "Rus tarixiga oid o'quv atlas" (1865 va 1887 yillar) va A.Ilining 1868 yilda chop etilgan "Rus tarixi bo'yicha o'rta va quyi o'quv muassasalari uchun o'quv atlas"ni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Rossiya imperiyasida iqtisodiy va xo'jalik masalalarini qamrab olgan karta va atlaslar Ichki ishlar vazirligining aholini ro'yxatga olish boshqarmasi, Savdo vazirligi va boshqa muassasalar tomonidan muntazam nashr etilib borilgan. Etnografik tarixga doir kartalar 1851 yilda P.I.Keppen va 1895 yilda A.F.Rittix tomonidan tayyorlanib, chop etilgan.

Rossiya imperiyasida nashr etilgan harbiy-tarixiy kartalar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular 1799, 1805-1815, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878 va 1904-1905 yillarda chor qo'shinlari olib borgan yirik harbiy urushlarni, shu bilan birga chegaralar hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan harbiy harakatlarni ham tavsiflovchi kartalar sifatida baholanishi mumkin.

Hozirgi zamon tarixiy kartalari faqatgina tarixiy voqea va hodisalar va dalillarnigina aks ettirib qolmay, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham tasvirlaydi.

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida K.V.Kudryashovning «Rus tarixiy atlas» (1928 yil), K.V.Bazilevich, I.A.Golubtsov va M.A.Zinovevlarning «SSSR tarixi atlas» (1-3 qismlar, 1948-1950 yillar) va boshqa yirik tarixiy atlaslar yaratilgan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng sobiq sho'rolar tuzumi ostidagi ittifoqdosh respublikalarda ham nashr etilgan atlaslarda tarixiy kartalar mavjud edi.

Harbiy tarixiy voqealarga doir kartalar L.G.Beskrovniyning “Rus harbiy tarixiga oid karta va sxemalar atlası” (1946 yil), “Zobit atlası” (1947 yil), “Dengiz atlası” (3 jild, 1958 yil)da o‘z aksini topgan.

Tarixiy kartalar keng ko‘lamda 1953-1956 yillarda chop etilgan ko‘p jildli “SSSR tarixi lavhalari”, 1966-1971 yillardagi “qadimgi davrdan to hozirga qadar SSSR tarixi”da, 1955-1969 yillardagi “Jahon tarixi”, entsiklopedik nashrlar va alohida tarixiy tadqiqotlarda berib borilgan. o‘rta va oliy o‘quv muassasalari uchun ham ko‘plab o‘quv kartalari va atlaslar nashr etilgan. Kartalarning qadimiyligi unga tarixiy manba ahamiyatini berib, manbashunoslik tahlili tamoyillarini qo‘llashni talab etadi. Shuningdek, mazkur manbalar turi alohida tadqiqot usullarini qo‘llagan holda nafaqat tarixiy, balki umumiy geografik bilimlarni ham egallagan bo‘lishlikni taqozo qiladi. Tarixiy kartalarni o‘rganish va ularni yaratish uslubiyatini ishlab chiqishni o‘rganuvchi fan tarmog‘i tarixiy kartografiya deb ataladi.

3. Tarixiy kartografiya

Tarixiy kartografiya – ilmiy fan bo‘lib, u asosan tarixiy kartalar va atlaslarni tuzish, ularning uslubiyatini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Kartografik uslubning tarix fanida qo‘llanilishi tarixiy kartalardan keng foydalanishga, tarixiy-geografik monografiyalar, maqolalar, darsliklar, qo‘llanmalar yaratilishiga olib keldi. Tarixiy kartalarda tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar, tarixiy davrlarni tavsiflovchi jarayonlar, shuningdek, geografik oqibatlar ko‘rsatib o‘tiladi. Umumiy tarixiy kartalar bu jarayonlarni yanada to‘liqroq ko‘rsatishga, ochib berishga harakat qiladi. Tarixiy kartalarning turli xillari bo‘ladi: tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-siyosiy, tarixiy etnografik, arxeologik, milliy-ozodlik harakati, dehqonlar qo‘zg‘oloni, inqilobiy harakatlar, harbiy-tarixiy, madaniyat tarixi bo‘yicha va boshqa kartalar kiradi. o‘quv-tarixiy kartalar o‘rta va oliy maktablarda o‘qitilayotgan tarixiy davrlarga mos bo‘ladi.

Tarixiy kartografiyaning rivojlanishi har doim tarixiy geografiyaga bog‘liq bo‘lib kelgan. 1579 yili Abraxam Orteliy geografik atlasga uchta tarixiy kartadan iborat qo‘shimcha tuzdi. Orteliyning bu qo‘shimchasi keyinchalik 1603 yili 38 ta kartadan iborat bo‘lgan antik davrning geografik atlasini tuzilishiga sabab bo‘ldi.

XVII asrning ikkinchi yarmida frantsuz geograflari Sansonlar va V.Dyuval atlaslarida ham tarixga oid kartalar bo‘limi bor edi. XVIII asr oxirida frantsuz kartografi J.B.D`Anvil tomonidan tayyorlangan tarixiy kartalar bosilib chiqdi. Orteliydan tortib to XIX asr oxiriga qadar tuzilgan kartalarda xalqlarning hududiy joylashishi, siyosiy chegaralar, harbiy yurishlar, janglar, tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan hududlar, geografik

sayohatlar yo'nalishlari aks ettirilgan edi. Shuningdek, A.Orteliy va V.Dyuval tomonidan tuzilgan kartalarda afsonaviy voqea-hodisalar va Injildagi rivoyatlar tasvirlangan. Masalan, avliyo Pavel va Ibrohim payg'ambarning sayohati, troyalik Eneyning dengiz sayohati, Odisey yurgan yo'llar tasvirlangan. Keyinroq kartalarda tarixiy-iqtisodiy ma'lumotlar ham qayd qilina boshlangan.

Tarixiy kartalar tuzishda tarixiy davrlar ko'pincha chalkashib ketgan, milliy-ozodlik harakatlari aks ettirilmagan. Ba'zi tarixiy kartalarda ma'lumotlar ataylab buzib ko'rsatilgan. Masalan, 1910 va 1936-1938 yillarda Germaniyada chop etilgan Putzger atlasida, avvalo buyuk davlatchilik shovinizmi va keyinroq fashistcha g'oyalar avj olishi bilan kartalardagi nemis va slavyan erlari o'rtasidagi chegaralar sun'iy ravishda sharqqa surilib berilgan.

XX asrning ilmiy tarixiy kartografiyasiga ikkita muhim yo'nalish xosdir. Birinchi yo'nalishga yuksak darajada detallashtirilgan kartalar kirib, ularda aholining ma'muriy, ba'zi holda cherkov tomonidan bo'linishigacha bo'lgan aniq dalillar aks ettirilgan. Bunday kartalar turiga 1895 yilda chop etilgan Fabritsiusning nemis atlasini, Rixterning 1906 yilgi Avstriya atlasini, A.A.Bekmanning 1913-1938 yillarda chop etilgan Niderlandiya atlasini kiradi. Ikkinchi tur kartalariga detallashtirilishi unchalik yuqori bo'lmagan, ammo faqatgina tarixiy-siyosiy emas, balki tarixiy-iqtisodiy, madaniyat tarixiga oid ma'lumotlar ham aks ettirilgan kartalar kiradi. Bunday kartalar sirasiga 1926 yil chop etilgan Aubinning nemis atlasini, Pollin tahriri ostida 1932 yilda chop etilgan AqSh atlasini ("qo'shma Shtatlar tarixiy-geografik atlasini")ni misol qilib keltirishimiz mumkin. 1956, 1958, 1962 yillarda esa Myunxenda o'quv mashg'ulotlariga doir "Katta tarix atlasini" chop etilgan.

Rossiya imperiyasida tarixiy kartografiya rivojlanishining dastlabki bosqichi XVIII asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Bu davrdagi tarixiy va tarixiy-geografik asarlarga tarixiy kartalar ilova qilina boshlandi. "Rossiya imperiyasining tarixiy kartasi" birinchi bor 1793 yilda chop etilgan.

Tarixiy kartografiya rivojlanishida 1958 yil Polshada bosilib chiqqan Plots vovodligi tarixiga oid atlasning alohida o'rni bor. Bunday atlaslar ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini aniq tasvirlab beradi. Zamonaviy tarixiy kartografiya rivojlanishining muhim elementi – bu tarixni aniq davrlashtirish, turli tarixiy jarayonlarni to'la aks ettirish, tarixiy jarayonlarning iqtisodiy tomonini ochib berishdir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, sho'rolar tuzumi davrida O'rta Osiyo tarixiga doir bir qator tarixiy kartalar tuzilgan bo'lsa ham, ammo ularning ichida O'rta Osiyo ni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga doir kartalar yo'q edi. Shuningdek, kartalar nashr qilinganda ko'proq evrotsentrik nuqtai nazardan yondashilgan edi.

O'rta Osiyo hududlari bo'yicha tarixiy kartalar faqat katta tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan hollardagina yaratilgan. Masalan, mo'g'ullarning O'rta Osiyo ni bosib olishiga doir tarixiy kartalar mavjud bo'lsa-da, ammo Amir Temur davlati haqida tarixiy kartalar umuman yaratilmagan. Tarixiy atlas va kartalarda XV-XVIII asrlardagi O'rta Osiyo da bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarning faqat Rossiya imperiyasi bilan aloqador bo'lgan qismlarigina aks ettirilgan, ular ham ham aniq detallashtirilmagan edi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid siyosiy-ma'muriy, tarixiy kartalar kam yaratilgan bo'lsa-da, demografik, hududlarning iqtisodiy tarixiga oid kartalar esa deyarli bo'lmagan.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng Turkiston general-gubernatorligi va yarim mustaqil Buxoro amirligi va Xiva xonligining o'sha davrga oid ba'zi kartalari mavjud.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy kartalar soni ko'paydi. O'rta Osiyo ning eng rivojlangan davri bo'lgan temuriylar davriga bag'ishlangan kartalar to'plami chop etildi. Shu bilan birga O'zbekiston tarixiy kartografiyasi oldida ko'plab ilmiy muammolar turibdi. Birinchi galda zamonaviy talablarga mos bo'lgan O'zbekiston xalqlari tarixining butun davrlarini qamrab olgan tarixiy atlas yaratish zarur. Bu borad dastlabki qadamlar ham tashlandi. 1999 yilda "O'zbekiston tarixi atlas" nashrdan chiqdi (O'zbekiston tarixi atlas.-o'zgeodezkadastr, 1999). Endi uni yangi ilmiy ma'lumotlar asosida to'ldirib, mukammallashtirib borish zarur.

O'zbekiston xalqlari tarixiga oid kartalar mavjud bo'lsa-da, tarixiy-geografik, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-demografik kartalarni yaratish O'zbekiston lik olimlarning birinchi galdagi vazifasidir.

4. O'zbekiston da kartografiya fani tarixi

XX asrga qadar respublikamiz hududini kartografik jihatdan o'rganilganlik ancha past bo'lgan. Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin iqtisodiy jihatdan muhim bu o'lkani kartaga olish ishlari boshlandi. Zotan, hududning ichki qismlari hali ham yaxshi o'rganilmagan, manbalar etarlicha darajada to'liq va aniq bo'lmagan, plan

olish asboblari, kartografik tasvirlash usullari va karta ishlash texnikasi rivojlanmagan edi.

1934 yili O'rta Osiyo va qozog'istonda yagona bo'lgan Toshkent kartografik fabrikasi tashkil etildi. Unga davlat muassasalari va jamoat tashkilotlarini mavzuli, siyosiy-ma'muriy va ma'lumotnoma kartalari bilan, shuningdek, maktab o'quvchilarini o'quv karta va atlaslar bilan ta'minlashdek katta vazifa yuklatildi. Ko'p o'tmay alohida sug'oriladigan tumanlar qishloq xo'jalik kartalari, O'zbekiston ning ma'muriy kartasi va O'rta Osiyo xalqlari milliy tillarida o'quv kartalari tuzildi va nashr etildi.

Mintaqa, xususan O'zbekiston hududi tasvirlangan kartografik materiallar o'sha yillari nashr etilgan sobiq Ittifoqning katta-kichik va qishloq xo'jaligiga oid maxsus qomuslari tarkibida ham berilgan.

1939-1940 yilari barcha O'rta Osiyo respublikalarining devoriy siyosiy-ma'muriy, tabiiy va iqtisodiy kartalari tayyorlandi va chop etildi. Ular ichida, ayniqsa, O'zbekiston va Turkmanistonning qishloq xo'jalik kartalari alohida ajralib turadi. Ularda qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, ekilayotgan g'o'za navlarining joylanishi, davlat xo'jaliklari va ularning ixtisoslashuvi ko'rsatilgan. Belgilar usuli bilan foydali qazilma konlari, muhim industrial markazlar va gidroelektrostantsiyalar ko'rsatilgan.

Urushdan keyingi yillarda kartograflarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligida, boshqaruv va rejalashtirish organlarini zarur kartografik materiallar bilan ta'minlash, ilg'or xo'jaliklar va ilmiy tadqiqot muassasalarining yutuqlarining targ'ibot qilish hamda amaliyotga joriy etilishini tezlatish edi.

1963 yili respublikamizning birinchi "Tabiiy-geografik atlas" chop etildi. Atlasning formati 44x30 sm, asosiy kartalarning masshtabi 1:3500000 va 1:500000, iqlim kartalari 1:7500000 va 1:10000000 masshtablarda tuzilgan.

1968 yili O'zbekiston Er tuzish va loyihalash instituti tomonidan O'zbekiston ning yagona dastur asosida bir-biri bilan o'zaro bog'langan, bir-birini o'zaro to'latadigan ixtisoslashgan aniq maqsadli «Devoriy qishloq xo'jalik kartalari» tizimi tayyorlandi va nashr etildi. Mazkur tizim masshtabi 1:1000000 bo'lgan 21 ta kartadan iborat bo'lib, ularda respublikamiz qishloq xo'jaligiga atroflicha kartografik tavsif berilgan. Barcha kartalarning mazmuni turli xil diagrammalar, grafiklar va jadvallar bilan to'ldirilgan.

1980 yili O'zbekiston ning birinchi "o'quv-o'lkashunoslik atlas" chop etildi. Mazkur atlas keng jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. U respublikamiz geografiyasi, tarixi va madaniyatini o'rganishda o'quvchilarga yordamchi qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

1983 yili respublikamiz poytaxti Toshkentning 2000 yillik yubileyi munosabati bilan kompleks "Toshkent geografik atlas" chop etildi. Atlasning formati 25x35 sm, asosiy kartalarining masshtabi 1:400 000 va 1:650 000. Atlas kirish va 6 bo'limdan iborat bo'lib, u 48 ta karta va sxemalarni o'z ichiga olgan. Atlas Leningrad shahrining (1977 yil) tarixiy-geografik atlasidan keyin sobiq Ittifoqda nashr qilingan ikkinchi shahar atlas hisoblanadi.

1982-1985 yillari ikki qismdan iborat umumiy kompleks geografik ilmiy-malumotnoma "O'zbekiston atlas" chop etildi. Mazkur atlasning umumiy hajmi va mazmunining qamroviga ko'ra milliy atlasga yaqin deb hisoblash mumkin. Atlasning formati 61x42 sm, asosiy kartalarining masshtabi 1: 2500 00 va 1: 3500000. Atlas 28 ta alohida-alohida bo'limdan iborat bo'lib, unda 322 ta ko'p rangli karta berilgan. Atlasni loyihalashtirish va kartalarni tuzishda mualliflar asosiy e'tiborini tizimli yondashgan holda respublikamizning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, xalq xo'jaligi va uning tarmoqlari, madaniyati va tarixining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolib, ularning haqiqiy holatini aks ettirishga qaratdilar. Mazkur atlas sobiq Ittifoqda chop etilgan barcha kompleks ilmiy-malumotnoma atlaslardan farq qilib, O'zbekiston qishloq xo'jaligining etakchi tarmog'i – paxtachilikka alohida bo'limda birinchi marta to'liq kartografik tavsif berildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, respublika rahbariyati mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlaridan oqilona foydalanish va uni butun mamlakat hududi bo'ylab ilmiy asosda to'g'ri joylashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilish, aholining o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish, uning hududida geodeziya va kartografiyaga oid faoliyatni keng ko'lamda, aniq reja va ilmiy asosda tashkil etishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shu maqsadda 1997 yilning 25 aprelida "Geodeziya va kartografiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida geodeziya va kartografiyaga oid faoliyatning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning geodeziya va kartografiya mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

O'tgan qisqa muddat ichida respublikamizning 1:1000000 va 1:1500000 masshtabli qator devoriy siyosiy-ma'muriy, tabiiy, ekologik, umumiy iqtisodiy, iqlim va aholi kartalari chop etildi.

1999 yili O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining buyurtmasiga binoan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining geografiya fakulteti jamoasi umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun "O'zbekiston geografik atlasini"ni nashrga tayyorladi.

5. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari

Xorazmiy. o'rta asrlarda zaminimizdan etishib chiqqan buyuk alloma VIII-IX asrlarda yashab ijod etgan Muhammad Muso al-Xorazmiyning kartografik tadqiqotlari qimmatlidir. Al-Xorazmiy xalifa Ma'mun tashkil qilgan "Bayt-ul-hikma" ("Donishmandlar uyi")da ham faoliyat ko'rsatgan. Xalifa Ma'mun o'sha davrda er yuzining batafsil kartalarini tuzish to'g'risida topshiriq bergan. "Dunyo kartalari" aslida yaxlit atlas bo'lishi kerak edi. Atlas tuzish ishi bilan 70 ga yaqin olim shug'ullangan, ularga esa Muhammad Muso al-Xorazmiy boshchilik qilgan.

Bu kartalar yig'indisi "Ma'mun dunyo kartasi" nomi bilan ham yuritilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, uni tuzish ishlari 840 yillarga yaqin tugallangan bo'lsa kerak.

Xorazmiyning mazkur kartalar munosabati bilan 837-847 yillar oralig'ida yozilgan "Surat al-arz" ("Er surati xaqidagi kitob") asarida hatto Klavdiy Ptolemeyning "Geografiya" kitobini tanqidiy tahlil qilgan. "Surat al-arz" (arab tilida) 1926 yilda avstriyalik geograf Gans Mjik tomonidan nashr qilingan va shu asosda o'zbek tiliga o'girilib chop etilgan.

Xorazmiyning kitobi bilan birga uning to'rtta kartasi ham bizgacha etib kelgan. Ular orasida Azov dengizi havzasi hududlari aks ettirilgan karta qimmatlidir. Ushbu karta shimolga tomon yo'nalishda berilgan bo'lib, Xorazmiygacha va undan keyingi geograflarning kartalarida ushbu dengiz janubga tomon yo'nalishda chizilgan.

Xorazmiy Nil daryosi kartasida ushbu daryo oqimini yaxshi bilishini ko'rsata olgan. Kartada iqlim chegaralari ham aks ettirilgan.

Xorazmiyning uchinchi kartasi – "qimmatli yoqutlar oroli" deb atalib, bunda hamma tomoni tog'lar bilan qurshalgan bir orol tasvirlangan. Nihoyat to'rtinchi kartada dengiz qirg'oqlarining turli shakllari berilgan.

Xorazmiyning "Surat al-arz" asari g'arb va Sharq kartograflari uchun keyingi asrlarda ham qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Undagi O'rta Osiyo ga oid ma'lumotlar haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Beruniy. Mashhur qomusiy olim Beruniy kartografiya faniga ham ulkan hissa qo'shgan bo'lib, uning 10 varaqdan iborat "Tastih as-suvar va tabtih al-quvar" (qisqacha "Kartografiya") asari xorazmshoh Abul Abbas Ma'munga bag'ishlangan. Risolada osmon globusini yasash to'g'risida

gapirilgan. Shuningdek, geografik karta haqida bunday deyilgan: “Er kurrasini sathga o’tkazishda esa shahar va qishloqlarning uzunlik va kengliklarini, dengizlar, buloqlar, daryolar, qumliklar, tog’lar, konlar, tepaliklar, qiyalik va soyliklarni bayon etadigan “Jo’g’rofiya” kitobiga ehtiyoj tushadi va bu kitobdagiga qarab ularning (belgilari) ishlanadi”.

Beruniyning bizgacha etib kelgan yana bir geografik-kartografik “qonuni Mas’udiy” (“Al-qonun al-Mas’udiy fil hay’a van nujum” – “Astronomiya fanida Mas’ud ismiga yozilgan qonun”) nomli yirik asari bo’lib, uni muallif umrining oxirgi yillarida yozgan. Tadqiqotchilarning fikricha, asarining qo’lyozma nusxalari 10 tacha bo’lsa kerak. Asar jami 12 maqoladan iborat bo’lib, har bir maqola bir necha bobga bo’lingan.

5-maqolaning 9-10 boblari geografiya uchun juda muhimdir. Bu boblarda dengiz va quruqliklar chegaralanib, etti iqlim taqsimoti hamda dunyodagi 603 joyning geografik koordinatalari berilgan. Shularga asoslanib, dunyoning geografik kartasi tuzilsa, Beruniyning er yuzini qanday tasavvur etganligi ayon bo’lar edi, biroq uzunlik belgilari va boshlang’ich meridian ma’lum bo’lmaganligidan bunday karta tuzish bir muncha mushkuldir.

O’ninchi bob “Shaharlarning uzunlik va kengliklarini jadvallarda ko’rsatish haqida” deb nomlanib, Beruniy unda shaharlarning bir-biriga nisbatan vaziyatlariga va oralaridagi masofalar taqozasiga qarab tuzatishga urinadi.

Afsuski, jadvalni tuzishda Beruniy ko’p mehnat qilgan bo’lsa-da, beruniyshunos olimlarning fikricha, qo’lyozmani ko’chirgan xattotlar raqamlar va nomlarda ba’zi xatoga yo’l qo’yganlar, buning ustiga “qonuni Mas’udiy”ni ruscha va o’zbekcha tarjima qilganda ham qo’lyozmalarda yo’l qo’ygan xatolarga e’tibor berilmagan. Pirovardida jadval sahifalarida talay xatolar o’tib ketgan.

Beruniyning yana bir geografik-kartografik asari “At-tafhim” (“At-tafhim li avoili sinoat at-tanjim”-“Nujum san’atining avvalini tushuntirish”) kitobi 1030 yilda ikki tilda: arab hamda forsha yozgan yirik asarlaridan biridir. Ushbu kitobga dunyo kartasi ham ilova qilingan. U kitobning barcha nusxalarida bor, ammo ularning har biri har xil.

Beruniyga ko’ra, Er shar shaklida bo’lib, uning yarmi ma’lum (Sharqiy yarimshar) va yarmi noma’lum (g’arbiy yarimshar) bo’lgan. Erning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo’lganligidan uning hamqutr (diametrial qarama-qarshisidagi) choragi ham quruqlik bo’lishini taxmin qilgan Beruniy u erning yangi qit’a (Amerika) ekanligini XI asr boshidayoq “hindiston” asarida yozib qoldirgan.

Olim o'z asarida er yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlik to'g'risida gapirib: "Erning choragi ma'muradir. Ma'murani g'arb va sharq tomonidan Muhit okeani, erning obod qismini dengizlarning narigi tomonidan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okeani) o'rab turibdi. Bu Muhit okeani, erning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo'lish mumkin bo'lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (g'arb va sharqdan) ajratib turadi", - deb yozadi.

Qadimgi yunon olimlarining asarlarida, jumladan mashhur geograf Eratosfenning kitobida dunyo 7 qismga bo'lingan va har biri "klimat" deb atalgan. Yunon olimlarining kitoblari arab tiliga tarjima qilinganda "klimat" so'zi o'rniga "iqlim" so'zi ishlatilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, dunyoning 7 qismga bo'linishi qadimgi yunon fanining xizmati emas, bu O'rta Osiyo va Xurosondan chiqqan tushunchadir. Buning qisqacha tarixi Beruniyning "at-Tafhim", "qonuni Mas'udiy" va "Geodeziya" kitoblarida bayon etilgan. Aniqrog'i, Sharq geografiasida dunyoning tabiati turlicha bo'lgan qismlari "iqlim" so'zi bilan atalgan.

Beruniyning olamning geotsentrik va geliotsentrik nazariyalarini bir qatorga qo'yishi o'sha davrda arab olimlari o'rtasida hukm surgan Ptolemey sistemasiga nisbatan olg'a tashlangan kattakon qadam bo'ldi.

Al-Balxiy. o'rta asrlar O'rta Osiyo kartografiyasiga doir nodir yodgorliklardan biri balxlik geograf olim Abu Zayd Ahmad ibn Saxl al-Balxiyning (850 yilda tavallud topgan) "Islom atlas" hisoblanadi. Sharqshunoslarning taxminlariga ko'ra, "Islom atlas" somoniylar davlatining alohida viloyatlarining chizma tasvirlaridan tashkil topgan. Faqatgina X asrga kelib al-Istahriy va ibn havqal tomonidan biroz zamonaviylashtirilgan.

Mahmud qoshg'ariy. O'rta Osiyo ning eng sharqida – Issiqko'l va qoshg'arda yashagan, umrining ko'p yillarida "Rumdan Chingacha" – o'rta er dengizi bo'ylaridan Xitoygacha bo'lgan mamlakatlarni kezman, qabilalar va ularning tilini o'rgangan olim Mahmud qoshg'ariy bo'lib, u "Devonu lug'otit turk" asariga doiraviy dunyo kartasini ilova qilgan.

Ushbu kartani chet el olimlaridan K.Miller va A.German, sho'rolar davrida I.Krachkovskiy, I.Umnyakov, S.Umurzakov va boshqalar o'rganganlar. h.hasanov tadqiqotlari "Devonu lug'otit turk"ga ilova qilingan dunyo kartasining muallifi ham qoshg'ariyning o'zi ekanligini isbot etdi.

Qoshg'ariy kartasi doira shaklida bo'lib, hozirgi yarimsharga to'g'ri keladi. Kartaning arabcha bosma nusxasining diametri 24 sm, o'zbekcha nusxasini 18 sm.

Najib Bakron. Xurosonlik olim Muhammad ibn Najib Bakron o'z davrining o'qimishli kishisi bo'lib, geografiya, astrologiya va kartalar tuzish san'atini puxta egallagan, tarix va tibbiyotdan xabardor olim sanalgan. 1209 yilda dunyo kartasini tuzib, unga "Jahonnoma" asarini ilova qilgan. "Jahonnoma"ni va kartani tuzishda Najib Bakron, asosan yozma manbalardan, chunonchi: Xurdodbeh, Istahriy, Nasriddin Tusiy kitoblaridan, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisravning asarlaridan foydalangan.

Afsuski, muallifning noyob kartasi yo'qolib ketgan. hozir uning "Jahonnoma" nomli sharhi izohigina mavjuddir.

"Jahonnoma" matnida 600 tagacha joyning nomi tilga olingan, lekin kartaning o'zida bundan ham ko'proq bo'lsa kerak.

Banokatiy. XIV asr boshidagi ijodiy mehnati bilan shuhrat qozongan taratgan shoir, tarixchi va geograf olim Fahriddin Abu Sulaymon Banokatiy 1317 yilda umumiy tarix va geografiyadan asar yozib qoldirgan. Asarning to'liq nomi "Ravzat ulul al-bob fi tavorix al-akobir va ansob" ("Ulug' kishilarning tarixi va nasabi bobida donishmandlar bog'i") deb atalib, ko'pincha "Tarixi Banokatiy" nomi bilan yuritiladi. Shu kitobning geografiyaga taalluqli 7-bobida hindiston, Armaniston, Eron, Rum, Xitoy, Mo'g'ul, Arab va Yahudiy erlarining ta'rifi berilgan. Unda iqlimlar sxemasi ham berilgani bilan ahamiyatlidir.

Hofizi Abru (1362-1431 yillar) 1414 yilda hirot hokimi Shohruhga arabcha yozilgan geografiya kitobini taqdim qilgan. Bu "Kitob al-masolik va al-mamolik" ("Yo'llar va mamlakatlar") kitobi edi.

Shohruh hofizi Abrugaga bu kitobni fors tiliga tarjima qilishni buyurgan. hofizi Abru tarjima jarayonida unga o'zining ko'rgan-bilganlarini va boshqa kitoblardan o'qiganlarini ham qo'shgan, shu tarzda yangi bir asar yaratgan va unga "Zubdat at-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") deya nom bergan.

Hofizi Abruning bu asari ilmiy geografik asar bo'lib ajoyib kartografik merosning katta ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Asarda har bir geografik matnning oxiriga surat ilova qilingan ("surat" so'zi qadimga lug'atlarda chizma, karta, sxema, tasvir deb tushuntirilgan).

Suratlar ichida eng qimmatlisi, shubhasiz, dunyo kartasidir. Dunyo kartasining muhim tomonlaridan biri gradus to'g'ri chizilganligidir. Kartaning o'lchami 34-45 santimetr bo'lib, kitoblarga ilova qilingan. Kartalar ichida bunchalik katta sharq kartasi kamdan kam uchraydi. Asarning Britaniya muzeyidagi nusxasida 46 ta nom, Toshkentdagi nusxasida esa 62 ta nom yozilgan.

Uch globus. Beruniy erning sharsimonligiga qat'iy ishonganligini o'z asarlarida bir necha bor ochiq, ravshan aytgan. Beruniy sayyoramizni aniq tasavvur etish bilan birga, uning tasvirini ham yaratmoqchi bo'lgan. U yaratgan globusning diametri nihoyatda katta bo'lgan; u aytgan "10 cho'zim" taxminan 5 metr keladi. Bu globus Xorazmda yasalgan.

Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu Sharq olamidagi dastlabki globus bo'lishi bilan birga, eng birinchi bo'rtma (relefli) globus ham bo'lgan. Ikkinchi globus haqida sharq muarrixlarining asarlarida eslatib o'tilgan, xolos.

Jumladan, Abdurazzoq Samarqandiy Samarqand observatoriyasida "er sharining iqlimlariga ajratilgan, tog'lar, dengiz, sahrolar va hokazolarga ajratilgan tasviri" mavjudligini yozgan.

Uchinchi globus bizgacha etib kelgan, hozirda Samarqanddagi muzeylardan birida saqlanayotgan globus bo'lib, uning muallifi mashhur ma'rifatparvar hoji Yusuf Mirfayozov (1842-1924 yillar) bo'ladi. o'z davrining o'qimishli olimi sifatida u Sharq va Evropa mamlakatlarida bo'lgan. Musiqa, she'riyat, dorishunoslikdan yaxshigina xabardor bo'lgan.

U yasagan globus mahkamlangan ostlik bilan 117 sm. ni, atrofi 160 sm.ni, masshtabi 1 sm. da 250 km. ga to'g'ri keladi. Graduslari to'g'ri bo'lib, parallel va meridianlari har 15 gradusdan so'ng qora chiziqlar bilan, tropik va qutb doiralari qizil chiziqlar bilan ajratilgan.

Globusda qariyb mingga yaqin geografik nomlar tushirilgan. Ularning 90% i o'zbek, 10% i tojik tilida.

Globus keng ekvatorial belbog' bilan o'ralgan bo'lib unda 12 ta burj: Arslon, ho'kiz, qisqichbaqa, Chayon, Baliq va boshqalar ko'rsatilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Kartografiya va tarixiy kartografiya fanlari nimani o'rganadi?
2. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
3. O'rta Osiyo olimlarining kartografiya faniga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
4. O'rta Osiyo hududi aks ettirilgan tarixiy-kartografik manbalar haqida ma'lumot to'plang.

Adabiyotlar:

1. Берлянт А.Н. Карта рассказывает.-М.: Просвещение. 1978.
2. Булгаков П.Г. Глобус Беруни // Общественные науки в Узбекистане. 1965, №1.

3. Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. Мухаммад ал-Хорезми. -М.: Наука. 1983.
4. Во'riev O. Ustozning xatosini tuzatgan shogird // Fan va turmush. 1976. №5.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археографии и источниковедения.-М., 1963.
6. Караваев З.Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт.-М., 1956.
7. Мирзалиев Т.М., Мухитдинов Ш.М., Базарбаев А. Атласное картографирование в Узбекской ССР.-Т.: Фан. 1990.
8. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт.-М.: Наука. 1985.
9. Преображенский А.И. и др. Составление и редактирование специальных карт.-М., 1961.
10. Saidboboev Z. o'rta asrlarda Sharq kartografiyasining ravnaqi // "Imom al-Buxoriy saboqlari". 2002, №4.
11. Saidboboev Z. "Atlas Aziatskoy Rossii" – kak istochnik po istorii Turkestana nachala XX v. // "O'zbekiston tarixi" jurnali. 2007, №4.
12. Saidboboev Z. Evropada O'rta Osiyo ga oid tarixiy-kartografik ma'lumotlar (XVI-XIX asrlar).-Т.: Fan. 2008.
13. Салищев К.А. Картоведения.-М.: Изд-во МГУ. 1990.
14. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Т., 2008.
15. Хасанов Х. Среднеазиатский географ-филолог XI в.// Изв. Узб. Фил. Геогр. Общ-ва СССР. Т.V. –Т. 1961.

VI BOB. XRONOLOGIYA VA METROLOGIYA

1. Xronologiya – vaqt to'g'risidagi fan. Tarixiy va astronomik xronologiya

Xronologiya so'zi grekcha bo'lib “xronos” - vaqt, “logos” - fan, ya'ni vaqtni o'rganish haqidagi fan deganidir. Xronologiya vaqtlarni o'rganish, hisoblash haqidagi fan sifatida ikki qismga bo'linadi, bular – astronomik (yoxud matematik) xronologiya va tarixiy xronologiyadir.

Qadimgi dunyo xalqlari nafaqat kalendarlardan, balki o'ziga xos hisoblash usullaridan ham foydalanishgan. Bu murakkab usullarni aniqlashga tarixiy xronologiya fani yordam beradi. Tarixiy xronologiyaning ob'ekti (manbalari), tarixiy voqealar haqida ma'lumot beruvchi manbalar hisoblanadi. Tarixiy xronologiya tarixiy taraqqiyot davomida vaqtni hisoblash sistemasini o'rganadi, ularning o'zaro bog'liqligini, vaqtlarni bir hisob sistemasidan ikkinchisiga aylantirish uslublarini ishlab chiqadi. Tarixiy xronologiya yuqoridagi hisoblash sistemasidan tarixiy vaqtlarni hisoblashda amalda foydalanadi va tarixiy manbalardagi sanalarning aniqligini tarixiy tahlil qiladi.

Insoniyatning xo'jalik hayotidagi ehtiyoji vaqtni hisoblash zaruratini yuzaga keltirdi. qadimda vaqtni hisoblashda tabiatning doimiy takrorlanib turuvchi qodisasi bo'lgan sutka, tun, kun, Oy fazalarining o'zgarishi, Erning yillik aylanma harakatidan foydalanilgan.

Asta-sekin vaqtni aniq hisoblashga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Buning uchun osmon jismlar harakatini, umuman astronomiyani bilish zarur edi. Bundan tashqari yana bir vazifani, kun, oy, yillar o'rtasidagi farqlarni aniqlash zarurati ham tu g'ildi. Buning uchun esa matematik hisob-kitobni puxta bilish lozim edi. Tabiat hodisalarini kuzatish, vaqtni aniqlash uchun qo'llanilgan murakkab matematik hisob-kitoblar xronologiyaning fan sifatida shakllanishiga asos sifatida xizmat qildi. Babil va Misr kabi qadimgi davlatlarda paydo bo'lgan xronologiya ayniqsa qadimgi Gretsiya va Rimda rivojlandi. Xronologiya bilim sohasi sifatida rivojlanishiga qadimgi Gretsiya va Rim olimlari Erotosfen, Kalipp, Gipparx, Varron, Tsenzorin, Ptolomey, Makrobiylar katta qissa qo'shganlar.

Gipparx-(eramizgacha 190-125 yillar) birinchi bo'lib Oyning o'lchamini va undan Ergacha bo'lgan masofani aniqlagan. Gipparx shaxsiy kuzatuvlari natijasida quyosh yilining uzunligini deyarli aniq hisoblab chiqqan (xato 6 daqiqa). Olim o'sha davr uchun ulkan hisoblangan 850 ta yulduzlarning holati katalogini tuzgan edi.

Klavdiy Ptolemey-mashhur “Almagest” asari muallifi. Bu asar o'rta asrlargacha astronomiyaga oid asarlarning sarasi hisoblangan. Shuningdek, Ptolemey sakkiz kitobdan iborat “Geografiya” asarining muallifi hamdir. Ptolemey kartografik proektsiyalar nazariyasini ham yaratgan. Ayniqsa uning “Podshohlarning xronologik jadvali” asari xronologiyaga oid muhim manba hisoblanadi.

Mark Terentsiy Varron (eramizgacha 116-27 yillar) ham xronologiya fanining rivojiga katta hissa qo'shgan. U qomusiy olim bo'lib olti yuzga yaqin asarlar muallifidir. Mark Terentsiy Varron asarlarining aksariyati xronologiyaga ba g'ishlangan.

VII asr oxiri-VIII asrning birinchi choragida yashagan ingliz monaxi, solnomachi Beda Dostopochtenniy xronologiyaga oid “Dunyoning olti yoshi” nomli asar muallifidir. Uning mazkur asarida xristian erasining asoslari haqida ma'lumot beriladi.

2. Evropada xronologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiyoti

XVI asrda frantsuz olimi J. Skaliger tarixiy xronologiyada tizimlashtirishni amalga oshirdi. U yulian uslubidagi solnomalar tahririni ishlab chiqadi. 1583 yilda J. Skaliger “Vaqtning hisoblash yuzasidan yangi tadqiqot” nomli asarini e'lon qiladi. 1582 yilda italyan olimlari A. Liliya va I. Danti yangi kalendarni tuzib chiqadi. Bu kalendar tarixda Grigoriy kalendari nomi bilan shuhrat qozonadi. XVII asrda frantsuz monaxi D. Petavi ham vaqtning hisoblash yuzasidan tadqiqotlar olib boradi.

XVIII asrda Rossiya olimlari ham xronologiya faniga oid ko'plab tadqiqotlar olib borgan. “Rossiya tarixi” kitobining birinchi jildida V.N. Tatishev yozgan maxsus bir bob “Yilning boshida vaqtning hisoblash” deb nomlanadi. Bu davrda M.V. Lomonosov, M.M. Sherbatov, I.N. Boltin va A.L. Shletser xronologiya bilan jiddiy shug'ullandilar. XVIII asrga kelib Evropada xronologiya mustaqil tarixiy fanga aylandi. Bunga bir qator angliyalik matematik va astronomlar o'z hissasini qo'shdilar. XVIII asr o'rtalarida lord Chesterfieldning tashabbusi bilan mamlakatda Grigoriy kalendari qabul qilindi.

1825-1826 yillarda nemis astronomi X.L. Ideler tomonidan yozilgan ikki jildlik “Matematik va texnik xronologiya”, L. Brossening “Xronologiya texnikasiga doir” (SPb., 1868), F. Kaltenbrunnerning “Grigoriy kalendari islohoti tarixidan” (Vena., 1876), O.E. Gartmannning “Rim kalendari” (Leyptsig., 1882), Ya.I. Makdonaldning “Xronologiya va kalendar” (London., 1897) asarlari xronologiya fanining taraqqiyotida asosiy o'rinni egalladi.

XIX asr boshlarida Rossiyada tarixning yordamchi fani sifatida xronologiyaning ahamiyati yanada yuksaldi. “Rossiya davlati tarixi”

kitobining birinchi jildida N.M. Karamzin qadimgi Rusda yil hisobi to'g'risida ma'lumot beradi. XIX asrning birinchi yarmida V. Shteyngel va K. Trominlar yilnoma va kalendar masalasini tadqiq qiladi. P.V.Xavskiy Rusda yilnomalar tarixiga oid tadqiqotlar va yulian kalendarini Grigoriy kalendariga taqqoslashga doir xronologik jadvallarni tuzadi. 1850 yilda D.M. Perevoshikovning "Pravoslav cherkovida qabul qilingan vaqtni hisoblash qoidasi" nomli kitobi nashr qilindi. XIX asr oxirlarida D.I. Prozovskiy nasroniylikkacha bo'lgan davrda slavyan-rus vaqt hisobi va qadimgi Rusda soatni hisoblash asoslarini ishlab chiqdi.

XX asrga kelib xronologiya tarixning asosiy yordamchi fanlaridan biriga aylanadi. Bu davrda quyosh, Oy-quyosh va Oy kalendarlariga doir tadqiqotlar yuzaga keladi. 1906-1914 yillarda nemis olimi F. Gintsel uch jilddan iborat "Matematik va texnik xronologiya" nomli kitobini yozadi.

Zamonaviy xronologiyaning rivojlanishida E.Meyer (1904), R. Parker (1950) Misr kalendarlari), M.M. Underxil (1921) hindlarda xronologiya fani, M. Maler yahudiy kalendarlari, S.G. Morley (1954) mayya xalqlarida vaqt hisobi, X. Mittsman Rim xronologiyasi (1957), E. Bikerman qadimgi dunyo xronologiyasi (1966), R. Noygebauer, A.E. Shtamp, V. Grumel kabi tadqiqotchilarning xronologiya uslublari va nazariyasiga oid tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etdi.

XIX asr oxirlarida Rossiyada Yulian kalendarini isloh qilish bo'yicha maxsus komissiya tuziladi. Unga mashhur olim D.I. Mendeleev boshchilik qiladi. XX asr boshlarida xronologiya faniga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. N.V. Stepanov "Yangi uslub va provoslav pasxasi" (1907) nomli kitobida yangi kalendarga o'tish zaruratini ta'kidlaydi. Olim tomonidan 1909-1915 yillarda rus solnomalari kalendari, qadimgi Rus yil hisobi, mart va sentyabr ultramart uslublari o'rganiladi va tadqiqotlar jamlanib, 1917 yilda "Kalendar-xronologiya ma'lumotnomasi" nashr qilinadi.

1918 yilda Rossiyada Grigoriy kalendari qabul qilinadi. Natijada yangi kalendar sistemasiga oid ko'plab ilmiy-ommabop tadqiqotlar olib boriladi. I.F. Polak "Kalendarning o'zgarishi" (1918) va "Vaqt va kalendar" (1928), O.A. Doblash-Rojdestvenskiy "Insonlar qanday qilib yilni hisoblashni o'rganadilar"(1922), N.I. Idelson "Kalendar tarixi" (1925), M. Mate, N. Sholkolarning "hozirgi, o'tmishdagi va kelajakdagi kalendarlar" (1931) kabi asarlari o'sha izlanishlar mevasidir.

1938 yilda V.K. Nikolskiyning "Bizning yil hisobimizning paydo bo'lishi", 1941 yilda L. Klimovichning "Bayramlar va islom ro'zalari" nomli kitoblari nashr qilinadi. N.G. Berejkovning "XV asrgacha bo'lgan rus solnomalari xronologiyasi" nomli maqolasi va "Rus solnomalari

xronologiyasi” (M., 1963) nomli monografiyalari xronologiya faniga oid muhim taqiqotlardan biridir. Muallif rus solnomalarida mart, sentyabr va ultramart uslublarida berilganligini isbotlaydi va rus solnomalari xronologiyasini o’rganishning uslublarini ishlab chiqadi.

1954-1956 yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida yanada mukammal va barcha xalqlar uchun yagona bo’lgan yangi kalendarni yaratish masalasi muhokama qilinadi. Natijada bir qator mamlakatlarda kalendarlarning astronomik asosi va yilni hisoblashning yangi uslublariga oid ilmiy tadqiqotlar yuzaga keladi. Jumladan, G.D. Mamedbeyli (1961), I.A. Orbeli (1961) musulmon yil hisobi, M.R. Rahimov tojiklarda yil hisobi (1957) va G. Mcherlidzelar qadimgi gruzin yil hisobi bo’yicha tadqiqotlar olib boradilar.

3. O’rta Osiyo olimlarining xronologiya rivojlanishiga qo’shgan hissasi

O'rta asrlarda xronologiya fani tez sur'atlarda rivojlanib bordi. Xronologiya rivojiga O'rta Osiyolik olimlar, Ahmad al-Farg’oniy (797-865), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Umar Xayyom (1048-1131) va Mirzo Ulug’bek (1394-1449) katta hissa qo'shdi.

Ahmad al-Farg’oniy. Ahmad al-Farg’oniy ilmi-hay'at (falakkiyotshunoslik-astronomiya, riyoziyot-matematika) va jo'g'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi, hamda qator ilmiy asarlar yozib qoldirdi.

Ahmad al-Farg’oniy al-Ma'mun topshirig'iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va ularni aniqlash, yangicha “zij” yaratish ishlariga rahbarlik qildi.

Ahmadal-Farg’oniyning “Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum” (Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi) asari astronomik asar hisoblanadi. Bu asar “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” nomi bilan ma'lum bo'lib, 1145-1175 yillardan Evropada llotin tiliga tarjima etilgan. Olim “Alfraganus” nomi bilan G'arbda shuhrat topadi. Uning mazkur asaridan asrlar davomida Evropa universitetlarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonasining astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo'lgan bo'limlarini o'z ichiga olgan edi. Ahmadal-Farg’oniyning “Erdagi ma'lum mamlakatlar va shaxarlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida” asari ham mashxur. Asarda urning yumaloqligi, bir xil osmon yoritgichlarining turli vaqtda ko'tarilishi, tutilishi va tutilishlar harbir joyda turlicha ko'rinishi, masofalar o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi ham o'zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildiradi.

Abu Rayxon Beruni. Abu Rayxon Beruni Sharqning eng yorqin va ulug' siymolaridan biri hisoblanadi. Uning "Al-osor al-boqiya ani-l-hurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), ("Xronologiya"), "Qonuni Mas'udiy" asarlarida xronologiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Abu Rayxon Beruni "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida arab, eron, sug'd, xorazm, yunon kalendarlari hamda asosiy vaqt birliklari, turli vaqt o'lchovi tartiblari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Olim harbir xalqning o'z tarixi borligini ta'kidlar ekan ularning nafaqat tarixi, balki vaqt hisobi hamda kalendarlari ham bir-biridan farq qilishini ta'kidlaydi.

Abu Rayxon Beruniy "Movarounnahr otashparastlari, ya'ni Xorazm va So'g'd aholisi ishlatadigan oylarni" bayon etadi. Movarounnahrliklarning kalendaridagi oylarining soni va yilning uzunligiga ko'ra Eronliklar kalendariga o'xshashi, faqat oylarning boshlanishi orasida farq borligini ko'rsatib o'tadi. Abu Rayxon Beruniy xorazmliklar kalendaridagi oylar va kunlarining nomlarini ham keltirib o'tadi. Xorazmliklar "isfandorajiy" (o'n ikkinchi) oyining oxiriga qo'shiladigan ortiqcha besh kunning birinchisini oyning birinchi kuni nomi bilan atab, qolgan kunlarga ham birin-ketin keyingi kunlarning nomlarini berishlarini aniqlaganini ta'kidlaydi.

"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridan turkiy xalqlar o'n ikki hayvon nomi bilan ataluvchi muchal kalendar va ularning nomlari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Qolaversa, eronliklarning kalendaridagi o'n ikkita oy nomini ham shu asarda uchratish mumkin. Eronliklar tuzgan kalendarida harbir oy 30 kundan hisoblanib, qo'shimcha 5 kun o'n ikkinchi oy oxiriga qo'shilgan. Abu Rayxon Beruniyning ko'rsatishicha, bu 5 kun qadimgi eron tilida "panji", "andargoh" deb atalgan. Keyinchalik bu nom arabchalashib, "andarjoh" deb o'zgartirilgan. Bu besh kun "o'g'irlangan kun", deb ham atalgan, ular biror oy kunlari hisoblanmagan. Eronliklar ularni "obonmoq" bilan "ozarmoq" o'rtasiga g'oyib, harbir oy kunlariga berilgan nomlardan boshqa nomlar bilan ataganlar. Eron kalendarida bir yil uch yuz oltmish besh kun bo'lgan. Ular chorak kunlar bir oy bo'lmaguncha hisobga olmaganlar. Bu bir yuz yigirma yilda bir marta bo'lgan. Shunda ortiqcha oyni yil oylari qatoriga qo'shganlar va u o'n uchinchi oy bo'lgan. O'sha yilni kabisa yil deb, ortiqcha oy kunlarini boshqa oylar nomlari bilan ataganlar. Abu Rayxon Beruniyning ma'lumot berishicha, ular dastlab haftadan foydalanmaganlar. Olim bu haqida shunday ma'lumot beradi: "Dastlab haftalarni ishlatganlar G'arb tomon aholisi, ayniqsa Shom va uning tevaragida yashovchilar bo'lganlar. Bunga sabab, u tomonda payhambarlar yuzaga chiqib, Tavrotida aytilganidek,

birinchi hafta va bu haftada olam paydo bo'lganidan xabar berganlar. Keyin bu odat ulardan boshqa millatlarga tarqalgan”.

Abu Rayxon Beruniy Misr kalendariga ham to'xtalib o'tgan. U Misr kalendaridagi eski va yangi oy nomlarini o'z asarida berib o'tadi. Misrliklar qo'shimcha besh kunni “abahanno” (kichik oy), kabisali yilni esa “ang'naqt” (alamat) deb ataganlar. qo'shimcha kun so'nggi “musriy” oyining oxiriga qo'shilgan. Abu Rayxon Beruniy “Shom mamlakati” (Suriya) kalendaridagi o'n ikki oy nomlari va to'rt yilda bir marta beshinchi (shubat) oyga bir kun qo'shib hisoblashlari haqida yozadi. Bu manbaga ko'ra “Shom mamlakati” kalendaridagi oy nomlari keng tarqalgan, hatto arablar ham “dala ishlariga tegishli vaqtlarni” shu oylar bilan belgilar ekan.

Abu Rayxon Beruniy “Qonuni Mas'udiy” asarida qadimgi arab kalendaridagi o'n ikkita oy nomini keltiradi, lekin ularning faqat ikkitasining lug'aviy ma'nosini berib o'tadi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da zamonaviy arab kalendaridagi o'n ikkita oy va etti hafta kunining nomi va o'z ta'riflari ham keltiriladi. Abu Rayxon Beruniyning yozishicha, arablar yahudiylardan yilga qo'shimcha oy qo'shishni o'rganganlar va bu oyni “ayyom an-nasi” deb ataganlar. Abu Rayxon Beruniy o'z asarida milodiy yil hisobiga ham to'xtalib o'tadi. U mazkur kalendarni “rumiy kalendari” deb ataydi va bu kalendarga birinchi marta kabisa yilini Yuliy Tsezar kiritgan, deb yozadi. Olim milodiy yil hisobini qadimgi xalqlarning qator yil hisoblari bilan qiyoslaydi. “Qonuni Ma'sudiy” asarining ikkinchi kitobi xronologiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda “Qadimgi xalqlaridan qolgan yodgorliklar” asarida ko'rilgan masalalar to'ldirilib, davom ettiriladi. Asarda Eron, Bobil, Rum podshohi va arab xalifalari hukmronlik qilgan yillarining xronologik jadvallari keltirilib, ularning nomlari yunoncha transkripsiyada berilgan. Shuningdek, mazkur asarda insoniyat tomonidan qo'llanilgan eralar, jumladan Yazdigard, Iskandar, Filipp, “Buxtunassar” (Nabonassar) erasini aniqlash masalalari xususida ham so'z boradi.

Abu Rayxon Beruniyning “Hindiston” asarida bu o'lkada yashovchi xalqlarning urf-odatları, geografiyasi va u bilan bog'liq astronomiyasi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, olim burjlar, oy fazalarining o'zgarishi, hind eralari, Oy va Quyosh kalendarlari va oltmish yillik Yupiter davriyligi nomlarini keltirib o'tgan.

Umar Xayyom. Sharqning eng yirik rasadxonalaridan biri bo'lgan Isfaxon rasadxonasini 1076 yili Umar Xayyomning iltimosiga ko'ra Malikshox qurdirgan edi. Olim bu rasadxonada olib borilgan ko'p yillik kuzatishlari natijasida olim o'zining “Malikshox ziji” asarini yozadi. Umar

Xayyomning xronologiya faniga qo'shgan katta hissasi kalendar islohotiga tegishlidir. Malikshox Umar Xayyomga yil boshi Navro'zga, bahorgi tengkunlik bilan mos tushadigan yangi kalendar tuzishni topshiradi. Umar Xayyom bu davrda qo'llanib kelingan mashxur Yulian kalendarining xatosi 128 yilda bir kunga teng ekanligi va bu xatoni takrorlamaslik uchun, yangi kalendarning kabisa yillarini yangi kombinatsiyada tuzishni taklif qiladi. Yangi kalendar loyihasiga ko'ra haro'ttiz uch yillik davrning dastlabki yigirma sakkiz yilida kabisa yillari xuddi Yulian kalendaridek etti kabisa yildan, sakkizinchi kabisa yili esa odatdagidek uch yildan so'ng emas, to'rt yildan so'ng beshinchi yili qabul qilinadigan bo'ldi. Natijada, Umar Xayyom tuzgan kalendarning yil uzunligi 365 sutka 5 soat 49 minut 5,5 sekundga teng bo'ldi. Ayni vaqtda Umar Xayyom kalendarining xatoligi aniqlangan bo'lib, u 19,5 sekundni tashkil etdi. Bu, kalendaridagi xatolik 4500 yildagina bir sutkani tashkil qiladi demakdir. Mazkur natija kalendar qanchalik mukammal tuzilganligidan dalolat beradi.

Umar Xayyom kalendari Malikshox tomonidan 1079 yil (xijriy hamariy 471 yil)da qabul qilindi. Umar Xayyom kalendari Eronda XIX asrning o'rtalariga qadar qo'llanilgan. Bu kalendar Umar Xayyom kalendari deyilishi bilan birga Malikshox sharafiga "Jaloliy kalendari" ham deb yuritilgan.

Umar Xayyomning xronologiya faniga oid yana bir mashxur asari "Navro'znoma"dir. Asarda Quyosh kalendari tarixi batafsil bayon qilinadi. Navro'z kunining qanday belgilangani, bayram qanday nishonlangani to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi hamda oy nomlarining lug'aviy ma'nosini ham beradi.

Mirzo Ulug'bek. Mirzo Ulug'bek "Ziji Ko'ragoniy" asarida vaqtni hisoblash masalalariga to'xtalib o'tgan. Olim yil hisobining Sharq xalqlari qabul qilgan usullarini bayon etib, "yunon, malikiy, xitoy va uyg'ur eralari" hamda ular orasidagi farq, mazkur eralardagi bayram kunlari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. xijriy-hamariy kalendaridagi arab davriyligi, yil boshi va oy madhallarini aniqlash jadvallarini va formulalarini ko'rsatib o'tadi.

Evropada Mirzo Ulug'bek va Nasriddin Tusiyning yulduzlar jadvali katologi 1648 yilda Oksford universiteti astronomi Jon Grivas tomonidan nashrga tayyorlangan. 1650 yilda Mirzo Ulug'bek asarlarining xronologiyaga oid ma'lumotlari, Sharq xalqlarida yil hisobi, kalendarlarga doir qismlari nashr etiladi. Mirzo Ulug'bekning yulduzlar katologi 1665 yilda Tomas Xayd tomonidan lotin va fors tillarida nashr qilinadi. 1853 yilda Mirzo Ulug'bekning bu jadvallarga bergan to'liq muqaddimasini Sedillot tarjimasini bilan nashr etilgan.

4. Metrologiya fanining maqsad va vazifalari

Metrologiya fan sifatida o'lchashlar, ularga bog'liq va tegishli bo'lgan qator masalalarni o'z doirasiga oladi. Metrologiya aslida yunonchadan olingan bo'lib, o'lchash, o'lcham, nutq, mantiq, ilm yoki fan ma'nolarini bildiradi. Umumiy tushunchasini oladigan bo'lsak, metrologiya – o'lchovlar birliklarini o'rganuvchi fan.

Inson aql-idroki, zakovati bilan o'rganayotgan, shakllantirayotgan hamda rivojlantirgan qaysi fanni, uning yo'nalishini olmaylik, albatta o'lchashlarga, ularning turli usullariga, o'zaro boglanishlariga duch kelamiz. Bu o'lchash usullari va vositalari yordamida ularning birliligini, yagona o'lchashni talab etilgan aniqlikda ta'minlash metrologiya fani orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababdan hozirdagi qaysi bir fan, ilmiy yo'nalish, u xoh tabiiy, xoh ijtimoiy bo'lmasin, albatta u yoki bu darajada metrologiya bilan bogliq. Inson qo'li etgan, faoliyati doirasiga kirgan ammo o'lchashlar va ularning vositalari Zrdamisiz o'rganilgan, izlangan hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan birorta yo'nalish yo'q. Shuning uchun ham metrologiya asoslarini bilish, uni o'z mutaxassisligi doirasida tushunish va amaliy qo'llash texnika va texnologiya soxalaridagi bakalavriat yo'nalishlari bitiruvchilari uchun muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Metrologiya fani texnika, menejment va marketing sohalari yo'nalishlarida bakalavrlar va muxandislar tayyorlashda o'tilishi lozim bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Oliy ta'lim andozasidan kelib chiqib, ushbu fan talabalarda metrologiya asoslari bo'yicha zarur va etarli bo'lgan asosiy tushunchalarni shakllantiradi.

Metrologiya asoslari fanini o'rganishdan maqsad - talabalarda xalq xo'jaligining texnika-texnologiya, menejment va marketing soxalaridagi ishlab-chiqarish, savdo, nazorat va iste'mol bilan bog'liq bo'lgan turli metrologik masalalar bilan shug'ullanish borasida etarli bilim va malakalarni hosil qilishdir. Asosiy vazifalar esa talabalarni uzluksiz ta'lim tizimida metrologiya asoslari bo'yicha tayyorlashdan kelib chiqadi. Bunda maxsus fanlar doirasida rivojlanuvchi va chuqurlashuvchi metrologiya, kvalimetriya, sifatni o'lchash bo'yicha fundamental ma'lumotlar o'rganiladi.

5. Metrologiya fanining rivojlanish tarixi

O'lchashlar haqidagi fanning tarixi minglab yillarni tashkil etadi. Ushbu rivojlanish davrini uning mazmuni va mohiyatiga asoslangan holda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Antik rivojlanish davri.
2. Stixiyali rivojlanish davri.

3. Metrik tizimning joriy etilishi.
4. Metrologiya xizmatlarining integratsiyalashish davri,
5. Mustaqillik davrida O'zbekiston da metrologiyaning rivojlanishi.

Antik rivojlanish davri. o'lchashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamonlarda yuzaga kelgan. "o'lchash" atamasining tom ma'nosi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, qadimgi davrda insoniyat asosan "organoleptik o'lchashlar" -ya'ni, o'zining his etish a'zolari orqali u yoki bu fizikaviy xossa bo'yicha taxminiy ma'lumotlar olgan. Bunda mana shu his etish organlari o'lchash vositasi vazifalarini bajargan. Garchand bu kabi o'lchashlarda aniq bir qiymat olinmasa ham, har bil o'lchashda, aniqrog'i baholashda muayyan bir o'lchovga nisbatan solishtirish amalga oshirilgan. Dastlab, solishtirish o'lchovi moddiy bo'lmagan, balki insonning o'z tajribasi, zakovati va atrof-muhitni bilish darajasiga qarab individual tarzda belgilangan. Keyinchalik ish va ozuqa topish qurollari amalda ko'llana borgan sari solishtirish o'lchovlari moddiylasha borgan. Inson kundalik hayotida har hil kattaliklarni: masofalarni, er maydonlarining yuzalarini, jismlarning o'lchamlari va massalarini, vaqtni va hokazolarni bu jarayonlarning yuzaga kelish sabablarini, manbalarini bilmasdan, o'zining sezgisi va tajribasi asosida o'lchay boshlagan.

Insoniyat rivojlana borib, ish qurollarini va yashash tarzini yanada takomillashtira borgan. Yashash va mehnat sharoitlarini yanada qulaylashtirish harakatida bo'lgan. Moddiy bo'lmagan o'lchovlar bilan ishlash noqulayligi, va individualligi tufayli, uni moddiylashtirish yo'llarini axtara borgan. Shu asnoda turli o'lchash birliklari paydo bo'lgan.

Eng qadimgi o'lchash birliklari - antropometrik. U insonning muayyan a'zolariga muvofiqlikka yoki moyillikka asoslangan holda kelib chiqqan. Masalan, qarich - qo'l kafti yoyilgan holda bosh barmoq va jimjiloq orasidagi masofa, quloch - qo'llar ikki tomonga yoyilganda orasidagi masofa, qadam - balog'at yoshidagi odamning sokin odimlashidagi yurish birligi, tirsak - kaft va tirsak orasidagi masofa, chaqirim - ochiq dala sharoitida birining tovushini ikkinchisi eshita olishi mumkin bo'lgan masofa, ladoi - bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to'rttasining kengligi; fut- oyoq tagining uzunligi; pyad - yozilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa, va hokazolar.

Metrologiyaning tarixida bu kabi birliklarni joriy etishda yirik fan yoki davlat arboblarning antropometrik o'lchamlarini asos qilib olish hollari ham uchraidi. Masalan, ingliz qirolu Genrix I (XII asrning boshi) yard o'lchash birligini (91,44 sm) joriy etgan. Bunda namunaviy o'lchov

sifatida qirolning burni uchidan oldinga cho'zilgan qo'lning o'rtancha barmog'i uchiga bo'lgan masofa olingan.

Antropometrik o'lchash birliklari bilan bir vaqtda tabiiy o'lchash birliklari ham paydo bo'la boshlagan. Bu birliklar sifatida tabiatdagi ba'zi doimiy, o'zgarmas hisoblangan ob'ektlarning husueiyatlari olingan. Masalan, turli qimmatbaho toshlarning o'lchov birligi sifatida keng qo'llanilgan, "no'xotcha" ma'nosini anglatuvchi "karat", "bug'doy doni" ma'nosini bildiruvchi "gran" shular jumlasidandir.

Stixiyali rivojlanish davri. Metrologiya xizmati va metrologik ta'minot masalalarining dastlabki kurtaklari turli davlatlarda turlicha tarzda vujudga kela boshlagan. Masalan, rus knyazi Svyatoslav Yaroslavich belidagi oltin kamaridan uzunlikning namunaviy o'lchash vositasi sifatida foydalangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra knyaz davriy ravishda bozor rastalarini oralab yurib, turli mato sotuvchilarining uzunlik o'lchovlarini kamari bilan taqqoslab turgan. Agar ular orasidagi tafovut belgilanganidan ortib ketsa, sotuvchini shafqatsiz jazolagan.

Italiyada ham bu borada muayyan tartib belgilangan edi (o'rta asrlarda). Cherkov va butxonalarda aniq sondagi marvarid donalari saqlanib, ulardan sochiluvchan (dispers) moddalarning hajm va massa birliklarini hosil qilishda foydalanganlar.

Markaziy Osiyoda ham o'lchovlar va ularning turg'unligini saqlash, o'lchash qoidalariga qat'iy rioya etish masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. Aksariyat hollarda buning nazorati eng yuqori amaldorlar tomonidan olib borilgan. Masalan, islom ta'limotida to'g'ri o'lchash, ya'ni xaridor haqini urib qolmaslik (buni hozirda ham "tarozidan urib qolish" deyiladi) masalalariga juda qattiq qaralgan. Bu borada xalqimiz manaviyatiga singdirilgan "xaridorning haqi etti pushtingga uradi", "tarozidan urib qoluvchining joyi do'zahning eng to'rida bo'ladi", "xaridor haqiga xiyonat qiluvchi ollohning birinchi dushmanlaridandir" kabi iboralar bu ta'limotning isbotidir.

Tarixiy yozishmalarda davlatlar orasida urushlarning kelib chiqishlarida ba'zan o'lchashlardagi kelishmovchilik ham sabab bo'lganligi kabi ma'lumotlar ham keltirilgan.

Metrik tizimning joriy etilishi. Vaqt o'tishi bilan savdo-sotiq va o'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi mobainida o'lchovlarga aniqlik kiritish, yangilarini hosil qilish, o'zaro solishtirish va qiyoslash usullari shakllanib, o'nlab yangi va mukammalroq o'lchash birliklari hosil bo'la boshlagan. Bu birliklarning o'zaro bogliqligi masalalari esa tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Shu bois olimlar bir asosiy kattalikning o'lchash birligini boshqa asosiy kattalikning o'lchash birligi bilan

bog'liqligini ta'minlash ustida bosh qotira borganlar. Bunda yana bir talab - kattalikning turli o'lchovlarining qiymatlari orasidagi o'zaro bog'liqlik muayyan qonuniyat asosida bo'lishini ta'minlash lozim bo'lgan. Uzoq tadqiqotlardan so'ng olimlar qadimgi Babil davlatida qo'llanilgan "o'nlik tizimi"ga qaytishgan. Aynan shu tizim asosida metrik tizim ta'xis etilgan.

Metrik tizim 1875 yil 20 mayda Parijda 20 ta mamlakatlar vakillarining konferentsiyasida qabul qilingan va Metrik Konventsiyasi nomini olgan. Metrik Konventsiya metrologiya bo'yicha ilmiy faoliyat ko'rsatuvchi birinchi xalqaro kelihuv hisoblanadi. Konventsiya metrik etalonlarni saklash va tekshirish uchun ilmiy muassasa sifatida o'lchovlar va tarozilar xalqaro byurosini ham ta'xis etadi.

Shu asnoda yuqoridagi talablarning to'liq ta'minlanishiga erishilgan, ya'ni kattalikning turli qiymatlari o'zaro o'nga karrali bog'lanishda bo'lgan bo'lsa, bir nechta asosiy kattaliklarning birliklari orasida o'zaro bog'lanishga ham erishilgan (Er meridianining qirq milliondan bir ulushi bo'yicha – "metr", bir kub detsimetr suvning temperaturasi 4°S bo'lgandagi massasi – "kilogramm" va hokazolar).

Fan va texnikaning rivojlanishi har xil kattaliklarning o'lchamlarini muayyan o'lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi. Bunday faoliyat jarayoni va rivojlanishi davomida o'lchashlar haqidagi fan, ya'ni metrologiya yuzaga keldi.

Rossiyada o'lchovlarni metrik tizimi 1899 yil 4 iyun kuni qonun bilan ixtiyoriy tartibda qo'llanishga, majburiy tartibda esa Rossiya XKS 1918 yil 14 sentyabrda chop etilgan dekretiga muvofiq qo'llanishga qabul qilingan.

O'rta Osiyo da o'lchovlarning metrik tizimi 1923 yil 18 aprel Turkiston Respublikasi XKS qarori bo'yicha "o'lchovlar va tarozilar to'g'risida Nizom" tasdiqlangan va ichki savdoni yo'lga qo'yish bo'yicha qo'mita huzurida o'lchovlar va tarozilarning Turkiston byurosi tuzilgandan so'ng boshlangan.

Metrologiya xizmatlarining integratsiyalashish davri. XX asrdagi ilm-fan va texnikaning, shu jumladan davlatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning shiddatli tusdagi rivojlanishi metrologiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bundagi asosiy maqsadlardan biri - o'lchash birliklarining turli tumanligiga barham berish, umumiy qabul qilingan o'lchash birliklarini joriy etish, mahsulotning sifatini nazorat etishda umumiy qoidalarni amalga oshirish hisoblangan. Shu asnoda o'tgan asrning o'rtalarida asosiy iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar o'rtasida SGS va MKGSS tizimlari joriy etildi. Uning mantiqiy yakuni sifatida 1960 yil o'lchovlar va og'irliklarning XI Bosh konferentsiyasida birliklarning

yagona xalqaro birliklar tizimi (81) joriy etildi. Bizning mamlakatimizda ushbu tizim 1982 yilning 1 yanvaridan boshlab GOST 8.417-81 asosida joriy etilgan.

Mustaqillik davrida O'zbekiston da metrologiyaning rivojlanishi. hozirda metrologiya sohasi yanada tez rivojlanmoqda chunki sanoatning rivojlanishi, hozirgi zamon talablarining bajarilishi nazorat-o'lchash asboblari bog'liqdir. Bu esa O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Chunki sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston ga asosan hom-ashyo yaratishga asoslangan davlat sifatida qaralar edi. Bundam 15-20 yil muqaddam respublikamizda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 70-80 foizi xom ashyo (asosan qishloq xo'jalik) mahsulotlari bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib YaIMning tarkibida turli xizmat turlari, iste'molga taqyor sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari urin olgan. Respublikamizning eksport salohiyati salmoqli ortishiga erishildi. Mamlakatimiz o'z avtosanoatiga, energetikasiga, kommunikatsiyasiga ega bo'ldi, Xalqaro standartlashtirish tashkilotining to'la huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida, qisqa davr ichida mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning sifati va xavfsizligini o'lchash vositalari, o'lchash uslubiyatlari, malakali mutaxassislar, bir so'z bilan aytganda metrologik faoliyat talablarini amalga oshiradigan Metrologiya bo'yicha Milliy idora sifatida dastlab O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi "o'zdavstandart" (1992), keyinchalik esa "o'zstandart" agentligi (2002) tashkil etildi. Shu bois barcha o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi (o'BTDT) xam yaratildi. Bu tizim milliy qonunchilik talablari bilan bir qatorda Metrologiya bo'yicha xalqaro va regional tashkilotlar tartib qoidalari asosida tashkil etildi.

Shunday qilib boshqa davlatlar bilan bir qatorda o'zbek metrologiyasi turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'tib, shakllandi, rivoj topa boshladi va hozirda ham takomillashib rivojlanib kelmokda. Akademiklardan M.Z. Xamidxonov, D.A. Abdullaev, N.R. Yusupbekov, V.q. qobilov, T.D. Rajabov, professorlardan O.A. Azimov, R.K. Azimov, M.F. Zaripov, h.M. g'ulomov, X.Z. Igamberdiev, P.R. Ismatullaev, B.I. Muxamedov, O.Sh. Xakimov va ko'plab fan nomzodlari, olimlar, tajribali metrologlar o'zbek metrologiyasining rivojiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Bu boradagi yana bir muhim ahamiyatga molik bo'lgan ijobiy yangilik sifatida respublikamizda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida milliy kadrlar tayyorlash tizimini shakllanganligini ko'rsatib o'tish lozim. Agar, sobiq Ittifoq davrida mazkur sohadagi mutaxassislar asosan Rossiya o'quv muassasalarida

tayyorlangan bo'lsa, endilikda o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislar mahalliy ta'lim muassasalarida tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ushbu masalaga jiddiylik bilan kirishildi va 1992 yilda prof. P.R. Ismatullaevning tashabbusi bilan mazkur sohada mutaxassis tayyorlovchi kafedra Toshkent Davlat texnika universiteti tarkibida tashkil etildi. Mazkur kafedra bazasida har yili o'nlab standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida oliy ma'lumotli bakalavr va magistr akademik darajasidagi yosh mutaxassislar hayotga yo'llanma olmoqdalar. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirishning qariyb 40 dan ziyod yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash "o'zstandart" agentligi qoshidagi "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish" ilmiy-tadqiqot institutida faollik bilan olib borilmoqda.

6. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi qonuni

Ma'lumki, 1993 yilning 28 dekabrda Prezidentimiz tomonidan ketma-ket uchta, ya'ni "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida" va "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish" qonunlari imzolangan edi. Bu qonunlarning hayotga tadbiq etilishi respublikamizdagi mavjud metrologiya xizmatini yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga asos bo'ldi. Shulardan biri, ya'ni "Metrologiya to'g'risida"gi qonun respublikamizda metrologiyaning rivojlanishiga va metrologik ta'minot masalalarini hal etishning mutlaqo yangi bosqichiga olib kirdi.

"Metrologiya to'g'risida" gi qonun 5 bo'limdan iborat bo'lib, bu bo'limlar 21 moddani o'z ichiga olgan. Respublikamizda metrologiya xizmatini yo'lga qo'yish va bunda jismoniy va yuridik shaxslarning ishtiroki va funktsiyalari, bu boradagi javobgarliklar bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan.

qonunda ko'rsatilganidek, o'lchash vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, ularning turlarini tasdiqlash va davlat ro'yxatiga kiritish "o'zstandart" agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda yana bir masala - davlat ro'yxati belgisini qo'yish to'g'risida ham bayon etilgan. "Metrologiya to'grisida" gi qonunda aytilishicha, tasdiqlangan o'lchash vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat ro'yxati belgisi qo'yilishi shart.

Ma'lumki, ishlab chiqarishdagi o'lchash vositalarining holati va ularni vaqti-vaqti bilan qiyoslashdan o'tkazib turish har doim e'tiborda bo'lmoqligi lozim. Ular bo'yicha ro'yxatlar tuziladi va o'lchash vositalari turkumlarining ro'yxati "o'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ilmiy-tadqiqotlar bilan bog'liq o'lchash vositalari, asboblari, qurilmalari hamda o'lchovlari "Metrologiya to'g'risida"gi qonunning 17-moddasi asosida "o'zstandart" agentligining davriy ravishda qiyoslashdan o'tkazilib turilishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari guruhining ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, shu qonunning 7-moddasiga binoan, amaliy foydalanishda bo'lgan o'lchash vositalari belgilangan aniqlikda va foydalanish shartlariga mos holda, qonuniy birliklardagi o'lchash natijalari bilan ta'minlashlari lozimligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Xronologiya fanining asosiy maqsad va vazifalari nima?
1. Tarixiy va astronomik xronologiyaning asosiy farqi nimalarda ko'rinadi?
2. Evropada xronologiya fani qaysi davrda vujudga keldi va rivojlanib bordi?
3. Metrologiya fani va uning vazifasi nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
4. "Metrologiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan?
5. Metrologiyaning rivojlanish bosqichlari haqida nimalar bilasiz?
6. O'rta Osiyo olimlarining xronologiya rivojlanishiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot to'plang.

Adabiyotlar:

1. Бикерман Э. Хронология древнего мира.-М.: Наука. 1975.
2. Каменцева Е.И. Хронология.-М.:Высшая школа. 1967.
3. Кары-Ниязов Т.Н. Астрономическая школа Улугбека.-М., 1950.
4. Климишин И.А. Календарь и хронология.-М.: Наука. 1990.
5. Мамадазимов М. Улуғбек ва унинг расадхонаси.-Т.: Ўзбекистон. 1994.
6. Пронштейн А.П., Кияшко В.Я. Хронология.-М.: Высшая школа. 1981.
7. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T., 2008.
8. Цыбульский В.В. Современные календари стран Ближнего и Среднего Востока: Синхронистические таблицы и пояснения.-М.: Наука. 1964.
9. Qodirov A. Vaqt va kalendar.-T.: O'zbekiston . 1977.
10. Hakimov M. Turkiston xalqlari qo'llagan taqvimlar.-T., 1999.

VII BOB. DIPLOMATIKA

1. Diplomatiqa. Diplomatiq hujjatlar tarixi

Diplomatika (yunoncha “Diploma” – ikki buklangan qog’oz; hujjat) rasmiy hujjatlarni o’rganish va tahlil qilish bilan shug’ullanuvchi yordamchi tarix fani hisoblanadi.

Diplomatika - bu huquqiy xarakterga ega bo’lgan, shu bilan birgalikda muallifi va manzil egasi yoki kontragentlar (kelishuv yoki shartnoma ishtirokchilari) ko’pincha nafaqat manzil egasi balki unga aynan o’xshash bo’lmagan kontragent, yani bitim yoki shartnomaning ikkala tomonlari ko’rsatilgan hujjatlarning saqlanish taqdirini va matnni qayta tiklash tarixi, ularning kelib chiqishi, shakli va mazmuni, amal qilish jarayonini o’rganuvchi fan sohasi.

Lotin tilida “diplomatica” so’zi “diplomlarga aloqador, diplomlarga taaluqli” degan manoni anglatgan. Ushbu fanning nomi frantsuz monaxi, olim Jan Mabilonning (lotin-rus odatiga ko’ra Mabilyon, frantsuzcha Mabiyon) “Diplomatikaga oid (yoki diplomlarga doir) narsalar to’g’ridagi olti kitob” nomli asaridan olingan (“De re diplomatica libri sex” (1681). Aslida sifat bo’lgan ushbu so’z keyinchalik otlashgan va mustaqil tushuncha- otga aylangan. Bu so’z o’zining lotin tilidagi shaklini italyan, ispan, portugal tillarida to’liq saqlab qolgan. Boshqa bir qator tillarda esa uning faqatgina qo’shimchasi o’zgargan. Masalan diplomatique (frantsuz), diplomatics (ingliz), diplomatica (rumin tilida).

Diplomatika so’zini ifodalash uchun nemis tilida Urkundenlehre (yorliqlar to’g’risidagi talimot), Urkundenforschung (yorliqlarni tadqiq qilish) kabi atamalar qo’llanadi. Keltirilgan so’nggi atama (ya’ni diplomatica) umumevropaga xos xarakterga ega bo’lganligi bois nemis ilmiy adabiyotiga kiritilgan. Atamalarni ishlatish jarayonidagi o’xshashlikni venger tilida kuzatish mumkin. Bunga umumevropaga xos bo’lgan diplomatiqa atamasi bilan bir qatorda maxsus “okleveltan” (diplomlar haqidagi bo’lim) so’zi ishlatiladi.

Slavyan tillarida esa ushbu atamaning lotin tilidagi yoki unga ancha yaqin bo’lgan shakllari tarqalgan. Asl va qalbaki yorliqlarni bir-biridan farqlashdagi amaliy zaruriyatdan kelib chiqib, diplomatiqa o’rta asrlar davrida va yangi davrning boshida asosiy e’tiborni qirol va imperator yorliqlarini o’rganishga qaratdi. Bu yorliqlar asosan yirik zamindor va oliy ruhoniylarning erga bo’lgan huquqi va daxlsizlik huquqlarini mustahkamlagan. Diplomatiqada nafaqat dunyoviy hokimiyat tarafdorlarining shaxsidan kelib chiqqan hujjatlar, balki papa (Rim papasi) ma’muriyatining yorliqlari ham ushbu fanning o’rganish ob’ektiga aylandi.

XIX-XX asrlarda, shuningdek, diplomatikaning shaxsiy, yani davlat ishlariga aloqador bo'lgan aktlarni o'rganish sohasi ham rivojlandi.

Yunon tilida diplom so'zi ("diploo"- buk'lamoq, ikki qatlamoq) milodiy I-II asrlarda Plutarx (40-120 yillar) tomonidan hujjatlarni ta'riflash maqsadida foydalanilgan. Ehtimol, ushbu so'zning iste'molga kiritilishi lotin tilining ta'siri bilan bog'liqdir. Diploma atamasi lotin tilida eramizdan avvalgi I asrlarda mahaliylashgan va xilma-xil ko'rinishdagi hujjatlardan boshqa narsani anglatmagan. Tsitseron (er. avv. 106-143 yillar) quyidagilarni diplom deb ataydi:

1. Markaziy hokimiyat tomonidan topshiriq bilan chekka viloyatlarga yuborilgan kishilarga beriladigan rasmiy tavsiyanoma.
2. Avf qilish to'g'risidagi yorliq.

Seneka (er. avv. 55-milodiy 39 yillar), Tatsit (milodiy 55-120 yillar) va Kichik Pliniy diplom so'zi ostida safar yorlig'ini, Seneka va Svetoniy (75-160 yillar) daxlsizlik yorlig'ini tushunishgan. Svetoniy yana diplom – Rim fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi yorliq deb tushungan. Keyinchalik Makrobiy (IV-V asrlar) xat va yozishmalarni diplom deb ataydi.

Rim diplomlarining birgina turi bu harbiy diplomlar deb nomlangan diplomlardir. Ularning namunalari bizning kunlarga saqlanib qolgan. Ular harbiylarga uzoq muddat xizmat qilganligi uchun Rim fuqaroligiga o'tish va qonuniy nikohlanish huquqini bergan. Ehtimol, Svetoniy, Rim fuqaroligini taqdim etuvchi diplomlar haqida gapira turib harbiy diplomlarni nazarda tutgan bo'lishi mumkin. harbiy diplomlar odatda simlar bilan birlashtiriladigan ikki bronzadan yasalgan tasma (plastinka) dan iborat bo'lgan. Shundan ularning nomi diploma yani "ikki buklangan" degan ma'noni bildiradi.

Harbiy diplomlar 52-yildan 301-305 yillargacha bo'lgan oralig'da ma'lum bo'lgan. 1880 yillarda 70 ta shunday diplomlar topilgan va nashr etilgan. XIX asr oxirida bu raqam 81 taga oshgan, 1955 yilda esa 189 taga etgan. harbiy diplomlar Rim qo'shini yordamchi qismlarining tarixi bilan aloqadorlikda o'rganilgan, negaki ular aynan ushbu bo'linmalarining askarlari va faxriylariga hamda flot dengizchilariga berilgan. Askarlar esa o'z navbatida Rimning chekka viloyatlarida yashagan va asosiysi Rim fuqaroligi huquqiga ega bo'lmagan. Xalq orasidan to'plangan yordamchi qo'shin va flot askarlari va faxriylari ko'p yillik beminnat xizmati uchun mukofot sifatida ushbu huquqlarga ega bo'lishardi.

Diplomlar alohida askarlar va ularning oilalariga taalluqli edi, ammo yo xizmatda qolgan, yo bo'lmasa muayyan bir qo'shin bo'linmasidan iste'foga chiqqan askarlarning butun guruhiga beriladigan, imperator

tomonidan taqdim etiladigan imtiyoz asosida yozilgan (dimissi konesta missione). Bundan keyingilari esa umumiy imtiyozda qanday bo'lsa, aniq bir kishiga beriladigan alohida diplomda ham shunday sanab o'tiladi. Umumiy imtiyoz bronzadan yasalgan taxtachada o'yib yozilgan qonun ko'rinishida rasmiylashtirilardi. Ushbu taxtacha ommaga ko'rsatish uchun Rim Kapitoliyning u yoki bu eriga, avvallari Yuliy naslining mehrobiga, 93 yildan esa doim Minerva ibodatxonasi ortidagi devorga o'rnatilardi. Diplomning matnida asosan o'sha qonunda keltirilgan matn to'lig'icha takrorlangan, ammo uning oxirida mazkur faxriyning ismi-sharifi ko'rsatilgan.

Diplom matnining boshida imperatorning maqomi va oliy davlat amaldorlarining mavqei birma-bir ko'rsatilgan. Shuning uchun keyinroq imperator va qirollar nomidan berilgan tantanavor aktlar "diplomlar" bilan birgalikda tushuniladigan bo'lgan, yani qo'shib yuborilgan. Matn bronzadan yasalgan hamda birlashtirilgan tasmlarning ichki va tashqi tomonlarida joylashtirilgan, shu bilan tashqi va ichki taraflarning matnlari bir-biriga o'xshash bo'lgan. Diplomlar 7 guvohning muhri bilan mustahkamlangan. Muhrlar tasmlardagi maxsus teshiklar orqali o'tkazilgan sim yordamida mustahkamlangan. Diplomlarning juda ko'pchiligida ushbu muhrlar saqlanib qolmagan. Rim diplomlari ish yuritish hujjatlaridan yozish uchun ishlatiladigan material vositasida farqlangan. Chunki Rim diplomlari yuqorida aytilganidek bronzadan yasalgan taxtachalarga yozilgan. Rimda ko'pchilik ish yuritish hujjatlari, kvitantsiyalar, hisob qog'ozlari, tijorat shartnomalari, ijaraga oid bitimlar va shunga o'xshash narsalar papirus po'stlog'iga yoki yog'ochdan yasalgan, ustiga mum surtilgan jadval ustunlariga yozilgan. Odatda, ikki yoki undan ortiq yog'ochdan yasalgan jadvallar chetidan teshilgan va ikki-uch teshik orasidan o'tkazilgan bog'ich yordamida birlashtirilgan.

Agar diplomlar ommaviy-huquqiy hujjatlar bo'lsa (ular hokimiyat organlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan), mum qoplangan yozuvli jadval ustunchalar shaxsiy huquqiy asosga ega edi. Manbalarning mazkur ikki guruhlarida qo'llaniladigan yozuv materialining farqi shu bilan izohlanadi. Mum jadval ustunlar ko'p marotaba foydalanish uchun mo'ljallangan. Metalldan yasalgan diplomlardagi matnni o'zgartirish mumkin bo'lmagan. Balki hukumat qarorlari va buyruqlarini mustahkamlashning bunday usuli rasmiy hujjatlarni qalbakilardan saqlovchi, ularga tantanavorlik baxsh etuvchi, ularning yuridik kuchini uzoq muddat saqlashga imkon beruvchi usul sifatida qaralgandir.

Yangi davrda diplomlar ma'lum shaxsga tantanali ravishda taqdim etiladigan unvon va mansabni mustahkamlaydigan hujjatdir. Bronza

jadvallar shakli o'tmishda qolib ketdi. Oliy hokimiyat vakillarining yorliqlari yangidan tashkil topgan Evropaning "varvar" davlatlarida papirus va pergament, ya'ni teridan ishlangan yupqa matolarga yozilardi va ular ochiq varaq holida namoyon bo'lardi, faqatgina XIII-XIV asrlarda diplom deb atalgan yopiq xatlar paydo bo'ldi. Ammo ular shakliga va yozuv materialiga ko'ra kamdan-kam Rim diplomlarini eslatardi.

Rim diplomlarining mazmuni rasmiy hujjatlar kabi so'ngi o'rta asrlar adabiyoti va ilm-fanida ushbu atamaning qo'llanilishidagi o'ziga xoslikka sabab bo'ldi. Fanda Rim ta'siri shu bilan ifodalanadiki qirol va imperator yorlig'i kategoriyalari "diplom" deb atala boshladi. Ular dabdabali shaklga ega, jismoniy va yuridik shaxslarning muayyan imtiyozi va ustunliklari aniq belgilab qo'yilardi. Belgiya tarixchisi Bonanfanning fikricha qirol hokimiyati aktlarini diplom deb atash mumkin. Chunki bu aktlar o'z egasiga bojxona to'siqlarisiz bir joydan boshqa joyga o'tish, daxlsizlik huquqi bilan bog'liq imtiyozlarni taqdim qilgan. Shuningdek, u cherkovning boshqaruv va tartibga solishga doir yorliqlarni ham diplomlar deb xisoblaydi. Masalan, ushbu yorliqlarning birida papa tomonidan biror bir kishining cherkovdan chetlatish to'g'risidagi e'loniga episkop o'z roziligini bergan.

Yangi davrda muayyan unvon yoki maqomdagi kishiga tantanali shaklda taqdim etishni mustahkamlovchi rasmiy hujjatlar "diplom nomini oldi. "Diplom" so'zi shunday qilib lotincha atama bo'lishdan to'xtadi. U Evropa tillarining so'z boyligini to'ldirib, ularning milliy tillari tarkibiga kirdi. XVIII asrda yangi frantsuzcha tuzilish "diplome" yorliqni anglatardi.

Boshlang'ich invokatsiya va kontsellariyani eslatib o'tish diplomlarda uzaytirilgan yoki bo'rttirilgan harflar bilan yozilardi. Diplomlar XIV asrning boshida Frantsiyada topshirilmay qo'ydi. Yorliqlar diplomlardan boshlang'ich invokatsiya, monogramma va asosiy mansabdor shaxslar ro'yxatining yo'qligi bilan farq qiladi. Bular boshqa turli xil qirollik aktlarida ham yo'q. Ularning hammasi hujjat tuzilayotgan shaxsning maqomi va ismi – sharifidan boshlanadi.

Yangi davrda esa tantanavor hujjatlar diplomlar kabi hashamdor qilib tuzilgan va ko'pincha pergamentga yozilgan. XVIII asrda diplom atamasi u yoki bu faxriy unvon va mansabni taqdim etuvchi yorliq ma'nosida ishlatilgan. Shuningdek, ko'pgina Evropa mamlakatlarida oliy o'quv yurtlarida topshiriladigan hujjatlar diplom deb atala boshladi. Bu diplomlar bakalavr, doktor, keyinchalik muhandis kabi ilmiy unvon va darajalarni belgilab bergan. XIX asrdning ikkinchi yarmidan diploma so'zi

fuqarolik huquqiga ega bo'ldi va diplomdan kelib chiqqan sifat ma'nosida ishlatila boshladi.

XVIII asrda lotincha “diplomaticus” so'zidan tarjima qilgan frantsuz tilidan sifat bo'lgan “diplomatie” so'zini hosil qildi. U quyidagi ma'nolarga ega edi:

1. Diplom va yorliqlarga taalluqli (1708 yil).
2. Shartnomaga oid (1726 yil).

Rossiyada diplomlar graf va baronlar qadr-qimmatiga oshirish maqsadida XVIII asrning boshida kiritilgan. 60-yillar birinchi yarmidan yangi ta'sis etilgan dvoryanlik martabasiga diplomlar tuzish amaliyoti joriy etiladi. 70-yillarning boshidan esa eski dvoryanlikni tasdiqlovchi diplomlar tuzila boshlandi. Pavel I zamonida mansabiga ko'ra dvoryanlik darajasiga ko'tarilish diplomlar beriladigan bo'ldi.

Aleksandr I davrida dvoryanlik diplomlarini tayyorlash, ularga adliya vazirligi tomonidan qonuniy tus berish va imperator tomonidan imzolash kabi tartiblar belgilab qo'yilgan farmonlar va ko'rsatmalar paydo bo'ldi. 1852 yilda yangidan Geraldiya departamenti tomonidan dvoryanlikka taqdim etiladigan diplomlardan olinadigan o'lponlarning hajmi ko'rsatilgan edi. 1867 yilda esa obro', mansab va mulkka beriladigan diplomlardan (yorliqlardan) soliq olinadigan bo'ldi. XVIII asr 60-yillarining boshida Rossiyada Badiiy Akademiyaning ilmiy darajalariga taqdim etiladigan diplomlar ta'sis etildi. XIX asrning yarmiga kelib tibbiyot sohasidagi unvonlarga beriladigan universitet diplomlari uchun soliqlarni olib tashlashni nazarda tutuvchi farmonlar, qonun hujjatlari paydo bo'ldi.

Bizning davrimizga kelib, oliy o'quv yurtini tamomlaganligi, ilmiy darajani tasdiqlovchi, shuningdek, ishlab chiqarish yoki jamoat faoliyatining u yoki bu sohasida, sportda erishgan yutuqlari va buyuk xizmatlari qayd etilgan hujjatlar diplom deb ataladigan bo'ldi. Diplomatika - bu tor ma'nodagi shunchaki diplomlar haqidagi fan emas, balki ancha keng miqyosda tushunish uchun hujjatlar to'g'risidagi fandır.

2. Diplomatika fanining ob'ekti va predmeti

Diplomatikaning ob'ekti goh “hujjatlar”, gohida esa “aktlar” hisoblanadi. Zero ushbu ikki tushunchaning mazmunini aniqlash yoki ta'riflashda kelishmovchilik kuzatiladi. hujjatlarga ularning ostida ongli ravishda biriktirilgan ma'lumotni olib yuruvchi moddiy ob'ektlar tushuniladi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) har qanday materialdagi va har qanday belgili tizimga ega bo'lgan, yozuv va tasviriy manbalar;

2) inson tomonidan yaratilgan, o'zida yozuv va surat holdagi ma'lum bir ma'lumotni tashuvchi moddiy yodgorliklar (shu jumladan imorat va inshootlar, mexanizmlar, idish-tovoq, qurol-yarog');

3) maxsus yozish uchun ishlov berilmagan va inson tomonidan tushirilgan rasm va belgilarga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlar (shu jumladan, toshlar, yog'ochlar).

So'nggi ikki guruh ob'ektlar o'z holicha ma'lumot tashuvchi funktsiya vositasida kelib chiqmagan. Ushbu funktsiya hujjat yuritish adabiyotida hujjatning asosiy va umumiy funktsiyasi deb tan olinadi. Ularda ma'lumotning saqlanishiga, o'zi tashib yurishiga doir funktsiya goh yordamchi funktsiya (inson tomonidan yaratilgan barcha narsa - buyumlarda), ba'zan keyinchalik qo'shilgan funktsiya (tabiat predmetlarida). har qanday holatda hujjat sifatida faqat to'lig'icha ma'lumotni saqlash va tashish funktsiyasini bajarish uchun mo'ljallanmagan ushbu predmetlarning yuza qismi, sirtini ko'rib chiqish mumkin.

Hujjat tushunchasi mazmunining haddan ortiq kengayishi o'zining asosida manba yoki tarixiy manba tushunchasiga yaqinlashuvi mavjud. hujjatshunoslar barcha manbalarni ikki katta guruhga bo'ladi: shunday manbalarki, ular oldindan mo'ljallangan, amalga oshirilgan va oldin mo'ljallangan ma'lumotlarga ega bo'lmagan manbalar (ham inson qo'li bilan yasalgan va yasalmagan yozuvsiz va rasm, tasvirlarsiz predmetlar).

Shu bilan birga manbaning o'zida ma'lumotni jamlaganligi - bu uning funktsiya emas, balki xususiyatidir. hattoki ma'lumotni jamlash uchun mo'ljallangan manbalar manbalarni etkazish va uzatish vajidan yaratilmaydi, balki ma'lum bir ma'lumotni etkazish vositasida ta'sir o'tkazishning ma'lum funktsiyasini bajarish uchun yaratiladi. o'zida ma'lumotni amalga oshirishni maqsad qilgan tarixiy manbalar eng avvalo, manbalarni kelib chiqishi faqat ijtimoiy tahlil olamida tushunilgan bo'lishi mumkin.

3. Rasmiy yozishmalar (diplomatika)ga doir manbalar

“Maktuboti Temuriya” hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan, 191 varaqli XUI asrda kitobat qilingan maktublar majmuasining nomidir.

Eronlik olim Abulhusayn Navoiy mazkur majmuaga Eron, Turkiya, Oxarbayjon va Fors hukmdorlarining xatlarini ham qo'shib, 1991 yili “Isnod va maktuboti tarixi Eron (az Temur to shoh Ismoil” nomi bilan nashr etgan. Mazkur to'plamga Amir Temur va temuriylar (Shohruh,

Sulton husayn va boshqalar)ning Fors, Ozarbayjon, Iroq va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalari jamlangan.

Bu yozishmalar Amir Temur va temuriylarning mazkur mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari tarixini o'rganishga, xususan Amir Temurning 1381-1404 yillari Eron, Iroq, Ozarbayjon, Suriya va Turkiya ustiga qilgan harbiy yurishlarining saboqlarini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Mazkur to'plam haydar va Er o'g'lining "Majmuayi munshaot", xoja Shahobiddin Abdulla Marvaridning "Munshaot", Frudunbekning "Munshaoti Fridunbek" asarlariga ham asoslangan.

"Maktuboti Temuriya" xurosonlik mashhur shayx, Amir Temurning pirlaridan biri Zayniddin Abubakr Taybodiy (1395 yili vafot etgan)ning o'z muridi amir Temurga yo'llagan bir tarixiy maktubi bilan boshlanadi. Amir Temur bu maktubni "Temur tuzuklari"ning "Tadbirlar va kengashlar" deb atalgan birinchi maqolasida keltirgan.

"Maktuboti Allomiy" – "Maktuboti Abulfazl", "Inshoyi Abulfazl" ("Abulfazl (Allomiy) tarafidan bitilgan (va ko'chirilgan) maktublar")i deb ham ataladi. Maktublarning asosiy qismi Boburiylar saltanati (1526-1858)ning atoqli podshohlaridan Jaloliddin Akbar (1556-1605) nomidan, bir qismi vazir va yirik tarixchi olim Abulfazl ibn Muborak Allomiyning shaxsiy mazmundagi maktublaridan iborat. To'plam uch qismga bo'lingan. Undan bizga uchdan ikki qismi, ya'ni ikkita daftari etib kelgan, xalos. U Allomiyning qarindoshi Abdusamad ibn Afzal Muhammad tarafidan tuzilgan.

"Maktuboti Allomiy"da 1586-1596 yillarda Buxoro va Balx xonliklari bilan Boburiylar davlati (hindiston) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida o'ta qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

"Maktuboti Abulfazl" majmuasining yaxshi bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud.

"Muraqqa'yi Mir Alisher" yoki "Majmua'yi murosilot" ("Maktublar to'plami") o'z davrining nufuzli ruhoniylari – Abdurahmon Jomiy (1414-1492), xoja Ubaydulla Ahror (1404-1492), xoja Arorning o'g'li xoja Muhammad Yahyo (1500 yili o'ldirilgan), xoja Ahrorning safdoshi va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriy (1495 yili vafot etgan) va boshqalarning Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469), Sulton husayn Mirzo va Alisher Navoiyga yo'llagan maktublarini o'z ichiga oladi.

Ushbu to'plam Alisher Navoiy tomonidan tuzilgani uchun "Muraqqa'yi Mir Alisher" yoki "Navoiy albomi" nomi bilan ham ataladi. To'plam XIX asr yirik ziyolilaridan biri Buxoro qozi kaloni Shariyjon

Maxdum sadri Ziyo kutubxonasida bo'lgan va undan Alisher Navoiy nomidagi Xalq kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari bo'limiga, va undan keyin – 1943 yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondiga o'tkazilgan.

To'plamda Abdurahmon Jomiyning xatlari 334 bo'lib, ular shaxsiy mazmunda bo'lib, ko'pchiligi har xil iltimosnomalardan iborat. Ularda soliq va jarimalarning og'irligi va soliq yig'uvchilarning zulmu bedodligi, Temuriyzodalarning o'zaro nizosi tufayli mamlakat va xalq ahvolidan og'irlashgani, shuningdek, madrasa talabalariga yordam berish to'g'risidagi Alisher Navoiy, Sulton husaynga iltimosnomalardan iborat.

Xoja Ahrorning maktublariga kelsak, ular 128 ta bo'lib, ular mazmunan Abdurahmon Jomiy xatlariga o'xshashdir. Ularda Movarounnahr va Xurosonning XU asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Samarqand hokimi Sulton Abu Said Mirzo(1451-1469) va Xuroson podshohi (1469-1506) o'rtasidagi og'ir munosabatlar, soliq va jarimalar, xususan tamg'a solig'ining og'irligi va uni imkoni bo'lsa bekor qilish masalalari ko'tariladi. Tinimsiz harbiy yurishlar va o'zaro urushlarning pirovardida fojeaga olib kelishini Temuriylarga uqdirishga harakat qilinadi.

Sayyid Amir haydar Bahodirxon maktublari yoki "Majmu'ayi maktuboti Sayyid Amir haydar Bahodirxon" nomli to'plamda Mang'itlar sulolasi (1753-1920)ning yirik namoyondaoridan biri Amir haydar(1800-1826)ning o'ziga yaqin amirlaridan Muhammad Inoqqa (keyincha oliy qushbegi) yo'llagan turli masalalarga doir muboraknomalari (biron mansabga tayinlanishi yoki zafar quchganligini tabriklab yuboriladigan maktub), inoyatnomalari (biron mulk berish yoki mansabga ko'tarish) va boshqa 900 ga yaqin 10 yil davomida, 1814-1824 yillar yozilgan maktublari, jamlangan. U 464 varaqli, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. XIX asrning birinchi yarmida ko'chirilib, kitob holiga keltirilgan.

Maktublarda Buxoro amirining ma'muriy-xo'jalik faoliyati, shuningdek uning davrida amalda bo'lgan qonun-qoidalar, er egaligining turlari, suyurg'ol, tanho, mulki xurriy xodis hamda soliqlar-xiroj, zakot, ushrlar haqida muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

Savol va topshiriqlar:

1. Diplomatik hujjatlarga nimalar kiradi?
2. Diplomatika fani qachon shakllangan?

3. Amir Temur va temuriylarning boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari tarixini o'rganishda qaysi asar muhim o'rin egallaydi?
4. Sayyid Amir haydar maktublarida nimalar jamlangan?
5. Tarixiy adabiyotlar hamda o'zR MDA jamg'armalaridan diplomatik yozishmalarga doir ma'lumotlar to'plang.

Adabiyotlar:

1. Ардашев Н.Н. Дипломатика. Лекции, читанные в 1907-1908 учебном году в Московском Археологическом институте.-СПб., 1911.
2. Белецкий С.В., Дмитриева З.В. и др. Специальные исторические дисциплины: Учеб. пособие.-СПб., 2003.
3. Каштанов С.М. Дипломатика как специальная историческая дисциплина // Вопросы истории. 1965, №1.
4. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы.-М., 1969.
5. Каштанов С.М. Очерки русской дипломатики.-М.: Наука. 1970.
6. Митяев К.Г. Документоведение, его задачи и перспективы развития // Вопросы архивоведения. 1964, №2.
7. Tarixiy manbashunoslik. / o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar A.A. Madraimov, G.S. Fuzailova.-T.: Fan. 2006.
8. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T., 2008.

VIII BOB. GERALDIKA VA SFRAGISTIKA

1. Geraldikaning tarixiy fanlarni o'rganishdagi amaliy ahamiyati

Geraldika va gerald so'zining kelib chiqishi lotin tilidagi Heraldica bir necha xil ma'noni bildiradi (lotincha - jarchi, gerald). Birinchidan geraldika bu – gerblar tarkibi va ular haqidagi ma'lumotlarni o'rganadi. XIX asrning ikkinchi yarmida gerblarni o'rganuvchi yordamchi tarix fani sifatida shakllangan. Dastlab XIII-XIX asrning birinchi yarmigacha dvoryan, tsex va er mulklarining gerblarini tuzish bilan geraldlar shug'ullanganlar (geraldika atamasi shundan olingan). XIV asrdan boshlab gerbchilar ustaxonalari tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan. Bora-bora uylar, tarixiy yodgorliklar, davlat bayroqlari, pullar va harbiy qurollarga gerb suratlarini tushirish rasm bo'lgan.

Geraldika moddiy madaniyat yodgorliklarini hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o'rganadi, milliy an'analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rganishda yordam beradi.

Tarixchi, arxivshunos o'z izlanishlarida turli xildagi tasvir, belgi, gerblarga duch keladi. Gerblarni yoki uning alohida elementlarini qo'lyozma, kitob, tanga, muhr, qurol, jihoz, kiyim, me'morchilik yodgorliklari va boshqalarda ko'rish mumkin.

Ammo gerb va geraldik manbalar o'rganilayotganda osonlikcha hal etib bo'lmaydigan muammolar vujudga keladi. Geraldika bilan tanish bo'lmagan tarixchi uchun gerb juboqligicha qoladi. Tadqiqotchi gerbda yozilgan yoki undagi tasvirlarni to'g'ri o'qiganda ham, gerbda bitilgan barcha ma'lumotlarni aniq baholay olmaydi. Masalan, u boshqa gerblar bilan qanchalik mos kelishi, o'z davrida qanday ahamiyatga ega bo'lgan, u yoki bu buyumga bog'liqligi kabi savollarga tarixchi geraldik bilimlarsiz javob topolmaydi. Geraldika fani bilan tanishib, tarixchi topilgan manbadan oladigan ma'lumotlarining hajmi ortadi. Masalan: muzeylarda moddiy manbalar bilan ishlovchi tarixchilar uchun geraldika xronologik, bir necha mamlakatga taalluqli, manbaning ajralmas xususiyatlarini ochib berishda juda qimmatli ko'mak beradi.

Ammo geraldika fani yordamchi tarixiy fan sifatida faqatgina diplomatika, sfragistika, numizmatika va boshqa fanlar uchun zarur emas, balki boshqa geraldik ma'lumotlar ro'yxatini o'rganish uchun zarur. Umuman olganda gerblar o'ziga xos manba bo'lib hisoblanadi. Geraldik ma'lumotlardan siyosiy, hududiy da'vogarlik qilish, shajaraviy nixoxlar, hukmdorlar davridagi demografik jarayonlarni yoritishda ko'pgina ma'lumotlar olish mumkin. Ular ajdodlarimizning iqtisodiy va ijtimoiy

hayotini, turmush madaniyatini va san'atini o'rganishga, davlatlar va sulolalar tarixini oydinlashtirishga xizmat qiluvchi manbalardan biridir

Geraldik tadqiqotlarni olib borishda birinchi bo'lib undagi yozuvlarni o'qish, uni turkumlashtirish, xususiyatlariga oid qiziqarli belgilarga e'tibor qaratish va uning xronologik davrini aniqlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Geraldika o'z navbatida ikkiga: nazariy va formal geraldikaga bo'linib, ular gerblarni gerald terminlogik jihatdan va boshqa davlatlar gerblari elementlarini tahlil va tadqiq etish orqali o'rganadi.

Nazariy geraldikada gerblar yaratishning nazariy-uslubiy masalalari o'rganiladi. Formal geraldikaning vazifasi gerbning tasviri va uning tarkibini o'rganadi.

Gerb tasviri to'liq va to'liq bo'lmagan turlarga ajratiladi. To'liq bo'lgan gerblar tarkibida: qalqon, dubulg'a, dubulg'a emblemasi, qalqon ushlovchi, shiori (asosiy g'oyasi) kabilardan tashkil topishi lozim bo'lgan. Gerbni yaratishning asosiy printsiplari, gerb aniq, qisqa, o'ziga xos bo'lib, o'z hukmdorining oilada, jamiyatdagi xususiyatlarini ko'rsatib berishi lozim bo'lgan. Gerblar antik davrlarda paydo bo'lgan. Shumer davlatining gerbida sher boshli burgut, qadimgi Rim davlati gerbida burgut tasvirlangan.

Amir Temur davlatining ham gerbi bo'lgan. Bu gerbda 3 xalqa tasvir etilgan bo'lib, bu Amir Temurning 3 iqlimda, ya'ni Shimol, Janub va g'arbda hukmron ekaniga ishoradir.

O'rta asralarda ko'pgina shaharlar o'z gerbiga ega bo'lgan. Venetsiya gerbida qanotli sher tasvir etilgan.

2. Geraldikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Geraldikaning rivojlanish sanasi aniqlanmagan va gerblarning kelib chiqishida ham xuddi shunday noaniq fikrlar mavjud. Ayrim olimlarning taxminicha geraldika qalqonlarning vujudga kelishi bilan bog'liq deb hisoblanadi. Bu holni qadimdan qalqonlarda qandaydir belgilarni aks ettirib janglarda foydalanish jarayoni bilan bog'lash mumkin. Turli ko'rinishdagi qalqonlarning shakllanishi va rivojlanishi feodalizm davrigacha yuz beradi. Gerblarni birinchidan ilk bor qalqonlarda turli maqsadlarda foydalanishgan bo'lsa, ikkinchidan gerblarga shajaralar ramzlarini kiritishgan.

Ammo qalqonda biror bir tasvir tushirilgan bo'lsa, u gerb bo'lib qolmaydi, unda ijtimoiy-huquqiy aloqalarga oid ramzlar aks etmagan bo'lsa, u holda bu oddiy bir ramz bo'lib qoladi.

O'rta asrlarda Evropada geraldlar gerb tasvirlarini qadimgi davrdan qidirishgan. Masalan, Gerakl, Aleksandr Makedonskiy, qirol Artur va boshqalarning maxsus ramzlari, ya'ni gerblari mavjud bo'lgan bo'lib, ularda hukmdorlarning xususiyatli jihatlari tasvirlar orqali aks ettirilgan.

Tarixchilar geraldikani XI asr oxirlarida paydo bo'lgan deb hisoblashadi. Dastlab geraldik tasvirlar Angliya, Frantsiya, Normandiya ritsarlarining qalqonlarida aks etgan.

XIII asrga kelib bizga ma'lum bo'lgan gerblar soni o'sib boradi va ularda katta qasrlar aks ettirila boshlaydi. Gerblar keyinchalik faqatgina qalqonlarda aks ettirilmadan, ritsarlar ust boshlarining yuqori qismi va otlarining yollarida ham paydo bo'ldi.

Feodal munosabatlarning shakllanishi natijasida gerblar ma'lum bir mavqega ega shaxslarga ham oid bo'lgan. Gerb o'rta asrlarda huquqiy asos bo'lib ham xizmat qilgan va huquqiy kelishmovchiliklarda dalil sifatida ham foydalanilgan. Ammo bunga oid tortishuvlar hujjatlarda kam qayd etilgan. Masalan, 1300 yilda Germaniya va Italiya ritsarlari o'rtasida yoki 3 ta ingliz ritsarlarining 1 ta gerbga da'vogarlik qilib tortishganlari italyan huquqshunosi Bartolo di Sassoferatoning tomonidan "Belgilar va gerblar haqida" ("De insigniis et armis") nomli asarda yozib qoldirilgan.

1300 yilda yozilgan muallifi noma'lum bo'lgan "De Heraldie" asari ham g'arbiy Evropadagi gerblar haqida ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi. Ispaniyada don Xuan Manuelning "Graf Lukanor kitobi" asarlarida ko'pgina gerblar haqida ma'lumotlar jamlangan. XV asr o'rtalaridan geraldik masalalar ko'pgina yozuvchilarning diqqat-markazida bo'lgan va talay asarlar yozib qoldirilgan. Matvey Parijskiyning XIII asrga tegishli asarida 75 ta gerb qalqonlari tasvirlangan. Asar hozirda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. hozirgi kungacha XV asrda mavjud bo'lgan 350 ta gerb komplekslari etib kelgan. XVI asrga kelib gerbshunoslar butun bir qirollikdagi gerblar haqida ma'lumot to'plashga ishlarini amalga oshiradilar. Bunga sifatida Navarra qirolligi gerblariga doir kitobni misol keltirish mumkin.

Evropada ritsarlik turnirlarida gerblar yarmarka sifatida yoyib qo'yilgan va gerblar ekspertiza qilingan. Rus gerbshunosi Yu.V. Arsenevning fikricha, faqatgina qalqon bilan turnirda ish bitmagan, balki XIV-XV asrlardagi frantsuz va nemis miniatyuralariga ko'ra qurolbardorlar tomonidan dubulg'a, qalqondagi va dubulg'adagi kichik emblemalar tasvirlari va boshqalar qattiq tekshirilgan. Maqsad esa shaharda yashamaydigan shaxslarning bayramda noqonuniy yo'l bilan ishtirok etmasligining oldini olish bo'lgan. Agarda bunday holat aniqlansa, gerblar musodara qilingan. Geraldik tasvirlar ritsarlarning faqatgina

dubulg'a va qalqonlarida aks etgan bo'lsa, keyinchalik qurollarda va boshqa harbiy inshootlarda ham paydo bo'la boshlagan.

Evropada gerb jazolari mavjud bo'lgan, masalan jinoyat sodir etgan ritsarni jazolash maqsadida uni bog'lab, qarshisida unga oid bo'lgan qalqon gerbini osib qo'yishgan. Gerald unga qilingan hukmni o'qigan va hukmni baland ovozda qaytarishgan. Keyin birma-bir ritsarni barcha qurol-aslahalaridan mahrum qilib, ularni bolg'a bilan buzib tashlashgan yoki tozalab bo'lmaydigan bo'yoq bilan chizilgan. Uning gerbini farzandlari va yaqinlari ishlatishi taqiqlangan va ritsarni qirollik sudiga topshirishgan.

Gerblar tasviri har doim ham bir xil bo'lmagan va qandaydir naslning yoki saroyning vakili ekanligini anglatgan va hukmronlik belgisi sifatida xizmat qilgan. XIII-XIV asrlarga kelib g'arbiy Evropada har bir shahar va shahar uyushmalarining alohida, mustaqil gerblari ham paydo bo'ldi.

Har bir shaharlik o'z shahridagi tsex, senorlar gerblarini bilgan. Cherkovlarga kirib gerb tasvirlarini tobutlarga, shiftlarda yoki erga yotqizilgan plitalarda ko'rishi mumkin edi.

Arxeologik qazishlar O'zbekiston da ham qadimdan muhrlar, tangalar va buyumlarga shahar, davlat, urug' yoki hunarmandchilik uyushmalarining gerb suratlarini tushirish keng tarqalganini ko'rsatadi. Ular ajdodlarimizning iqqisodiy va ijtimoiy hayotini, turmush madaniyati va san'atini o'rganishga, davlatlar va sulolalar tarixini oydinlashtirishga xizmat qiluvchi manbalardan biridir. Geraldika genealogiya, numizmatika, paleografiya va sfragistika kabi fanlar bilan aloqador. Geraldika ma'lumotlari tarix fanining boshqa sohalarida ham qo'llaniladi.

Hozirda davlat gerbi - davlat ramzlaridan biri hisoblanadi. Unda davlatning milliy-siyosiy, iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy-iqsodiy va davlat tuzumi, geografik va boshqa belgilari o'z ifodasini topadi. Gerb davlat bayroklarida, muhrlarida, rasmiy blankalarda, muhim hujjat, pul va davlat zayomlarida va boshqalarda tasvirlanadi. Davlat gerbi mazmuni konstitutsiya yoki maxsus qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Rsspublikasi Davlat gerbi tasviri "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risidagi"gi qonuni (1992 yil 2 iyul) bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasning Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, suvlar va so'l tomoni bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomonlari esa chanoqlari ochilgan g'o'za shohlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sohib turibdi. Gerbning yuqori qismida respublika hurligining ramzi sifatida 8 burchak tasvirlangan. Uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasviri bor.

Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi qanotlarini yozgan humo qushi ko'rinadi. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandiga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

3. Geraldlar va ularning vazifalari

Gerblarning ko'plab ishlatilishi va qo'llanilishi geraldika bilan shug'ullanuvchi lavozimlarga ehtiyoj tug'dirgan. Aynan ritsarlik turnirlarini o'tkazuvchi, diplomatik kelishuvlarni olib boruvchi, zodagon boylarning vakolatli vakili geraldlar etib belgilangan.

Geraldlar kasb-korining kelib chiqishi ham taxminan XII asrga to'g'ri keladi. Ushbu taxminlar ham ritsarlik turnirlari tarixi bilan bog'liq. Geraldning vazifalariga gerblarni ekspertiza qilish, turnirni e'lon qilish ishlari kirgan. Shu bilan birga ritsarlik turnirlarini olib borish tartib-qoidalari nazorat qilish, ularning yordamchilari esa turnir vaqtida turli xil belgi ogohlantirishlarni berib turishgan. Shu tartibda geraldlardan o'z sohasi bo'yicha kuchli xotirasi bilan ajralib turishi, gerblarni, genealogiyani, qarindosh-urug'chilik munosabatlari sinchiklab o'rganishi talab etilgan.

Geraldning vazifasiga ritsarlarning jang qiladigan kunini e'lon qilish, uning tirik yoki o'lganligini aniqlash, asrlarni almashlashda me'yoriy vaqtni nazorat qilish va boshqalar bo'lgan. Ushbu xildagi vazifalar turli darajadagi geraldlar zimmasiga yuklatilgan. Geraldarga katta vakolatlar berilib, ular gerbning jonli ifodasi sifatida namoyon bo'lgan. Shuning uchun geraldning kamsitilishi uning senori yoki boshlig'ini kamsitilishi hisoblanagan. Biror bir vazifa bilan yuborilgan gerald sovg'a-salomsiz jo'natilishi ham uning xo'jayiniga nisbatan hurmatsizlik belgisi sanalgan.

Gerald bo'lishning tarixan o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud edi. Masalan, Frantsiyada gerald uchun nomzodlik davri kamida 7 yil bo'lgan. Dastlab gerald qoshidagi xunarmandchilik ustaxonasida yoki ritsarlar qarorgihida qurol-aslahalarini tashib yuruvchi qurolbardor bo'lib ishlashi lozim bo'lgan. Ayni davrda geraldning yordamchisi ham sanalgan. Gerald o'z faoliyatini boshlashi munosabati bilan "cho'qintirish" marosimi o'tkazilib, zodagon shaxslar tomonidan gerald boshiga vino quyilib, u qasamiyod qabul qilgan va "Gerald" unvoniga ega bo'lgan.

Frantsiya qirolligida 30 ta gerald bo'lgan. Ulardan bittasi qirol saroyidagi tadbirlarni tashkillashtirgan bo'lsa, qolganlari provintsiya (ma'muriy-hududiy birliklar, masalan viloyatlar)lardagi gerblar bilan shug'ullanishgan. Angliyada ham xuddi shu tarzda amalga oshirilgan. Ilk geraldlar faoliyati Angliyada XIII asrda qayd etilgan va ularning ish

faoliyati frantsuzlar hamkasblari bilan bir xil bo'lgan. o'z davrida Richard III tomonidan geraldlar kengashi tashkil etilgan. Feodal davrda yirik feodallarning ham geraldari bo'lishgan. Geraldlar o'z kiyimlarida xo'jayinlarining gerblarini taqib yurishgan. Shotlandiyada XIV asrda, Irlandiyada 1553 yildan gerald lavozimi ta'sis etilgan.

Yaponiyada XII asrga kelib geraldik tizim ishlab chiqarilgan. Unda imperator oilasining ramzi, ya'ni 16 ta xrizantema gulbargi tasvirlangan. Ammo yapon geraldikasida gerblarning paydo bo'lish jarayoni g'arbiy Evropa geraldikasidan mutloq farq qilib, mustaqil shakllangan.

XIV asrda g'arbiy Evropa mamlakatlarida maxsus idoralar paydo bo'lib, ular geraldikaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanishgan. Ular geraldika deb atalgan. Keyinchalik bu vazifalar bilan davlat organlari shug'ullana boshlagan. Rossiya hududlarida gerbshunoslik masalari bo'yicha ishlar XVIII asrda paydo bo'lgan. 1722 yilda Pyotr I tomonidan Geraldmeystrlilik idorasi tashkil etilgan, uning vazifasiga shahar va shaxsiy gerblarni tayyorlash ishlari yuklatilgan. Mazkur yo'nalishdagi ishlar tarqqiy etishi bilan 1726 yilda Rossiya Fanlar akademiyasida geraldika kafedrasini tashkil etilgan.

Geraldikada asosan 7 xil rangdan foydalanilib, ular qizil, qora, ko'k, oq, keyinchalik yashil, sariq, to'q qizil ranglardir.

Geraldik tasvirlarni biz turli xildagi manbalarda uchratishimiz mumkin. Shakliga ko'ra ularni tasviriy va yozma manbalarga bo'lish mumkin. Geraldikani o'rganishda ko'pgina ma'lumotlarni o'rta asrlar muhrlari va ulardagi tasvirlar ham berishi mumkin. Gerblar tasvirlarini turli diplomatik hujjatlarda, qo'lyozmalar, sud qarorlari shajaralarga oid kitoblarda uchratish mumkin. Geraldikaning ko'pgina qonuniy asoslari o'rta asrlarda yaratilgan huquqiy asarlarda qayd etilgan.

4. Sfragistika - yordamchi tarixiy fan sifatida

Sfragistika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib muhr degan ma'noni anglatadi. Ba'zida sigillografiya (lotin tilidan olingan bo'lib) sigillim – muhr degan ma'noni anglatib, tarixiy yordamchi fan hisoblanadi. Sfragistika fanining asosiy maqsadi muhrlarni o'rganish bo'lib hisoblanadi. hujjatlarda saqlanib qolgan muhrlar, davlat hokimiyati institutlari tarixini o'rganishda sfragistik hujjatlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari qisman muhrlar geraldika, epigrafika, numizmatika kabi maxsus tarix fanlari manbalarini o'rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Muhr so'ziga umumiy tavsif berilganda muhrlar - hujjatlarning aslini tasdiqlovchi vosita hisoblanadi. hozirgi kun nuqtai nazaridan tavsif

berilganda muhr — yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi to'liq yozilgan matnning (matn va rasmning) qabariq yoki botiq tasviri bo'lgan bosma shakl (asbob)dir. qog'oz, surguch, mum va boshqa materiallarga nusxa tushirishga xizmat qiladi. Muhr nusxasiga shtamp nusxasidan farqli o'laroq tuzatishlar va qo'shimchalar qilish mumkin emas. Ayrim xillari gerb muhri deb atalgan ko'rinish hosil qilib, davlat gerbi tasviri bo'lgan yumaloq shaklda bo'ladi. o'tmishda muhrning sopol, mis, po'lat, bronza, kumush, oltindan qilingan xillari ham bo'lgan. Shakli to'rtburchak, do'ira, ellipssimon va hokazo. qadimda O'rta Osiyo dagi har bir e'tiborli odam, eshon, muftiy, qozi, amir, xonlarniig o'z muhri bo'lgan. Uning yuzasiga egasining nomi, mansabi va yasalgan yili qayd etilgan.

Sfragistika fani muhrlar yoki muhrlar quyadigan qoliplarning izlarini turli xil manbalar (suyaklar, temirlar, toshlar daraxtlar va hozirgi davrdagi yumshoq, kauchuk, rezinalar) ga tushirilgan tasvirlarni o'rganadi.

Sfragistika materiallari amaliy san'at, geraldika, numizmatika, onomastikani o'rganishda, qadimgi arxivlarni aniqlashda muhim manbadir. Muhrni X-XV asrlarda faqat oliy hokimiyat vakillari qo'llagan va o'z tipik belgilari bilan knyaz, episkop (Rossiya), shahar hokimi, mingboshi, noib, qozi, muftiy muhri (O'rta Osiyo) va boshqalarga bo'lingan. Hozirgi kunda mutaxassis olimlar muhrlarning tashqi tomonlarini, ya'ni undagi yozuvlar qaysi davrga tegishliligi o'rganib muhrlarga baho berishadi.

5. Muhr turlari

Sfragistikada muhrlarni o'rganish ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Osmu muhrlar (hujjatlarda maxsus tasmalarda osib qo'yiladigan metallarga tushirilgan muhrlar).
2. Bosma muhrlar (amalda tadbiiq qilingan hujjatlarda yoki buyum narsalarga bosiladigan ko'rinishi).

Birinchisi maxsus farmon, yorliqlarning qisqich yoki omburlar orqali qisib muhrlangan shakli. Ikkinchisi har xil turda bosiladigan shtamp muhrlar.

Shtamp va muhrlar hujjatlarning aslini tasdiqlab, ular dastlab qadimgi tsivilizatsiya o'choqlaridan hisoblanmish Misr, Shumer davlatlarida paydo bo'lgan.

Ilk bora qadimgi Sharqda tsilindrsimon shtamp muhrlar tadbiiq etilgan. Shtamp muhrlar tsilindrsimon shaklining yuza qismiga yumshoq gilga tekislab ishlangan maxsus tasvir yoki yozuvlarni o'zida aks ettirgan va hujjatlarni aslini tasdiqlash vazifasini bajargan.

Tarixda turli xildagi muhrlar mavjud bo'lgan. qadimgi Sharqda tsilindirsimon muhrlardan foydalanishgan. Barmoq izlari asosidagi muhrlar kichik qo'lqopchalarga o'xshash buyumlarga tushirilgan tasvir yoki yozuvlar tushiriladigan muhrlar shaklida bo'lgan. o'rta asrlarda Evropada hujjatlarga maxsus tasmalar orqali osib qo'yiladigan metallarga tushirilgan osma muhrlar keng tarqagan.

Sfragistika fan sifatida XVIII asrda diplomatikaning bir bo'limi sifatida shakllana boshlagan. Vazifasi hujjatlarni tasdiqlash hamda ularning haqiqiyiligini aniqlashdan iborat bo'lgan. XIX asr oxiridan sfragistikaning qadimgi davlat muassasalarining shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rganadigan fan sifatidagi yangi davri boshlandi. Sfragistika fan sifatida davlat apparatidagi islohotlarni aks ettiruvchi muhrlarni xronologik tavsiflash asosida rivojlanib bordi.

Sfragistikada yangicha bunday tushunish frantsuz olimi G. Shlyumberj, rus olimi N.P. Lixachev asarlarida alohida qayd etilgan. Sfragistika materiallari amaliy san'at, geraldika, numuzmatika, onomastikani o'rganishda, qadimgi arxivlarni aniqlashda muhim manbadir.

Muhrlarni o'rganish natijasida knyazlar, feodallar va davlatlarning o'zaro munosabatlarini va davlat rivojlanishining asosiy bosqichlarini aniqlash uchun muhim ma'lumotlar olishda tarixchi va arxivshunoslar uchun kerak bo'ladi.

Rossiya hududlarida ilk muhrlarda avvalo tasvirlar aks etgan. (taxminan 945-972 yillar).

O'rta Osiyo da muhrlarni yasovchilar - muhrkanlar deb atalgan. qadimdan O'rta Osiyo da keng tarqalgan. Amir Temur saroyida, Buxoro, Ko'qon, Xiva xonliklari saroyida va boshqa joylarda muhrkanlik ustaxonalari bo'lgan. Muhrkanlar xonlikdagi turli idoralar, muassasalar hamda amaldorlarning muhrlarini tayyorlashgan. Tilla, mis, bronza, kumush va boshqa buyumlarga tushirilgan tasvir va yozuvlar hattotlik mahoratidan dalolat bergan.

Savol va topshiriqlar:

1. Geraldikaning tarixiy fanlarni o'rganishdagi amaliy ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
2. Geraldikaning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
3. Geraldlar kim va ularning vazifalariga nimalar kiradi?
4. Sfragistika nimani o'rganadi?

5. Internet veb-sahifalaridan muhr turlari haqida ma'lumot to'plab, ma'ruza tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Азбука геральдики, XVIII-начало XX вв. / сост. Введенский Г.Э.-СПб., 2003.

2. Арсеньев Ю.В. Геральдика: Лекции, читанные в Московском археологическом институте в 1907-1908 гг.-М., 2001.

3. Вспомогательные исторические дисциплины: историография и теория.-Киев, 1988.

4. Геральдика России. XVIII-начало XX вв. / сост. Л.Е.Шепелев.-СПб., 2003.

5. Геральдика. Материалы и исследования.-Л., 1987.

6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика.-М., 1974.

7. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд.-М., 1974.

8. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Ключи к тайнам Клио: палеография, метрология, хронология, геральдика, нумизматика, ономастика, генеалогия: книга для учащихся и студентов.-М., 1994.

9. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов.-М., 2003.

10. Лукомский В.К. Герб как исторический источник // Краткие сообщения Института истории материальной культуры. Вып. XVII.-М.-Л., 1947. – С. 49-57.

11. Силаев А.Г. Истоки русской геральдики. – М., 2002.

12. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T., 2008.

IX BOB. GENEALOGIYA

1. Genealogiya (shajarashunoslik) fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi

Genealogiya shajara (arabcha - daraxt), - kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog'i, yordamchi tarixiy fan - genealogiya o'rganadi.

Genealogiya qadimiy tarixiy fanlardan biri hisoblanadi. Odamlarda o'z avlodlarining kelib chiqishiga qadimdan qiziqishlar bo'lgan. qadimgi davr jamiyatida odamning ijtimoiy ahvoli uning erkin yoki qaramligini bildirgan. o'z avlodlarining jasoratlari, qaxramonliklari haqidagi ma'lumotlarni bilishgan va g'ururlanishgan. qadimda rimliklarda, ko'milayotgan odamning qaysi urug'ga tegishligini bildiruvchi rasmlar, belgilar qo'yish udumi bo'lgan.

Bizgacha skandinaviya xalqlarining qarindosh-urug'chilik munosabatlariga oid ma'lumotlar etib kelgan. Island xalqlari haqida Arii Torgilssonning "Islandlar haqida kitob" nomli (1134-1138 yillar) asarida qiziqarli genealogik ma'lumotlar saqlangan. XV asrga kelib Evropada shohlar sulolasi haqidagi ma'lumotnomalar paydo bo'la boshlagan. XVI asrga kelib genealogiya hujjatlarda, yorliqlarda va boshqa hujjatlarda foydalanila boshlandi.

Genealogiyaning rivojlanish bosqichi XVI-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda genealogiyaning ilmiy asoslari shakllana boshlagan, chunki genealogik ma'lumotlar jamlangan me'moriy yodgorliklar, akt hujjatlari, memuar asarlarni tanqidiy o'rganish ishlari olib borilgan. XVI-XVII asrlarda ijtimoiy jaaryonlarning jadal sur'atda o'sishi ko'pgina noma'lum oila yoki shajaralarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Savdogar yoki zodagonlar o'zlarining shajaralarini uzoq o'tmishga borib taqalishi haqida jar solishgan.

Masalan XVII asr oxirlarida Angliyada Genrix VIII davrida uning geraldari barcha grafliklarni aylanib, mahalliy dvoryanlarning asl kelib chiqishi dvoryanlardan ekanligini tekshirib chiqishgan. Ular haqidagi ma'lumotlarni cherkov ma'lumotnomalari, yorliqlar, ularning qarindoshlarining qabr toshidagi gerblarni va boshqalarni o'rganishib, tekshirishlar natijasi "tashrif daftarchasi"ga kiritilib, geraldar idorasida qayd etilgan va ushbu ma'lumotlar huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan. Aniqlangan soxta, noqonuniy dvoryanlar esa o'sha graflikning asosiy shaharlarida xochlarda osilgan va ularning qarindoshlari va yaqinlariga bu soxta nomdan foydalanish taqiqlangan. Bundan tashqari bu turdagi ommaviy tekshirish ishlari Frantsiya, Germaniya, Venetsiya va Italiya

kabi davlatlarda olib borilgan. Frantsiyada noqonuniy faxriy unvonlarni soxtalashtirilganlarga jarima solingan.

XVI-XVII asrlarda ko'pgina qirol va aristokratlar nasllariga tegishli genealogik ma'lumotnomalar nashr etilgan. Ushbu ishlarning paydo bo'lishida tarixchi olimlar tomonidan cherkov, monastir arxivlaridagi hujjatlar va boshqa manbalar asosida olib borgan tadqiqotlar asos bo'lgan. Frantsuz genealogiyasining paydo bo'lishiga Dushene, Dyu Bushe, Gienon, La Rokka, Sen Marte, Le Laburera va boshqalarning mehnati singan.

Angliyada XVI-XVII asrlarda genealogiyaning yutuqlarida 1586 yilda tashkil etilgan Elizavetta faoliyatidagi "Noyob buyumlar" tarixiy jamiyati kata sabab bo'lgan. U. Barton, U. Pol, T. Djekil, S. Archer, R. Glover, U. Kemden va boshqalar Angliya grafliklaridagi ko'pgina mahalliy dvoryanlar shajaralari tarixini yozib qoldirishgan. Inglizlarning genealogiyaga oid asarlari ichida Dugdeyl asarlari katta o'rin tutadi. Uning asarlari ingliz baronlarining kelib chiqish tarixiga bag'ishlangan. Ispaniyada XVII asrda Luis Salasar va Kastrolarning aristokratlar shajarasi haqidagi asarlari ham nashr etilgan.

XVI-XVIII asrlarda genealogiyaning nazariy masalalariga ilmiy qiziqishlar kuchayib, genealogik jadvallar tuzish, qarindosh-urug'larni raqamlash tizimlari kabi uslublar yaratildi. Asta-sekin genealogiya masalalarida ustunlik nemis (Imhof, Kox, Keller) olimlariga o'tdi. 1721 yilda Vena universitetida eng birinchi "Genealogiya" kafedresi tashkil etildi. XVIII asr o'rtalarida jadal ravishda nazariy genealogiya bo'yicha darsliklar va ma'ruza kurslari ishlab chiqilgan.

XVIII-XIX asrlarda Evropadagi burjua inqiloblari natijasida aristokrat va zodagon oilalar bilan shug'ullanuvchi genealogik olimlarda genealogiyaga nisbatan biroz sovuqqonlik paydo bo'ldi. Bu ishlar ayniqsa Frantsiyada "buyuk Frantsuz inqilobi"dan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi. Ammo shunga qaramay ba'zida Frantsiyada provintsiyalardagi dvoryanlar haqidagi ko'pgina ma'lumotlar nashr etib turilar edi. Angliyada bu ishlarning teskarisi bo'lib, Napoleon qo'shinlari yurishidan so'ng inglizlarda o'z tarixlariga qiziqish ortdi va ko'pgina genealogik tadqiqotlar nashr etildi. Nemis olimlari ham ko'pgina tadqiqotlar olib borishib, genealogiyaning nazariy masalalari (olimlardan Vil, Geterer) bo'yicha ustunlikni ushlab turishgan. Ular o'zlarining ilmiy ishlarida, darsliklarida birinchi bo'lib genealogiyaga diplomatika, geraldika, xronologiya fanlari kabi yordamchi tarix fani sifatida qarashdi. Bu g'oyani Ottokar Lorents targ'ib etib, genealogiyaning ijtimoiy tarixni o'rganishdagi imkoniyatlarini

va bu yo'nalishda qo'llash mumkin bo'lgan statistik usullari haqidagi imkoniyatlarini ochib berdi.

XVIII-XIX asrlarga kelib genealogiyaga bo'lgan qiziqish Belgiya, Gollandiya, Vengriya, Polsha, Rossiya, Skandinaviya davlatlarini qamrab oldi. Keyinchalik AqSh tarixiy jamiyatlarida kelib chiqishi evropalik bo'lganlarda qiziqish uyg'otgan va bu fan Amerika mintaqasiga tarqalishiga sabab bo'lgan. Genealogiya va tarix jamiyatlari tashabbusi bilan Evropaning barcha hududlarida genealogik ishlar nashr etila boshlandi.

XX asrning birinchi yarmida Vena universiteti professori O. Forsta de Battalining genealogiyaga doir ishlari nashr etildi. Uning asarlari hozirgacha zamonaviy genealogiyada mashhur hisoblanadi. Buguni kunda Frantsiya, Germaniya, Belgiya, Angliya davlatlarida genealogiyaning nazariy muammolari ustida ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Genealogiyaga bo'lgan qiziqishlar tufayli Genealogiya va geraldika xalqaro kongressining tashkil etilib, uning birinchi yig'ini 1928 yilda Barselonada bo'lib o'tgan. 1953 yilda Xalqaro genealogiya intituti (La Hildalgia) tashkil etilgan.

Zamonaviy genealogiya ko'pgina fanlar, jumladan faqatgina tarixiy fanlar bilan emas, balki biologiya, genetika, tibbiyot, psixologiya va boshqa zamonaviy fanlar bilan aloqada bo'lishi lozim. Bundan tashqari genealogiyada ko'pgina matematik uslublardan foydalaniladi. Genealogik ma'lumotlar ko'proq ijtimoiy tadqiqotlarda ham qo'l keladi.

Genealogiya aholining turli toifalarining shakllanish jarayonlarini, ularning naslu nasabi, moliyaviy imkoniyatlari, jamiyatdagi o'rni, boshqa sulolalar bilan aloqalari kabi ma'lumotlarni ham o'rganadi. Shu bilan birga ularning ijtimoiy psixologiyasi ham o'rganiladi (masalan kasb tanlash sabablari, avlodning kasbi-kori, diniy kelib chiqishi kabilar). Frantsuz tarixchilari genealogiyani o'rta asrlar davlat muassasalari tarixini, yuqori lavozimlarning kelib chiqishi masalalarini tahlil qilishda foydalanishadi. Genealogiya tarixiy demografiyada ham keng foydalaniladi. Barchaga ma'lumki, o'rta asrlarda bizga aholi sonlari haqida aniq ma'lumotlar qoldirilmagan. Genealogik ma'lumotlar orqali taxminiy ma'lumotlar olinadi. Demografik ma'lumotlarni olish mumkin degan fikrga misol sifatida biron bir shajaraning yashab o'tgan sanasi o'rnatiladi. Taxminan bir shajaraning erkak a'zosining 3 avlodi, ayol a'zosining 4 avlodi bir asr mobaynida o'tgan. Bunda ota va bola o'rtasidagi yosh 30-35 yoshni tashkil etgan. Ona bilan bola o'rtasidagi yosh 20-25 yoshni tashkil etganligi va nikoh yoshlari, tug'ilishlar haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin hisoblanadi.

Genealogiya meditsina, biologiya, genetika, kriminalistika tadqiqotlarida ham qiziqarli ma'lumotlar bera oladi. Genetika ma'lumotlari ham genealogiyada ko'pgina aniq ma'lumotlar bera oladi (odamning nasli ota-onasidan o'tgan 24 ta xromosomalar orqali aniqlanadi). Shajaraning nasl-nasabining aniqlashda genetik usullardan ham keng foydalaniladi.

O'rta Osiyo hududlarida ham podsholar, hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar nasl-nasabiga qiziqish qadim zamonlardan bo'lgan, lekin o'rta asrlarda shajaralar imtiyozli tabaqalarning paydo bo'lishi va ularning avlod-ajdodlarini rasmiylashtirishga qiziqishning kuchayishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Bu o'z navbatida, XV asrdan boshlab shajaralar o'rtasidagi nikoh aloqalari haqida guvohlik beruvchilarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu davrlarda urug' yoki bir-biriga yaqin bir necha urug' a'zolarining nasl-nasabiga oid bir necha daftarlar tuzila boshlagan. O'rta Osiyoda shajaraga oid dastlabki yirik asarlar XV-XVII asrlarda paydo bo'lgan. Ayniqsa, Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari XIII-XVII asrlardagi mo'g'ul va turk urug'lari, hukmdorlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. O'rta Osiyo da nasab daftariga xo'jalar, saidlar va boshqalar ega bo'lib, bu hujjatlar ularning payg'ambar, sahobalar, tarxon, beklar naslidan kelib chiqqanligini ko'rsatuvchi dalil sifatida, shuningdek, soliq to'lash, xalq hasharlariga chiqish va boshqa ishlarda alohida imtiyozga, umuman jamiyat hayotida yuqori mavqega ega bo'lishi uchun xizmat qilgan. Shajara hujjatlari dastlab shaxsning siyosiy mavqeiga ko'ra, guvohlar ishtirokida hukmdorlar huzurida tuzilgan va uning muhri bilan tasdiqlangan. Keyinchalik hukmdorlar avvalgi muhrlarni ko'rib tasdiqlab beraverishgan.

2. Genealogik tadqiqot usullari

Shajaralar ustida tadqiqot olib borishda avvalo ular ikkiga bo'lib o'rganiladi. Birinchisi bosqichda tadqiqot ob'ekti bo'lgan shaxsning barcha o'tgan avlodlari o'rganiladi. Ikkinchi bosqichda undan keyingi avlodlari o'rganiladi.

Genealogik tadqiqotlarni olib borishning yana ko'pgina boshqa usullari ham mavjud. Shajaralar haqidagi ma'lumotlarni grafik rasmiylashtirish ishlari turli xil bo'lishi mumkin. O'rta asrlarda ilk genealogik tadqiqotlarda odam tanasiga o'xshash tarzdagi chizmaga genealogik ma'lumotlar joylashtirilib chiqilgan. Aynan ota va ona (odamning) bosh qismida joylashtirilgan, bolalari elkasida, qo'llari va barmoqlarida esa uning yaqin qarindoshlari joylashtirilgan. O'rta asrlarda shajaralar haqidagi ma'lumotlarni genealogik daraxtlarda joylashtirish

keng tarqalgan. Albatta shajaralarni rasmiylashtirishning ushbu usulining keng qo'llanishi tasodifan emas.

Genealogik daraxt “dunyo daraxti ” yoki “hayot daraxti ” deb nomlanib, unda uzoq o'tmishdagi va o'rta asrlardagi shajaralar tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin. Universal “dunyo daraxti”da hayvonlar, tabiiy hodisalar, inson shajaralari haqidagi ma'lumotlarni kiritish mumkin bo'lgan. Inson daraxti uning o'tmishini, hozirgi kun va kelajak bilan bog'lovchi, shajaraning uzoq o'tmishga borib taqalishini va davomiyligini izohlagan. Ba'zida daraxtning o'zi tugaganini va uning barglarini to'kilayotganini tasvirlashgan, bu esa o'z navbatida uning barglari o'lib bormoqda, lekin daraxtning o'zagi va shoxlari yashashda davom etmoqda degan ma'noni anglatgan.

Shajara boshlig'i, ya'ni tadqiqot olib borilayotgan shaxs daraxtning ildiz qismida joylashtirilgan. Daraxtning o'zagi va shoxlarida o'tgan avlodlarning gerb va portretlari o'rnatilgan. Ba'zida teskarisi bo'lib, shajarani tashkil etgan shaxslar daraxtning ildiz tomoniga va uning avlodlari teparoq qismiga joylashtirilgan. Shaxslar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar turli xildagi ranglar orqali berilgan. Masalan, turmushga chiqqan ayollar binafsha rangdagi medallarda, turmushga chiqmagan qizlar ko'k rangda berilgan. Farzandli erkaklar sariq, farzandsiz erkaklar qizil rang, hayot bo'lgan shaxslar yashil ranglarda tasvirlangan.

Bundan tashqari genealogik tadqiqotlar olib borishda tablitsa, doira va boshqa usullar mavjud hisoblanadi. Tadqiqotlar olib borishda raqamlash tizimi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Raqamlash tizimi usuli ispan olimi X. Sosa tomonidan kashf etilgan (Sosa-Stradonitsa tizimi). Ushbu tizimda tadqiqot olib borilayotgan shaxsga bir raqami bilan belgilangan. Uning otasi va onasi 2-3 raqami bilan, otasining ota-onasi 4-5 raqam bilan, onasining ota-onasi 6-7 raqamlari bilan belgilangan. Ushbu raqamlash tizimida e'tibor bilan qaralsa, toq sonlar ayollarga va juft sonlar erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

3. Hukmdorlar shajaralari haqida ma'lumot beruvchi genealogik manbalar

“Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi”) nomli asarning muallifi Muhammadyor ibn Arab Kattagondir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. o'zining so'zlariga qaraganda, u XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida yashab o'tgan, Shayboniy Abdullaxon soniy va Ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxon (1603-1606 yillar)ning xizmatida bo'lgan.

“Musaxxir ul-bilod” Shayboniylar sulolasining Abulxayrxondan boshlab shajarasi bayoni bo’lib, O’zbekiston va qozog’istonning XV-XVI asrlardagi tarixini o’rganishda muhim qo’llanmalardan biri hisoblanadi. Asar 1610 yil atrofida yozilgan.

Kitob tarkibi muqaddima va olti bobdan iborat.

Birinchi bob Abulxayrxonning o’g’li va taxt vorisi Shoh Bulog’ Sulton, uning o’g’illari Muhammad Shohbaxt, Shayboniyxon va Mahmud Sulton hamda ularning avlodi tarixini o’z ichiga oladi.

Ikkinchi bobda Ko’chkunchixon (Ko’chumxon) va uning Samarqandda hukmronlik qilgan avlodi tarixi bayon etilgan.

Uchinchi bobda Suyunchxojahon va uning Toshkent hamda Turkistonda hukmronlik qilgan avlodi tarixi keltirilgan.

To’rtinchi bobda xoja Muhammadxon va uning Movarounnahrda podshohlik qilgan avlodi tarixi keltirilgan.

Beshinchi bob Abdulmo’minxonning taxtga o’tirishi (1598 yil) va qisqa hukmronligi haqida.

Oltinchi bobda Buxoroning diqqatga sazovor joylari, muallif bilan zamondosh bo’lgan va Buxoroda istiqomat qilgan shayxlar, olimlar va shoirlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

“Akbarнома” yoki “Iqbolnoma” nomli asar muallifi Abulfazl Allomiydir. U XVI asrda hindistonda yashagan yirik tarixnavis olim va davlat arbobidir. Olimning nomi Abulfazl ibn Muborak bo’lib, bilim doirasi juda keng bo’lgani uchun Allomiy, bilimlar sohibi deb atashganlar. U 1551 yil 14 yanvarida Agrada tug’ilgan. Otasi shayx Muborak ibn Xizr o’z davrining mashhur ilohiyot olimlaridan hisoblangan. Akasi Abulfayz yirik shoir va olim bo’lgan.

Abulfazl Allomiyning asosiy asari “Akbarнома” yoki “Iqbolnoma” hindiston va Afg’onistonning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan baxs yuritadi. Ma’lum darajada “Vaqoe” yoki “Boburnoma” asarining davomi sifatida yaratilgan bu ulkan asar uch kitobdan iborat. Birinchi kitobda Akbarning tug’ilishi, ota-bobolari – Bobur, humoyun, shuningdek Akbar podshohligining dastlabki 17 yil ichida bo’lib o’tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilinadi.

Ikkinchi kitob hindiston va qisman Shimoliy Afg’onistonning 1573-1601 yillardagi tarixini o’z ichiga oladi.

Uchinchi kitobda Boburiylar davlatining tuzilishi, hindistonning ma’muriy tarkibi, aholidan yig’iladigan soliq hamda jarimalar va ularning miqdori, hindlarning dini va urf odatlari kabi masalarga keng o’rin berilgan. Uchinchi kitob mustaqil mazmunga ega va uni “Oyini Akbari” (“Akbar qonunlari”) nom bilan ataladi.

“Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” (1910-1918 yillar) asarlari muallifi serqirra iste'dod sohibi Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniy (1858-1923 yillar)dir. Bayoniyning naslu nasabi Xiva xonligini ko'p yillar idora qilgan qo'ng'irotlar sulolasiga borib ulanadi. Otasi Bobojonbek Xiva xoni Eltuzarxon (1804-1806 yillar)ga nabira bo'ladi.

Bayoniy asosan yirik tarixnavis olim, Munis va Ogahiylarning davomchisi sifatida shuhrat qozondi. Bu sohada u ikki yirik asar yaratdi.

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida Xorazmning turklarning qadimgi podshohi Yofas o'g'lon, Yofas ibn Nuhdan to qo'ng'irotlar sulolasigacha kechgan tarixi bayon etilgan. Asarning eng qimmatli qismi Muhammad Rahim avval (1806-1873 yillar) va Asfandiyorxon (1910-1918 yillar) davrigacha bo'lgan so'nggi qismidir.

Olimning ikkinchi tarixiy asari “Xorazm tarixi” kitobida Xorazmning 1910-1918 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng yoritilgan.

4. Diniy suluklar tarixiga oid manbalar

“Manoqibi xoja Yusuf hamadoniyy” (“Xoja Yusuf hamadoniyyning hayot yo'li”) nomli asar muallifi Xojagon tariqatining asoschisi va nazariyachilaridan biri Abduxoliq ibn Abduljamil g'ijduvoniyy (vafoti 1179 yil) bo'lib, u ushbu asarini ustoz xoja Yusuf hamadoniyyning hayot yo'li va ta'limotiga bag'ishlagan.

Xoja Bahouddin Naqshband, uning hayoti, aytganlari, karomatlari haqida hikoya qiluvchi yana bir muhim asar Abulmuhsin Muhammad Bokir ibn Muhammad Alining “Manoqibi xoja Bahouddin Naqshband” (“Xoja Bahouddin Naqshbandning hayot yo'li”) nomli kitobidir. Abulmuhsin Muhammad Bokir bu asarini yozishda Xojoyi buzurgning yaqin kishidari bilan suhbatlari chog'ida yiqqan ma'lumotlardan va xoja Muhammad Porsoning kitoblaridan olingan ma'lumotlardan foydalangan. “Manoqibi xoja Bahouddin Naqshband” muqaddima, xotima va uch qismdan (maqсад) iborat.

Muqaddimada Xojoyi buzurgning tavallud topishi va kelib chiqishi, birinchi qismda hazrat eshon faoliyatining boshlanishi, ikkinchi qismda hazrat eshonning suluklari va aytganlari, va nihoyat, uchinchi qismda hazrat Bahouddin Naqshbandning kashfu karomatlari bayon etilgan. Xotima hazrati buzurgning vafoti xususidadir.

“Ravzat us-safo” (“Cof jannat bog'i”) yoki “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqidagi sof jannat bog'i”) nomi bilan mashhur

bo'lgan asar umumiy tarixga oiddir. Uning muallifi Mir Muhammad ibn Sayyid Burxoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy bo'lib, asosan Mirxond (1433-1497 yillar) nomi bilan mashhur.

“Ravzat us-safo” asarini yaratishda Mirxond qirqta muallif, ya'ni arab tilida ijod qilgan o'n sakkizta va fors tilida ijod qilgan yigirma ikkita olim ijodiga murojaat qilgan. Shak-shubhasiz, bu asar zamonaviy tadqiqot darajasida yaratilgan tarixiy yodgorlikdir.

Kitob muqaddima, xotima va etti jilddan iborat:

1. Dunyoning “yaratilishidan” to Sosoniy Yazdijard III (632-651 yillar) davrigacha;
2. Muhammad payg'ambar va xalifai Roshidin davri;
3. 12 imom tarixi; Umaviy va Abbosiy xalifalari;
4. Abbosiylar bilan zamondosh sulolalar;
5. Chingizxon va uning avlodi;
6. Amir Temur va uning avlodi to Sulton Abu Said vafotigacha (1469 yil);
7. Culton husayn va uning avlodi tarixi (1523 yilgacha) bayon etilgan. So'nggi 7-jildi musavvaligicha qolib ketgan va uni Xondamir to'ldirib, oqqa ko'chirgan.

“Ravzat us-safo” asarining 1-6-jildlari kompilyatsiya - boshqalar asaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan bo'lsa-da, ko'plab manbalardan foydalanish asosida yaratilgani uchun bu qismi ham katta ilmiy qiymatga ega. 6-jildning bir qismi va 7-jild yangi ma'lumotlar va muallif o'zi ko'rgan, bilgan va shohidi bo'lgan voqealar bayonidan bo'lganligi uchun juda katta ahamiyatga ega.

“Maqomoti xoja Ahror” (“Xoja Ahrorning hayoti”) nomli asar naqshbandiya tariqatining yana bir yirik namoyondasi, ma'rifatparvar va raiyatparvar inson xoja Ubaydulla Ahror Valining hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan. Bu kitob eshon buvaning nabirasi xoja Abdullo tomonidan XVI asrda yozilgan. Xoja Abdullo yoshligidan bobosining xizmatida bo'lgan va mazkur asarida hazrat eshondan o'zi eshitgan, uning yaqinlari va mulozimlari, beklar va amirlarning og'zidan eshitgan, shuningdek Temuriyzodalar Sulton Ahmad (1469-1494 yillar) va Umarshayxdan eshitganlarini qunt bilan to'plab kitob holiga keltirgan.

Asarda O'zbekiston va u bilan qo'shni mamlakatlarning XV asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar bor.

“Ravzat ur-rizvon va hadiqat ul-g'ilmon” (“Jannat bog'i va changalzor mahramlari”) asari Badriddin Kashmiriy qalamiga mansub bo'lib, unda XVI-XVII asrlarda O'zbekiston da va qo'shni mamlakatlar,

Xuroson, Shimoliy hindiston va Koshg'arning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan Juybor xojalarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qilinadi. Kitob XVII asrning birinchi yarmida yozib tamomlangan.

Asar muallifining to'la nomi Badruddin ibn Abdussalom ibn sayyid Ibrohim al-husayniy al-Kashmiriydir. Asar muqaddimasida o'zi keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, asli kashmirlik bo'lib, 1554 yili Buxoroga ko'chib kelgan va xoja Muhammad Islomning shaxsiy kotibi sifatida xizmatiga kirgan. Uning vafotidan keyin o'g'illari xoja Sa'd va xoja Tojiddin hasanlarning xizmatida (uning faoliyatining boshida) bo'lgan.

Asar mazmuni, uslubi va unda turli mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlardan ko'rinishicha, Badridin Kashmiriy keng ma'lumotli, tarix, she'riyat, insho ilmlarini chuqur egallagan kishi bo'lgan.

“Ravzat ur-rizvon” – katta 552 varaqdan iborat asar bo'lib, muqaddima, xotima va etti bobdan tashkil topgan.

Muqaddimada xoja Muhammad Islomning avlod-ajdodi, hazrat eshonning xulq-atvori, xoriq odatlari va olijanob fazilatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi, Badridin Kashmiriyning Buxoroga ko'chib kelish sabablari, mazkur asarning to'rt yil ichida yozib tamomlanganligi va buning evaziga hazrat eshondan 2.500 Abdullaxoniy kumush tanga va boshqa in'omlar olgani haqida gap boradi.

Birinchi bobda Movarounnahrning XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, 1556 yili Buxoroning Abdullaxon soniy tarafidan ishg'ol etilishi, Abdullaxonning g'alabalari va bunda xoja Muhammad Islomning ishtiroki va o'rni haqida qimmatli, ko'p o'rinlarda tarixiy asarlarda uchratish qiyin bo'lgan ma'lumotlar mavjud.

Asarning ikkinchi bobi o'ta qimmatli. Unda Shayboniy sultonlar – Muhammad Amin sulton, Dinmuhammad sulton, Xisrav sulton, Abduquddus sultonlarning xoja Muhammad Islom va xoja Sa'd nomiga yo'llagan arznomalari va Buxoro, Samarqand, Marv va Badaxshon shoirlari Mushfiqiy, Mahramiy, Shuuriy, Vosifiy, Sabriy va boshqalarning hazrat eshon – xoja Muhammad Islom va xoja Sa'dlar sharafiga bitgan she'rlaridan namunalar keltirilgan. Bu erda keltirilgan arznomalar, shuningdek xon va sultonlarning farmonlari asosan uch masala; 1) Buxoro xonligining XVI asrdagi ichki ahvoli, ya'ni markaziy hukumat bilan ulus, viloyat, o'lka hokimlari o'rtasidagi munosabat, 2) xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, 3) Buxoro xonligi bilan Eron, Shimoliy hindiston va Koshg'ar o'rtasidagi munosabatlari masalasiga to'xtalangan. Arznomalar va she'rlar O'zbekiston ning XVI asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniyatini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Asarning uchinchi va to'rtinchi boblarida xoja Muhammad Islomning XVI asr 60-yillari boshidagi hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi, shuningdek, Juybor xojalarining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishlari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

“Ravzat ur-rizvon”ning beshinchi bobi ham yozishmalarga bag'ishlangan. Bu bobda Abdullaxonning xoja Muhammad Islom va xoja Sa'dga yo'llagan 100 dan ortiq maktubining nusxalari, Shayboniy sultonlar, yirik olimlar va viloyat hokimlari, shuningdek, hindiston, Eron va Koshg'ar hukmdorlarining Juybor xojalariga yo'llagan maktublarning nusxalari keltirilgan. Bular orasida hazrat xojalarga in'om etilgan mulklar, hazrat eshonning erlarini obod qilish yumushiga aholini majburiy safarbar qilish va dehqonlarni erga biriktirish haqidagi farmonlarning nusxalari keltirilgan.

Juyboriy xojalarga she'r, qasidalar, masnaviylar, ta'rixlar Asarning so'nggi, ettinchi bobida Buxoro xonligining xoja Sa'd va Abdullaxon davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida muhim, diqqat e'tiborga sazovor ma'lumotlar keltiriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Genealogiya fani nimani o'rganadi?
2. Genealogik tadqiqot usullari nimalardan iborat?
3. hukmdorlar shajaralari haqida ma'lumot beruvchi genealogik manbalar misollar keltiring.
4. Internet veb-sahifalaridan genealogiya faniga dir ma'lumotlar to'plang.

Adabiyotlar:

1. Аксенов А.И. Генеалогия // Вопросы истории. 1972, № 10.
2. Босворт К.Э. Мусульманские династии.-М., 1971.
3. Генеалогические исследования. Сборник научных трудов.-М., 1993.
4. Генеалогия. Источники. Проблемы. Методы исследования.-М., 1989.
5. Генеалогический вестник.-СПб., 2001-2003, № 1-15.
6. Дмитриева О.В. Генеалогия // Введение в специальные исторические дисциплины.-М., 1990. -С. 6-39.
7. Иванов П.П. Хозяйства Джуйбарских шейхов. К истории землевладения Средней Азии XVI-XVII вв.-М.-Л., 1945.
8. История и генеалогия.-М., 1977.

9. Кром М.М. Историческая генеалогия // Специальные исторические дисциплины: Учеб. пособие (С.В. Белецкий, З.В. Дмитриева др.)-СПб., 2003. -С. 368-397.

10. Медушевская О.М. Историческая наука и генеалогия // Вопросы истории. 1970, № 2. -С. 180-190.

11. Медушевская О.М. О проблемах генеалогии // Советские архивы. 1989, № 6. -С. 25-34.

12. Собрание восточных рукописей АН УзССР. Т. 1.-Т., 1952.

13. Tarixiy manbashunoslik. / o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar A.A. Madraimov, G.S. Fuzailova.-T.: Fan. 2006.

Seminar Mashg'ulotlari bo'yicha tavsiya etiladigan mavzular

1. Maxsus tarixiy fanlar asoslari va vazifasi.
2. Paleografiyaning predmeti, vazifalari.
3. o'zbek paleografiyasi tarixi.
4. Arxeografiyaning predmeti, vazifalari va asosiy xususiyatlari.
5. Epigrafika asoslari.
6. Urxun va Enisey yozuvlari va ularning ahamiyati.
7. Numizmatika asoslari. Numizmatikaning asosiy tushunchalari.
8. O'zbekiston tangalari.
9. Toponimikaning asosiy vazifasi.
10. Antropotoponimlar. Toponimika va tarix.
11. Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari.
12. Xronologiya fanining vazifalari.
13. Metrologiya. Metrologiya fanining rivojlanish tarixi.
14. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi qonuni.
15. Diplomatika - ilmiy fan sifatida.
16. Markaziy Osiyodagi rasmiy yozishmalar – manba sifatida.
17. Geraldikaning tarixiy fanlarni o'rganishdagi amaliy ahamiyati.
18. Geraldlar va ularning vazifalari.
19. Sfragistika - yordamchi tarixiy fan sifatida.
20. Muhr turlari.
21. Genealogiya (shajarashunoslik) fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi.
22. Genealogik tadqiqot usullari.
23. hukmdorlar shajaralari haqida ma'lumot beruvchi genealogik manbalar.
24. Diniy suluklar tarixiga oid manbalar.
25. O'zbekiston Respublikasining "Arxivlar to'g'risida"gi qonuni.

MUSTAQIL ISH BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN MAVZULAR

1. Tarix, arxivshunoslik fanlarini o'rganishda maxsus tarixiy fanlarning tutgan o'rni.
2. Kurs bo'yicha asosiy adabiyot va manbalar.
3. Paleografiyaning fan sifatida shakllanishi.
4. Paleografiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Arab paleografiyasi.
5. Arxeografiyaning maqsad va vazifalari. Fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.
6. Epigrafika. Epigrafik yodgorliklar.
7. Behistun yozuvi - jahonning yirik epigrafik namunlaridan biri.
8. Numizmatikaning fan sifatida shakllanishi.
9. Numizmatikaning asosiy tushunchalari.
10. O'rta Osiyo hududidagi ilk o'rta asrlar tangalari.
11. Toponimika. Toponimlarning tasnifi. Toponimika va tarix.
12. Tarixiy kartografiya ilmiy fan sifatida
13. O'zbekiston da kartografiya fani tarixi.
14. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari.
15. Tarixiy va astronomik xronologiya. Xronologiyaning fan sifatida vujudga kelishi?
16. Uyg'onish davrida xronologiya fanining rivojlanishi?
17. Metrologiya fanining maqsad va vazifalari?
18. Diplomatiikaning maqsad vazifalari.
19. Geraldikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Geraldlar va ularning vazifalari.
20. Sfragistika - yordamchi tarixiy fan sifatida.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. PALEOGRAFIYA	
1. Paleografiya tarixi. Uning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi	5
2. Yozuv materiallari tarixi	11
3. Yozuv qurollari	13
4. qo'lyozmalarning bezagi va shakli	16
5. Maxfiy yozuv (kriptografiya)	20
6. Arab paleografiyasi	22
7. O'zbek paleografiyasi tarixidan	25
II BOB. ARXEOGRAFIYA VA EPIGRAFIKA	
1. Arxeografiyaning maqsad va vazifalari. Fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi	32
2. Epigrafika	39
3. Jahonning yirik epigrafik yodgorligi	41
4. Urxun va Enisey yozuvlari	42
III BOB. NUMIZMATIKA	
1. Numizmatika fanining maqsad va vazifalari	46
2. Numizmatikaga oid tadqiqotlar	47
3. Numizmatikaning asosiy tushunchalari	49
4. O'zbekiston tangalari	49
5. O'rta Osiyo hududidagi ilk o'rta asrlar tangalari	51
IV BOB. TOPONIMIKA ASOSLARI	
1. Toponimika. Fanning maqsad va vazifalari	63
2. Toponimlarning tasnifi va ularning bo'linishi	65
3. Antropotoponimlar	67
4. Toponimika tarixidan	73
5. Toponimika va tilshunoslik	78
6. Toponimika va geografiya	82
7. Toponimika va tarix	85
V BOB. TARIXIY KARTOGRAFIYA VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI	
1. Karta va kartografiya haqida qisqacha tushuncha	89
2. Tarixiy kartalar	94
3. Tarixiy kartografiya	97

4. O'zbekiston da kartografiya fani tarixi	100
5. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari	103

VI BOB. XRONOLOGIYA VA METROLOGIYA

1. Xronologiya – vaqt to'g'risidagi fan. Tarixiy va astronomik	xronologiya
111	
2. Evropada xronologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiyoti	112
3. O'rta Osiyo olimlarining xronologiya rivojlanishiga qo'shgan hissasi	115
4. Metrologiya fanining maqsad va vazifalari	120
5. Metrologiya fanining rivojlanish tarixi	121
6. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi qonuni	127

VII BOB. DIPLOMATIKA

1. Diplomatiqa. Diplomatiq hujjatlar tarixi	130
2. Diplomatiqa fanining ob'ekti va predmeti	136
3. Rasmiy yozishmalar (diplomatiqa)ga doir manbalar	137

VIII BOB. GERALDIKA VA SFRAGISTIKA

1. Geraldikaning tarixiy fanlarni o'rganishdagi amaliy ahamiyati	142
2. Geraldikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi	144
3. Geraldlar va ularning vazifalari	147
4. Sfragistika - yordamchi tarixiy fan sifatida	149
5. Muhr turlari	150

IX BOB. GENEALOGIYA

1. Genealogiya (shajarashunoslik) fanining shakllanishi va Rivojlanish tarixi	154
2. Genealogik tadqiqot usullari	158
3. hukmdorlar shajaralari haqida ma'lumot beruvchi genealogik manbalar	159
4. Diniy suluklar tarixiga oid manbalar	162

SEMINAR MASHG'ULOTLARI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN

167

MAVZULAR

MUSTAQIL ISH BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN

168

MAVZULAR

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ

3

ГЛАВА I. ПАЛЕОГРАФИЯ

1. История палеографии. Её возникновения и развития
5
2. История письменных материалов
11
3. Письменные орудий
13
4. Оформлений и форма рукописей
16
5. Скрытые письма (криптография)
20
6. Арабская палеография
22
7. Из истории узбекской палеографии
25

ГЛАВА II. АРХЕОГРАФИЯ И ЭПИГРАФИКА

1. Цель и задачи археографии. Возникновения и развития
как наука
32
2. Эпиграфика
39
3. Крупный эпиграфический памятник мира
41
4. Орхоно-енисейские надписи
42

ГЛАВА III. НУМИЗМАТИКА

1. Цель и задачи науки нумизматики
46

47	2. Исследований по нумизматики	
	3. Основные понятий по нумизматики	49
	4. Монеты Узбекистана	49
	5. Среднеазиатский монеты раннего средневековья	51

ГЛАВА IV. ОСНОВЫ ТОПОНИМИКИ

	1. Топонимика. Цель и задачи науки	63
	2. Классификация и разделение топонимов	65
	3. Антропотопонимы	67
	4. Из истории топонимики	73
	5. Топонимика и лингвистика	78
	6. Топонимика и география	82
	7. Топонимика и история	85

ГЛАВА V. ИСТОРИЧЕСКАЯ КАРТОГРАФИЯ И ЕЁ ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

	1. Краткое понятия о карте и картографии	89
	2. Исторические карты	94
	3. Историческая картография	97
100	4. Из истории картография в Узбекистане	
	5. Картографических исследований Среднеазиатские ученых	103

ГЛАВА VI. ХРОНОЛОГИЯ И МЕТРОЛОГИЯ

	1. Хронология – наука о времени. Историческая и Астрономическая хронология	111
112	2. Возникновения и развития хронологии в Европе	
	3. Вклад Среднеазиатские ученых в развитии хронологии	115
	4. Цель и задачи метрологии	120
	5. История развития науки метрологии	121
127	6. Закон Республики Узбекистан “Об метрология”	

ГЛАВА VII. ДИПЛОМАТИКА

130	1. Дипломатика. История дипломатических актов	
136	2. Объект и предмет науки дипломатики	
137	3. Источники по официальные переписки (дипломатики)	

ГЛАВА VIII. ГЕРАЛЬДИКА И СФРАГИСТИКА

1. Практическая значимость геральдики в изучение исторических наук
142
2. Возникновения и развития геральдики
144
3. Геральды и их задачи
147
4. Сфрагистика – как вспомогательная историческая наука
149
5. Виды печат
150

ГЛАВА IX. ГЕНЕАЛОГИЯ

1. История возникновения и развития генеалогии
154
2. Методы генеалогического исследований
158
3. Источники по генеалогии царей
159
4. Источники по религиозных династий
162

РЕКОММЕНДУЕМЫЕ ТЕМ ПО СЕМИНАРСКИХ ЗАНЯТИЙ
167

РЕКОММЕНДУЕМЫЕ ТЕМ ПО САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ РАБОТ
168

S O N T E N T S

INTRODUCTION

3

CHAPTER I. PALEOGRAFIYA

1. History of paleography. Its creating and development	5
2. History of writing materials	11
3. Writing tools	13
4. Design and forms of manuscripts	16
5. Cryptography	20
6. Arabic paleography	22
7. From history of uzbek paleography	25

CHAPTER II. ARCHEOGRAPHY AND EPIGRAPHY

3. Aim and tasks of archeography. Creating and development as a science	32
2. Epigraphy	39
3. Biggest epigraphic monument of the world	41
4. Orchone-Yenisey writings	42

CHAPTER III. NUMIZMATY

1. Aim and tasks of numizmaty science	46
2. Numizmaty researches	47
3. Main notions of numizmaty	49
4. Coins of Uzbekistan	49
5. Early medieval coins of Central Asia	51

CHAPTER IV. BASE OF TOPONIMY

1. Toponymy. Aim and tasks of science	63
2. Classification and chapters of. toponimy	65
3. Antropotoponimys	67
4. From history of toponimy	73
5. Toponymy and linguistics	78
6. Toponymy and geography	82
7. Toponymy and history	85

CHAPTER V. HISTORICAL CARTOGRAPHY AND ITS MAIN DIRECTIONS

1. Brief ideas about map and cartography	89
2. Historical maps	94
3. Historical cartography	97
4. From history of historical cartography in Uzbekistan	100

5. Cartography researches of Central Asian scientists	103
---	-----

CHAPTER VI. CHRONOLOGY AND METROLOGY

1. Chronology – science about the time. Historical and astronomical	111	chronology
2. Creating and development of In Europe	112	
3. Contribution of Central Asian scientists on the developing of	115	chronology
4. Aim and tasks of metrology	120	
5. History of developing science of metrology	121	
6. Law of Uzbekistan “About metrology”	127	

CHAPTER VII. DIPLOMATICS

1. Diplomatics. History of diplomatic acts	130
2. Object and subject of diplomatics	136
3. Sources about official letters (diplomatics)	137

CHAPTER VIII. GERALDIKA I SFRAGISTIKA

1. Practical role of heraldry for studying of historical sciences	142
2. Creating and development of heraldry	144
3. Heralds and their works	147
4. Sphragisty – as a special historical discipline	149
5. Types of stamps	150

CHAPTER IX. GENEALOGY

1. History creating and development of	154	genealogy
2. Methods of genealogical	158	researches
3. Sources about genealogy of	159	rulers
4. Sources about religious	162	dynasty

RECOMMENDED THEMES FOR SEMINARS

167

RECOMMENDED THEMES FOR INDEPENDENCE WORKS

168